

ANJUMAN | КОНФЕРЕНЦИЯ | CONFERENCES | RESPUBLIKA KO'P TARMOQLI ILMYIY KONFERENSIYA


# YANGI O'ZBEKISTON: 2026

CONFERENCES.UZ

ILMIY TADQIQOTLAR

DAVRIYLIGI: 2018-2026

DUNYODA BIRINCHI KASHF ETILGAN ELEKTR CHIROG'



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VA XORIJY OLIY TALIM MUJASSASALARI PROFESSOR-O'QITUVCHILARI, YOSH OLIMLAR, DOKTORANTLAR, MAGISTRANTLAR VA IQTIDORLI TALABALAR

 TOSHKENT SHAHAR, AMIR TEMUR KO'CHASI, PR.1, 2-UY.  
 +998 97 420 88 81  
+998 94 404 00 00  
 WWW.TAQIQOT.UZ  
WWW.CONFERENCES.UZ

 IYUN №89



**ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН:  
ИЛМИЙ  
ТАДҚИҚОТЛАР 1-  
ҚИСМ**

---

**НОВЫЙ УЗБЕКИСТАН:  
НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ  
ЧАСТЬ-1**

---

**NEW UZBEKISTAN:  
SCIENTIFIC  
RESEARCH PART-1**

**ТОШКЕНТ-2026**



УЎК 323(575.1)(063)

КБК 66.3(5Ў)я43

И-18

DOI 10.5281/zenodo.11390854

«ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН: Илмий тадқиқотлар» [Тошкент; 2026]

«Янги Ўзбекистон: Илмий тадқиқотлар» мавзусидаги республика 89-қўп тармоқли илмий маърифий онлайн конференция материаллари тўплами, 30 июнь 2026 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2026. – 192 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн даврий анжуманлар «Харакатлар стратегияси — Тараққиёт стратегияси сари» тамойилига асосан ишлаб чиқилган етти устувор йўналишдан иборат 2022 – 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси мувофиқ: — илмий изланиш ютуқларини амалий-тажриби жиҳат йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий анжуманлари таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талабалар-иштирокчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилиб бориб, унда таълим тизимида илғор замонавий ёндашувлар, натижалар, муаммолар, ечимлар, статистик вазиятлар ва илмий-тараққиётнинг истиқболли режалари таҳлил қилинади конференцияси.

**Масъул муҳаррир:** Файзиев Шохруд Фармонови, ю.ф.д., доцент

**1. Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши -**

Профессор в.б., ю.ф.н. Юсувалиева Раҳима (Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

**2. Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар -**

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна(Фарғона давлат университети)

**3. Тарих саҳифаларидаги изланишлар –**

Исмаилов Хусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

**4. Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни-**

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

**5. Давлат бошқаруви-**

Доцент Шакирова Шоҳида Юсуповна (Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети "Беш муҳим ташаббус" маркази раҳбари)

**6. Журналистика-**

Тошбоева Барнохон Одилжоновна(Андижон давлат университети)

**7. Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар –**



Самигова Умида Хамидуллаевна (“Kinder land of Asia” НТМ ўқув ва тарбия ишлари бўйича директор ўринбосари)

**8. Адабиёт-**

PhD Абдумажидова Дилдора Рахматуллаевна (Тошкент Молия институти)

**9. Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни -**

Phd Вохидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

**10. Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар -**

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети, таржимонлик факультети, инглиз тили амалий таржимаси кафедраси в.б.доценти, PhD)

**11. Жисмоний тарбия ва спорт-**

Усмонова Дилфузахон Иброхимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

**12. Маданият ва санъат соҳаларини ривожланиши -**

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

**13. Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши -**

Бобохонов Олтибой Рахмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

**14. Тасвирий санъат ва дизайн-**

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

**15. Мусиқа ва ҳаёт-**

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

**16. Техника ва технология соҳасидаги инновациялар -**

Доцент Нормирзаев Абдуқаюм Раҳимбердиевич (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

**17. Физика-математика фанлари ютуқлари -**

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган муҳандислик-технология институти)

**18. Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар –**

Зупарова Зулфия Ахрор қизи DSc (Тошкент тиббиёт академияси фармакология кафедраси доценти, фармацевтика фанлари доктори)

**19. Фармацевтика**

Жалилов Фазлиддин Содиқович DSc (Альфраганус университети, фармацевтика ва кимё кафедраси мудири, фармацевтика ва кимё фанлар доктори, профессор)

**20. Ветеринария**

Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

**21. Кимё фанлари ютуқлари -**

Рахмонова Доно Қаххоровна (Навоний вилояти табиий фанлар методисти)

**22. Биология ва экология соҳасидаги инновациялар -**

Ўўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)



**23. Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари -**

Проф. Хамидов Мухаммадхон Хамидович "ТИИМСХ"

**24. Геология-минерология соҳасидаги инновациялар -**

Phd доцент Қахҳоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

**25. География- Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)**

---

*Тўпلامга киритилган тезислардаги маълумотларнинг ҳаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.*

© Муаллифлар жамоаси

© Tadiqiqot.uz

**Page maker/Верстка/Сахифаловчи:** Хуршид Мирзахмедов

**Контакт редакции журнала.**

**www.tadiqiqot.uz**

ООО Tadiqiqot город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadiqiqot.uz/>; E-mail:  
[info@tadiqiqot.uz](mailto:info@tadiqiqot.uz)

Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of**

**www.tadiqiqot.uz**

Tadiqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadiqiqot.uz/>; E-mail:  
[info@tadiqiqot.uz](mailto:info@tadiqiqot.uz)

Phone: (+998-94) 404-0000



**ЖАМИЯТДА ҚОНУН УСТУВОРЛИГИНИ ТАҲДИДГА СОЛУВЧИ  
ЖИНОЯТ – СУД ФАОЛИЯТИГА АРАЛАШИШ**

*Сайлиев Бекзод Шавкатович*

*Жиноят ишлари бўйича*

*Бўстонлиқ туман судининг судьяси*

**АННОТАЦИЯ:** Судьяларнинг мустақиллиги - демократик ҳуқуқий давлат барпо этиш ва одил судловни таъминлашнинг асосий шартларидан бири ҳисобланади. Суд ҳокимиятининг бошқа ҳокимият турларидан мустақил бўлиши, судьяларнинг фақат қонунга бўйсунган ҳолда қарор қабул қилиши ҳамда ҳар қандай ташқи таъсирлардан холи равишда фаолият юритиши - фуқароларнинг ҳуқуқ ва эркинликлари, қонуний манфаатларини самарали химоя қилишда муҳим аҳамият касб этади. Суд фаолиятига аралашини тақиқловчи ҳуқуқий нормалар эса суд адолати устуворлигини таъминлашга қаратилган бўлиб, ушбу тамойиллар суд-ҳуқуқ тизимининг нуфузи ва ишончини оширишда ҳал қилувчи ўрин тутди. Шу боис, судьялар мустақиллигини таъминлаш, уларга яратилган кафолатлар амалий жиҳатдан ишлашини таъминлаш бугунги суд-ҳуқуқ ислоҳотларининг энг долзарб йўналишларидан бири сифатида қаралмоқда.

**КАЛИТ СЎЗЛАР:** Суд мустақиллиги, одил судлов, суд ҳокимияти, қонун устуворлиги, суд-ҳуқуқ ислоҳотлари, суд фаолиятига аралашини, мустақил судьялар, қонунийлик ва холислик, жиноятнинг мақсади, жиноятлар ва жазо, ташқи таъсир ва суд қарорлари, суд иши ва қарорлар, мустақил ва адолатли суд, суд қарорлари, мансабдор шахслар ва жавобгарлик

Ҳозирги кунда Республикамизда суд-ҳуқуқ тизимини янада такомиллаштириш, уни замонавий талаблар асосида ислоҳ қилиш, фуқароларнинг ҳуқуқ ва эркинликларини таъминлашга қаратилган ишончли ва адолатли ҳуқуқий механизмларни жорий этиш борасида кенг кўламли ислоҳотлар амалга оширилмоқда. Жумладан, суд органлари фаолиятида ошқоралик, холислик ва қонунийлик тамойилларини мустаҳкамлаш, фуқароларнинг суд-ҳуқуқ органларига бўлган ишончини янада ошириш, шу орқали жамиятда қонун устуворлигини таъминлашга алоҳида эътибор қаратилмоқда. Мазкур ислоҳотлар нафақат суд-ҳуқуқ тизимининг институционал асосларини мустаҳкамлашга, балки демократик ҳуқуқий давлат ва фуқаролик жамиятини барпо этиш йўлидаги стратегик вазифаларни ҳал этишга хизмат қилмоқда.

Шундай экан, судда кўрилаётган ёки кўрилган ишларни ваколатли бўлмаган шахслар томонидан назоратга олиниши суд ҳокимияти тамойилларига зид ҳисобланади.



Бугунги кунда Ўзбекистондаги суд-ҳуқуқ ислоҳотларининг асосий мақсади ҳам суднинг алоҳида ва мустақил тармоғи сифатидаги мавқеини кўтаришга қаратилганлиги билан аҳамиятлидир.

Қонунчиликка мувофиқ, одил судловни амалга ошириш жараёнида суд фаолиятига ҳар қандай шаклдаги аралашув мутлақо тақиқланади. Бу тамойил, энг аввало, суд ҳокимиятининг мустақиллигини таъминлаш, унинг фаолиятида адолат, холислик ва қонунийлик принципларини таъминлашга хизмат қилади. Ҳар қандай ташқи таъсир ёки суд қарорларини қабул қилишга қаратилган ноқонуний аралашув суд-ҳуқуқ тизимининг нуфузига путур етказиши, шунингдек, фуқароларда адолатга нисбатан ишончни сусайтириши мумкин. Шу боисдан, суд фаолиятига аралашуш ҳолатларига қарши қатъий ҳуқуқий чоралар кўриш, бундай ҳаракатларнинг олдини олиш ҳамда судьяларнинг мустақил ва эркин фаолият юритишлари учун зарур ҳуқуқий ва амалий шарт-шароитлар яратиш суд-ҳуқуқ ислоҳотларининг муҳим йўналишларидан бири ҳисобланади.

Дарҳақиқат, шу ўринда суд ишларини ҳал этишга аралашуш жиноятига алоҳида тўхталиб ўтиш мақсадга мувофиқдир. Ушбу жиноятнинг бевосита объекти – бу суднинг одил судловни амалга ошириш борасидаги фаолиятининг мустақиллиги, шунингдек, прокурор, терговчи ёки суриштирувчининг ишни ҳар томонлама, тўлиқ ва холис тарзда тергов қилиш бўйича фаолиятининг эркинлиги ва мустақиллигини таъминловчи ижтимоий муносабатлардир. Мазкур жиноятчилик суд-ҳуқуқ органларининг фаолиятига ноқонуний таъсир ўтказиш орқали уларнинг мустақил ва холис қарор қабул қилиш имкониятини сусайтириш хавфини туғдиради ва, ўз навбатида, суд адолатининг таъминланишига жиддий тўсиқ бўлиб хизмат қилади.

Суд ишларини ҳал этиш - бу махсус ваколатли давлат органи – суд томонидан суд мажлисида тўпланган ёки тарафлар тақдим этган далиллар асосида ўтказиладиган текшириш жараёни. Суд ишларини ҳал этиш махсус ҳужжат: ҳукм, ҳал қилув қарори, ажрим ва қарор қабул қилиш билан тамомланади.

Суд ишлари деганда, нафақат биринчи инстансия судида кўриладиган ишлар, балки апелляция, кассация ва тафтиш тартибида иш юритиш, шунингдек, янги очилган ҳолатлар бўйича иш юритиш ҳам тушунилиши керак. Обьектив томондан жиноят ишнинг ҳар томонлама, тўла ва холисона ўрганилишига тўсқинлик қилиш мақсадида суриштирувчи, терговчи, прокурорга ёхуд адолатсиз ҳукм, ҳал қилув қарори, ажрими ёки қарор чиқарилишига эришиш мақсадида судьяга турли шаклда қонунга хилоф равишда таъсир ўтказишда ифодаланади.

Тергов қилишга ёки суд ишларини ҳал этишга аралашуш тергов органи, прокуратура ёки суд биноти ёнида шиор ёзилган плакатлар билан ёхуд иш ташлаш билан боғлиқ намойиш, митинг ёки намойиш ўтказиш, тергов, прокуратура ёки суд органлари биноти ёнида очлик эълон қилиш, оммавий ахборот воситаларида кампаниялар ташкил этиш ва бошқаларда намойиш бўлиши ҳам мумкин.



Аралашиш турли шаклда бўлиши мумкин: терговни бошқа йўналишда олиб бориш тўғрисида суриштирувчи, терговчи, прокурордан илтимос ёки талаб қилиш; судья ёки халқ маслаҳатчисидан ваъда берилган фойда ёхуд манфаат эвазига ишни муайян йўналишда олиб боришни талаб қилиш; таҳдид қилиш билан кўрқитиш; ўзи яхши танийдиган суриштирувчи, терговчи, прокурор, судья ёки халқ маслаҳатчиси орқали тергов ёки суд ишини ўзининг фойдасига ҳал этишга уриниш; маслаҳат бериш ёки давлат ҳокимияти мансабдор шахси орқали йўл-йўриқ бериш ва бошқалар.

Шунингдек, айбдор, унинг яқин қариндошлари, ҳимоячининг иш ҳолатлари бўйича дастлабки тергов органлари ёки прокурор ёхуд суд мажлисида судга шикоят, норозилик шаклидаги илтимосларни билдиришини аралашиш деб ҳисоблаб бўлмайди. Агар суриштирувчи, терговчи, прокурор, судья ишларига аралашиш ёки қаршилиқ кўрсатиш билан боғлиқ таъсир кўрсатиш ҳаракатлари ўлдириш билан кўрқитиш ёки зўрлик ишлатиш таҳдиди асосида акс эттирилса бу ҳаракатларни Ўзбекистон Республикаси жиноят кодексининг 112-моддаси ва 236-моддаси билан тавсифлаш лозим.

Шу ўринда субъектив томонга эътибор қаратсак, субъектив томондан тергов қилиш ёки суд ишларини ҳал этишга аралашиш тўғри қасддан содир этилади, яъни шахс ўз ҳаракатларининг ижтимоий хавфлилигини билади, қонунга зид ва адолатсиз қарор чиқарилишини хоҳлайди. Субъектив томоннинг зарурий белгиси аралашиш қандай мақсадда содир этилганлиги ҳисобланади. Ушбу жиноятнинг мотиви шахсий манфаатдорлик, ғаразли ният ва бошқалар бўлиши мумкин.

Жиноят субъекти - 16 ёшга тўлган ҳар қандай ақли расо жисмоний шахс. ЖКнинг 236-моддаси 2-қисмида тергов қилиш ёки суд ишларини ҳал этишга аралашиш мансабдор шахс томонидан содир этилса, оғирроқ жавобгарликни келтириб чиқариши кўрсатилган. Мансабдор шахс деганда, ишни тергов қилиш ёки ҳал этишга аралашишга бевосита ваколати бўлган шахсни тушуниш лозим.

Суд ҳокимиятининг мустақиллиги деганда, ҳокимиятлар бўлиниши принципига асосан суд ҳокимиятининг қонун чиқарувчи ва ижро этувчи ҳокимиятлардан мустақил ҳолда фаолият юритиши ҳамда фақатгина ўз ваколатлари доирасидаги вазифаларни амалга ошириши тушунилади. Бу эса, суд ҳокимиятининг бошқа ҳокимият турлари билан тенг, бироқ мустақил эканлигини англатади. Одил судловни амалга ошириш жараёнида эса судьяларнинг мустақиллиги муҳим ўрин тутаяди. Яъни, судьялар ишларни кўриб чиқишда ҳар қандай ташқи таъсирлардан, шахсий манфаатлардан ёки бошқа шахсларнинг фикр ва талабларидан мутлақо мустақил ҳолда қарор қабул қиладилар. Шунингдек, судьялар ишни мазмунан ҳал этишда ҳам фақат қонун ва ички ишончига таянади. Қарор қабул қилиш жараёнида, яъни алоҳида хонага ёки маслаҳатхонага кириш чоғида ҳам судьялар фақатгина шу ишни кўраётган суд таркибидаги аъзолар билан бирга бўлиб, бошқа шахсларнинг



аралашшига йўл қўйилмайди. Бу эса суд қарорларининг холис, қонуний ва адолатли қабул қилинишига хизмат қилади.

Судьяларнинг мустақиллиги тамойилининг амалда тўлиқ таъминланиши - фуқароларнинг ҳуқуқ ва қонуний манфаатларини ҳимоя қилиш, шунингдек, улар ўртасидаги ҳуқуқий низоларни қонуний, холис ва адолатли ҳал этишнинг энг самарали кафолатларидан бири ҳисобланади. Одил судловни амалга ошириш жараёнида судья тўлиқ мустақил бўлиши лозим бўлиб, у фақатгина амалдаги қонун нормаларига таянади ва ҳеч қандай ташқи таъсирга бўйсунмасдан фаолият олиб бориши шарт.



## YOSHLARNING MA'NAVIY TARBIYASIDA HUQUQ-TARTIBOT ORGANLARINING O'RNI

**Babayev Tolibjon Abdujalilovich,**  
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti  
"Siyosiy fanlar" kafedrasida dotsenti, PhD.

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada globallashtirish va raqamlashtirish sharoitida yosh avlodni ma'naviy-axloqiy rivojlantirish hamda ularda huquqiy madaniyatni shakllantirishda huquq-tartibot organlarining tutgan o'rni tahlil qilinadi. Ichki ishlar va boshqa huquqni muhofaza qiluvchi idoralarning profilaktik va tarbiyalovchi institut sifatidagi funksiyalari statistik jadvallar va hududiy tahlillar yordamida yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** yoshlar siyosati, ma'naviy tarbiya, huquq-tartibot organlari, profilaktika inspektori, huquqiy madaniyat, kibermakon.

Bugungi kunda dunyoda shiddat bilan kechayotgan globallashtirish jarayonlari va raqamli texnologiyalarning transformatsiyasi yoshlar ongi hamda ma'naviy dunyoqarashiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatmoqda. O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi ma'lumotlariga ko'ra, mamlakat aholisining qariyb 60 foizini yoshlar tashkil etadi. Bu esa yoshlarga oid davlat siyosatini samarali olib borishni va ular o'rtasida huquqiy tarbiyani kuchaytirishni talab qiladi. Jinoyatchilik dinamikasi tahlili shuni ko'rsatadiki, yoshlar ma'naviyatidagi bo'shliq va huquqiy ongning yetarli emasligi turli huquqbuzarliklarning kelib chiqishiga zamin yaratmoqda. Mazkur jarayonda huquq-tartibot organlari nafaqat jazolovchi, balki ijtimoiy va ma'naviy tarbiya beruvchi muhim bo'g'in sifatida namoyon bo'lmoqda.

Ma'naviy tarbiya va huquqiy madaniyatning sustligi voyaga yetmaganlar va yoshlar o'rtasidagi jinoyatlarning tarkibiy qismida yaqqol ko'rinadi[1]. Ichki ishlar vazirligining rasmiy yakuniy statistikasiga ko'ra, voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar turi bo'yicha quyidagi taqsimot kuzatilgan:

### Voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlarning turlari bo'yicha tahlili

Jinoyat turi	Holatlar soni	Jami ulushga nisbatan foizi
O'g'rilik	1 313	40,2%
Bezorilik	193	5,9%
Firibgarlik	84	2,6%
Transport vositasini olib qochish	68	2,1%
Qasddan badanga og'ir shikast yetkazish	68	2,1%
Boshqa turdagi jinoyatlar	1 540	47,1%
<b>JAMI</b>	<b>3 266</b>	<b>100%</b>



Jadval tahlilidan ko‘rinadiki, jinoyatlarning deyarli har ikkinchisi (**o‘g‘rilik — 1 313 ta holat**) moddiy manfaatdorlik va ma‘naviy tarbiyaning yetishmasligi tufayli sodir etiladi.

Hududlar kesimida olib qaraganda, voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining eng yuqori ko‘rsatkichlari urbanizatsiya va aholi zichligi yuqori bo‘lgan yirik shahar hamda viloyatlarga to‘g‘ri keladi.

Bugungi kunda huquq-tartibot organlari oldida turgan eng katta vazifalardan biri — yoshlarni raqamli tahdidlardan himoya qilishdir. Jinoyatchilik statistikasiga ko‘ra, respublika bo‘yicha ro‘yxatga olingan umumiy jinoyatlarning **49,6 foizi axborot texnologiyalari (AKT) orqali** (virtual firibgarlik, kiberhujumlar, ijtimoiy tarmoqlarda yot g‘oyalar targ‘iboti) sodir etilgan[2].

Bu vaziyatda IIV Kiberxavfsizlik markazlari ta‘lim muassasalarida faol targ‘ibot ishlarini olib bormoqda. Yoshlar o‘rtasida qonunlarga hurmat ruhini shakllantirish maqsadida profilaktika inspektorlari va psixologlar tomonidan oilalarda ma‘naviy muhitni sog‘lomlashtirish choralari ko‘rilmoqda. Jumladan, og‘ir turdagi an‘anaviy jinoyatlar (talonchilik, bosqinchilik) tizimli chora-tadbirlar natijasida kamayishiga erishildi.

Uyushmagan (hech qacda ishlamaydigan va o‘qimaydigan) yoshlar o‘rtasida ma‘naviy bo‘shliqning oldini olish maqsadida Mahallabay ishlash tizimi joriy etilgan. Profilaktika inspektorlari mahallalardagi yoshlar yetakchilari bilan hamkorlikda quyidagi natijalarga erishmoqda[3]:

- Sport to‘garaklari va harbiy-vatanparvarlik musobaqalariga jinoyatchilikka moyilligi bor yoshlarning ulushi jalb etilmoqda.
- Bandligi ta‘minlanmagan yoshlar kasb-hunarga yo‘naltirilmoqda.
- Ta‘lim va xalqaro imtihonlarga (masalan, 2025 yilda 17,3 mingdan ortiq yoshlarning imtihon xarajatlari qoplab berilgan) yoshlarni yo‘naltirish orqali ular ijtimoiy foydali mehnatga jalb qilinmoqda.

Olib borilgan statistik va kriminologik tahlillar shuni ko‘rsatadiki, yoshlarning ma‘naviy tarbiyasida huquq-tartibot organlarining roli faqatgina ma‘muriy nazorat yoki jazolash bilan cheklanmaydi[4]. Jinoyatlarning yarmidan ko‘pi virtual makon va AKT sohasiga ko‘chayotgan davrda yoshlarda raqamli va ma‘naviy immunitetni shakllantirish ustuvor vazifaga aylandi. Ichki ishlar organlari, ta‘lim muassasalari va oila institutining o‘zaro tizimli hamkorligigina yoshlar o‘rtasida ma‘naviy inqiroz va unga bog‘liq huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olishga xizmat qiladi.

#### ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasining «Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida»gi Qonuni. O‘RQ-406-son.
2. O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining voyaga yetmaganlar o‘rtasidagi jinoyatchilik bo‘yicha yillik hisoboti ma‘lumotlari.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining «Huquqbuzarliklar statistikasi» to‘plami.



4. Babaxanov H.Q. Uyushmagan yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklarning umumiy profilaktikasini takomillashtirish // Pedagogical Research Journal. – 2025.



## JAMIYAT HAYOTIDAGI IJTIMOIIY-HUQUQIY ISLOHOTLARDA ICHKI ISHLAR ORGANLARINING LEGITIMLIGINI OSHIRISH: MUAMMO VA YECHIMLAR

**Babayev Tolibjon Abdujalilovich,**  
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti  
"Siyosiy fanlar" kafedrasasi dotsenti, PhD.

**Annotatsiya:** Maqolada fuqarolik jamiyatini shakllantirish va rivojlantirish sharoitida ichki ishlar organlari (IIO) legitimligini oshirishning nazariy-huquqiy va amaliy jihatlari tahlil qilingan. Muallif tomonidan tizimning jamiyatdagi imijini yaxshilash, aholi bilan ishonchli muloqotni yo'lga qo'yish va sohani raqamlashtirish orqali legitimlikni mustahkamlash yo'nalishlari ko'rib chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** fuqarolik jamiyati, ichki ishlar organlari, legitimlik, ijtimoiy ishonch, shaffoflik, jamoatchilik nazorati, huquqbuzarliklar profilaktikasi.

Zamonaviy demokratik davlat qurish jarayonida fuqarolik jamiyati institutlarining roli tubdan oshib bormoqda. Kuchli fuqarolik jamiyati shakllanishining asosiy mezonlaridan biri — aholining davlat institutlariga, xususan, jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlovchi ichki ishlar organlariga bo'lgan ishonchidir.

Legitimlik — bu faqatgina qonuniylik emas, balki aholi tomonidan ushbu tizim vakolatlari va harakatlarining ixtiyoriy ravishda tan olinishidir. Ichki ishlar organlari faoliyatida jazolash tizimidan "ijtimoiy xizmat ko'rsatuvchi" modelga o'tilishi jamiyat va davlat o'rtasidagi konsensusni ta'minlaydi[1].

Siyosiy va huquqiy fanlarda legitimlik tushunchasi M. Veber tomonidan klassik tarzda uch turga (an'anaviy, xarizmatik, ratsional-huquqiy) ajratilgan. Ichki ishlar organlari faoliyatida legitimlik muammosini zamonaviy tadqiqotchilar (jumladan, J. Stanko va J. Bredli) aholining politsiya bilan muloqotdagi shaxsiy tajribasi va tizimning adolatlilik darajasi bilan bog'laydilar. O'zbekistonlik huquqshunos olimlarning ta'kidlashicha, IIO legitimligi ularning jamiyat bilan qanchalik ochiq muloqot qila olishiga to'g'ridan-to'g'ri bog'liq.

Ichki ishlar organlarining legitimligini oshirish majburiy kuch ishlatish vakolatiga ega tuzilmaning fuqarolar ko'zida qonuniy va adolatli himoyachiga aylanishini anglatadi. Bugungi kunda bu borada bir qator muhim yo'nalishlar mavjud:

1. **Jamoatchilik nazorati va ochiqlik:** IIO huzuridagi Jamoatchilik kengashlarining faoliyati tizim yopiqligini bartaraf etishga xizmat qilmoqda. Aholining axborotdan xabardorlik darajasi oshgani sayin, asossiz mish-mishlar va tizimga bo'lgan salbiy qarashlar kamayadi.
2. **"Mahallabay" ishlash tizimi:** Profilaktika inspektorlarining mahalla fuqarolar yig'inlari va aholi bilan bevosita yaqin aloqasi huquqbuzarliklarning



barvaqt oldini olish imkonini bermoqda. Bu esa tizimning ijtimoiy legitimligini oshiradi.

3. **Raqamlashtirish va korrupsiya omilini kamaytirish:** Davlat xizmatlarini ko'rsatish, jarimalarni rasmiylashtirish va murojaatlarni qabul qilish tizimining raqamlashtirilishi xodim va fuqaro o'rtasidagi bevosita aloqani kamaytirib, tizimga bo'lgan ishonchni mustahkamlamoqda[2].

**Mavjud muammolar:** Shu bilan birga, ayrim hududlarda xodimlarning kasbiy etikasi, muloqot madaniyatining pastligi va fuqarolarning huquqiy savodxonligi yetarli emasligi IIO va jamiyat o'rtasida anglashilmovchiliklarni keltirib chiqarmoqda.

Ichki ishlar organlarining legitimligi va aholi ishonchini baholashda quyidagi ijtimoiy-statistik indikatorlar asosiy mezon hisoblanadi:

- **Ishonch darajasi:** Jamoatchilik fikri so'rovnomalari (masalan, "Ijtimoiy fikr" markazi tahlillari) ko'rsatishicha, aholining IIOga bo'lgan umumiy ishonch darajasi barqaror ravishda **70-75%** atrofini tashkil etadi. Qolgan foiz tuzilmadagi korrupsiya xavfi va ochiqlikning yetishmasligi bilan izohlanadi.
- **Mahallabay profilaktika:** Respublika bo'yicha 10 mingdan ortiq mahallalarda faoliyat yuritayotgan profilaktika inspektorlarining aholi bilan bevosita aloqasi natijasida, jinoyatchilikdan xoli ("yashil") mahallalar ulushi so'nggi yillarda sezilarli darajada oshgan.
- **Raqamli transformatsiya:** Davlat xizmatlari va Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (my.gov.uz) orqali IIO tizimiga oid (sudlanmaganlik, avtotransportni ro'yxatdan o'tkazish va h.k.) murojaatlarning qariyb **60% dan ortig'i** elektron shaklga o'tkazildi. Bu esa sohadagi byurokraziyani kamaytirdi.

**Xorijiy tajriba.**

Rivojlangan davlatlarda politsiya tuzilmalarining legitimligini oshirishda quyidagi tizimli modellardan foydalaniladi:

Davlat	Qo'llaniladigan model / Yondashuv	Legitimlikni oshirishdagi natijasi
Buyuk Britaniya	<i>Policing by consent</i> (Rozilik asosidagi politsiya)	Politsiya kuch ishlatar emas, balki fuqarolarning roziligi va ko'magiga tayanadigan ijtimoiy institut sifatida ishlaydi. Xodimlar quolsiz yuradi.
AQSh	<i>Community Policing</i> (Jamiyatga yo'naltirilgan politsiya)	Politsiya xodimlari muayyan mahallalarga biriktirilib, aholi bilan hamkorlikda jinoyatchilikning ijtimoiy ildizlarini aniqlaydi va bartaraf etadi.
Germaniya	<i>Bürgernahe</i> (Fuqaroga yaqinlik)	Har bir tumanda "kontakt politsiyachilari" ishlaydi. Ularning asosiy vazifasi jazolash



		emas, balki fuqarolarga huquqiy va psixologik maslahat berishdir.
<b>Yaponiya</b>	<i>Koban</i> (Mahalliy politsiya budkalari)	Shahar va qishloqlarda kichik politsiya punktlari tashkil etilgan bo‘lib, ular mahalla hayotining ajralmas qismi hisoblanadi. Aholi bilan ishonch darajasi juda yuqori.

### Milliy amaliyotga tatbiq etish bo‘yicha takliflar.

Xorij tajribasi va statistik tahlillardan kelib chiqib, O‘zbekistonda IO legitimligini oshirish uchun quyidagilarni ilmiy taklif sifatida kiritish mumkin:

1. *"Rozilik asosidagi xizmat" konsepsiyasini singdirish:* IO xodimlarining ongida fuqaro davlat organi uchun emas, davlat organi fuqaro uchun xizmat qilishi tamoyilini mustahkamlash.
2. *Mustaqil baholash tizimi:* IO faoliyatiga baho berishda ichki idoraviy ko‘rsatkichlardan (jinoyslarni ochish foizi) voz kechib, reytingni to‘liq jamoatchilik so‘rovnomalari (mustaqil audit) asosida belgilash.
3. *Gadgetlar va shaffoflik:* Elektron bayonnomalar va bodi-kameralar tizimini to‘liq qonun bilan tartibga solish, fuqaro va xodim muloqotida inson omilini minimallashtirish[3].

Xulosa sifatida shuni ta’kidlash mumkinki, jamiyat rivojlanishida IO legitimligini yangi bosqichga olib chiqish uchun quyidagi choralarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

- Institutsional darajada: IO vakillarining mahalliy Kengashlar va jamoatchilik oldidagi hisobdorlik tizimini yanada soddalashtirish va natijadorligini oshirish.
- Kadrlar siyosatida: Xodimlarni tayyorlashda nafaqat jismoniy va jangovar, balki psixologik, inson huquqlari va stressga chidamlilik ko‘nikmalariga urg‘u berish.
- Ijtimoiy sheriklikda: Nodavlat notijorat tashkilotlari (NNT) va OAV bilan birgalikda aholining huquqiy madaniyatini yuksaltirishga qaratilgan qo‘shma media-loyihalarni ko‘paytirish.

Ichki ishlar organlarining legitimligining yuqori bo‘lishi mamlakatda qonun ustuvorligi va barqaror rivojlanishni ta’minlashning eng muhim kafolatidir.

### Adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ички ишлар органларининг фаолияти самарадорлигини тубдан ошириш, жамоат тартибини, фуқаролар ҳуқуқлари, эркинликлари ва қонуний манфаатларини ишончли ҳимоя қилишни таъминлашда уларнинг масъулиятини кучайтириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Фармони. «Халқ сўзи» газетасининг 2017 йил 11 апрелдаги 71 (6765)-сони.

2. Хидиров Ф.Ш. Маҳалла ҳуқуқ-тартибот маскани фаолиятининг ҳуқуқий асослари: Ўқув қўлланма – Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Малака ошириш институти, 2023. – 52 б.



3. Бабаев Т.А. Взаимодействие органов правопорядка с органами самоуправления и общественными организациями в общении с народом. // International scientific-practical conference: «Problems and prospects for the implementation of interdisciplinary research», 17-part, Spain, November 2024: Pp. 123-126.



## DAVLAT RO‘YXATIDAN O‘TISHNI RAD ETISH YOKI BUNDAN BO‘YIN TOVLASH TO‘G‘RISIDAGI ISHLARNI SUDDA KO‘RISHDA HUQUQ TO‘G‘RISIDAGI NIZONING YUZAGA KELISHI: NAZARIY VA AMALIY JIHATLAR

**Aminov Anvarbek Aminbek o‘g‘li,**  
O‘zbekiston Respublikasi  
Odil sudlov akademiyasi  
mustaqil izlanuvchisi

**Annotatsiya:** mazkur tezisda davlat ro‘yxatidan o‘tishni rad etish yoki undan bo‘yin tovlash bilan bog‘liq ma‘muriy nizolarni sudda ko‘rish jarayonida huquq to‘g‘risidagi nizoning yuzaga kelishi masalasi tahlil qilinadi. Huquq to‘g‘risidagi nizo tushunchasi, uning ma‘muriy-huquqiy nizolardan farqi hamda sud yurisdiksiyasini belgilashdagi ahamiyati ochib beriladi. Shuningdek, ilmiy nazariy tahlillar hamda yondashuvlar asosida ma‘muriy organ qarorining qonuniyligini tekshirish bilan huquqning o‘zi yuzasidan kelib chiqqan nizoni ajratish zarurati asoslab beriladi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Ma‘muriy sud ishlarini yuritish to‘g‘risidagi kodeksi doirasida davlat ro‘yxatidan o‘tkazishni rad etish yoki ro‘yxatdan o‘tkazishdan bo‘yin tovlash bilan bog‘liq ishlarni ko‘rishda uchraydigan amaliy muammolar tahlil qilinadi.

**Kalit so‘zlar:** davlat ro‘yxatidan o‘tkazish, ro‘yxatdan o‘tishni rad etish, bo‘yin tovlash, ma‘muriy sud, huquq to‘g‘risidagi nizo, sud yurisdiksiyasi, ma‘muriy huquq, ish yuritishni tugatish, sud ajrimi.

Davlat ro‘yxatidan o‘tkazish institutining asosiy vazifasi jismoniy va yuridik shaxslarning huquqiy maqomini e‘tirof etish hamda qonun bilan muhofaza qilinadigan huquqlarining amalga oshirilishini ta‘minlashdan iborat hisoblanadi. Shu jihatdan davlat ro‘yxatidan o‘tishni rad etish yoki vakolatli organlarning ro‘yxatdan o‘tkazishdan bo‘yin tovlashi bilan bog‘liq nizolar ma‘muriy sudlar tomonidan ko‘rib chiqiladigan muhim toifadagi ishlar sirasiga kiradi. Biroq amaliyotda mazkur turdagi ishlarni ko‘rish jarayonida ayrim hollarda huquq to‘g‘risidagi nizo yuzaga kelishi kuzatiladi. Bu esa ishning ma‘muriy sudlovga taalluqliligi hamda nizoni ko‘rib chiqish tartibini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Huquq to‘g‘risidagi nizo deganda taraflar o‘rtasida muayyan subyektiv huquqning mavjudligi, hajmi, tegishliligi yoki unga egalik qilish masalasida kelib chiqqan qarama-qarshilik tushuniladi. Bunday nizolarda asosiy masala ma‘muriy organ qarorining qonuniyligi emas, balki muayyan huquqning kimga tegishli ekanligini aniqlash hisoblanadi. Huquq to‘g‘risidagi nizo taraflar o‘rtasida muayyan subyektiv huquqning mavjudligi, mazmuni, hajmi yoki uning qaysi shaxsga tegishliligi yuzasidan vujudga keladigan huquqiy qarama-qarshilikni anglatadi. Bunday nizolarning o‘ziga xos jihati shundaki, unda ma‘muriy organ tomonidan



qabul qilingan qarorning qonuniyligi ikkilamchi masala bo'lib, asosiy e'tibor bahsli huquqning egasini aniqlashga qaratiladi. Ya'ni sud ma'muriy organning harakati yoki harakatsizligini baholashdan avval taraflardan qaysi biri mazkur huquqning qonuniy egasi ekanligini aniqlashi talab etiladi. *Masalan, ko'chmas mulkni davlat ro'yxatidan o'tkazishni rad etish bilan bog'liq ishda ikki shaxs bir obyektga nisbatan mulk huquqini da'vo qilayotgan bo'lsa, nizo ma'muriy organning rad etish qarorida emas, balki aynan mulk huquqining kimga tegishli ekanligida namoyon bo'ladi. Bunday holatda davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organ faqat huquqni qayd etuvchi subyekt hisoblanadi va u mulk huquqining haqiqiy egasini aniqlash vakolatiga ega emas. Shu sababli nizoning mohiyati ma'muriy-huquqiy munosabatlardan ko'ra fuqarolik-huquqiy munosabatlarga yaqinlashadi.*

Huquq to'g'risidagi nizolarni ma'muriy nizolardan ajratib turuvchi asosiy mezon ham aynan shunda namoyon bo'ladi. Ma'muriy nizolarda sud ma'muriy organ qarori, harakati yoki harakatsizligining qonuniyligini tekshiradi. Huquq to'g'risidagi nizolarda esa sudning asosiy vazifasi bahsli huquqning mavjudligini va uning qaysi shaxsga tegishli ekanligini aniqlashdan iborat bo'ladi. Natijada bunday nizolarni ko'rib chiqishda sud tomonidan kengroq dalillar doirasi o'rganiladi, taraflarning moddiy-huquqiy munosabatlari tahlil qilinadi va huquqning kelib chiqish asoslariga baho beriladi. Shu nuqtai nazardan, davlat ro'yxatidan o'tkazishni rad etish yoki undan bo'yin tovlash bilan bog'liq ishlarni ko'rishda huquq to'g'risidagi nizo mavjud yoki mavjud emasligini aniqlash alohida ahamiyatga ega. Chunki bu holat nafaqat ishning mazmuniga, balki uning qaysi sud yurisdiksiyasida ko'rilishi lozimligini belgilashga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Huquq to'g'risidagi nizoning noto'g'ri baholanishi esa sud vakolatlarining chalkashishiga, ishning asossiz ravishda boshqa sudga yuborilishiga yoki fuqarolarning sud himoyasiga bo'lgan huquqning kechikishiga sabab bo'lishi mumkin. Shu bois mazkur institut ma'muriy sudlov nazariyasi va amaliyotida muhim ilmiy hamda amaliy ahamiyat kasb etadi.

Huquq to'g'risidagi nizo masalasi xorijiy huquqshunos olimlar tomonidan ham keng tadqiq etilgan. Xususan, nemis ma'muriy huquqshunosi Iris Kemmler huquq to'g'risidagi nizoning asosiy belgisi sifatida taraflar o'rtasida moddiy huquqning mavjudligi yoki tegishlilik yuzasidan kelishmovchilik mavjud bo'lishini ko'rsatadi [1]. Olimning fikricha, ma'muriy sudning vazifasi, avvalo, ma'muriy organning qarori qonuniyligini tekshirishdan iborat bo'lib, agar nizo markazida ma'muriy akt emas, balki huquqning o'zi turgan bo'lsa, bunday munosabatlar boshqa turdagi sud yurisdiksiyasi doirasida hal etilishi lozim.

Yana bir nemis olimi Hartmut Maurer esa ham huquq to'g'risidagi nizolarni ma'muriy nizolardan ajratish zarurligini ta'kidlaydi [2]. Uning fikricha, ma'muriy sudlar huquq egasini aniqlash bilan emas, balki davlat organining huquqni qo'llash faoliyati qonuniy amalga oshirilgan yoki amalga oshirilmaganligini tekshirish bilan shug'ullanishi kerak. Shu sababli ma'muriy ishni ko'rish davomida huquqning qaysi shaxsga tegishli ekanligi yuzasidan tortishuv mavjudligi aniqlansa, sud avvalo ushbu nizoning moddiy-huquqiy mohiyatiga baho berishi zarur.



Rudolf Schmidt esa huquq to'g'risidagi nizolarni davlat organlari vakolatlari bilan bog'liq holda tahlil qiladi [3]. Olimning ta'kidlashicha, ma'muriy organlar ko'pincha huquqlarni yaratmaydi, balki ularni e'tirof etadi yoki qayd etadi. Shuning uchun huquqning mavjudligi yoki uning tegishliligi yuzasidan jiddiy tortishuv mavjud bo'lgan hollarda ma'muriy organ bunday masalani mustaqil ravishda hal qilish vakolatiga ega emas. Bu masala sud tomonidan moddiy-huquqiy jihatdan ko'rib chiqilishi kerak.

Fransuz huquqshunosi Jean Pradel ham huquq to'g'risidagi nizo va ma'muriy nizo o'rtasidagi farqni sud himoyasi nuqtai nazaridan izohlaydi. Uning fikricha, ma'muriy sudlar davlat boshqaruvi faoliyati ustidan nazoratni amalga oshirsa, huquqning mavjudligi yoki tegishliligiga oid bahslar xususiy huquqiy munosabatlar doirasida hal etilishi maqsadga muvofiqdir. Aks holda ma'muriy adliya va umumiy yurisdiksiya sudlari vakolatlari o'rtasidagi chegaralar buzilishi mumkin.

Rossiyalik olim Aleksey Nozdrachev esa huquq to'g'risidagi nizolarda asosiy e'tibor huquq egasini aniqlashga qaratilishini qayd etadi [4]. Uning fikricha, bunday nizolarni ko'rib chiqishda sud nafaqat protsessual masalalarni, balki huquqning vujudga kelish asoslarini, uning hajmini va tegishliligini ham tekshirishi lozim. Shu sababli huquq to'g'risidagi nizolar ko'pincha murakkab dalillash jarayoni bilan tavsiflanadi. Huquq to'g'risidagi nizo masalasiga yondashgan olimlar qatorida K. Davidovning qarashlari ham alohida ahamiyatga ega. Uning fikricha, huquq to'g'risidagi nizo vujudga kelganida asosiy muammo ma'muriy organ qarorining qonuniyligini baholash emas, balki taraflar o'rtasida muayyan subyektiv huquqning mavjudligi va uning kimga tegishliligi masalasida kelishmovchilik mavjud bo'lishidir. Shu sababli bunday holatlarda sud avvalo huquqiy munosabatning moddiy-huquqiy asoslarini aniqlashi, ya'ni huquqning vujudga kelishiga sabab bo'lgan faktik va huquqiy holatlarni chuqur tahlil qilishi zarurligini ta'kidlaydi [5]. Mazkur olimlarning qarashlarini umumlashtirgan holda aytish mumkinki, huquq to'g'risidagi nizing asosiy xususiyati ma'muriy organ faoliyatining qonuniyligini baholashdan ko'ra, muayyan huquqning mavjudligi va uning qaysi shaxsga tegishli ekanligini aniqlashga qaratilganligidadir. Aynan shu jihat davlat ro'yxatidan o'tkazishni rad etish yoki undan bo'yin tovlash bilan bog'liq ishlarni ko'rishda huquq to'g'risidagi nizo mavjudligini aniqlashda asosiy mezon bo'lib xizmat qiladi.

Amaliyotda ayrim holatlar mavjud bo'lib, ular ish mazmunida huquq to'g'risidagi nizo mavjudligini ko'rsatishi mumkin. Bunday vaziyatlarda taraflar o'rtasida muayyan subyektiv huquqning kimga tegishliligi, uning hajmi yoki vujudga kelish asoslari yuzasidan jiddiy kelishmovchiliklar kuzatiladi. Natijada nizing markazida ma'muriy organ qarorining qonuniyligi emas, balki aynan huquqning o'zi turadi. Bu esa ishni ko'rishda suddan faqat protsessual emas, balki moddiy-huquqiy masalalarni ham chuqur tahlil qilishni talab etadi. Shu sababli bunday holatlar huquq to'g'risidagi nizo mavjudligini aniqlashda muhim mezon ekanligini bildiradi hamda bunday toifadagi nizolarni ma'muriy sudar ko'rish vakolatiga ega bo'lmaydi. Buni quyidagilar bilana asoslash mumkin:

Birinchidan, ko'chmas mulkka bo'lgan huquqni davlat ro'yxatidan o'tkazishda bir nechta shaxs bir obyektga nisbatan mulk huquqini da'vo qilishi mumkin. Bunday



vaziyatda ma'muriy organ ro'yxatdan o'tkazishni rad etsa, ma'muriy sud avvalo kimning mulk huquqi mavjudligini aniqlashi lozim bo'ladi. Bu esa ma'muriy sud vakolatidan tashqariga chiqib ketishiga olib keladi.

Ikkinchidan, yuridik shaxslarni davlat ro'yxatidan o'tkazishda tashkilot ta'sischi o'rtasida korporativ nizo mavjud bo'lishi mumkin. Masalan, ta'sis hujjatlarining haqiqiyliigi yoki ta'sischi tarkibi yuzasidan kelishmovchilik bo'lsa, dastlab ushbu nizo hal etilishi talab etiladi.

Uchinchidan, fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish bilan bog'liq ishlarda qarindoshlik, otalik yoki meros huquqi masalalari yuzasidan tortishuvlar kelib chiqishi mumkin. Bunday hollarda ham huquqning o'zi bahsli bo'lib qoladi.

Bu borada Germaniyada davlat reyestrlari bilan bog'liq nizolarni sudda ko'rishda huquqiy munosabatning tabiati alohida ahamiyatga ega. Ma'muriy sudlar faqat ma'muriy organ faoliyatining qonuniyligini tekshirishi, xususiy huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolar esa umumiy yurisdiksiya sudlari tomonidan hal etilishi belgilanadi [6]. Ma'muriy sudning vazifasi huquq egasini aniqlash emas, balki ma'muriy organ qonunga muvofiq harakat qilgan yoki qilmaganligini baholashdan iborat. Shu sababli Germaniya sud amaliyotida huquq to'g'risidagi nizo mavjudligi aniqlansa, avvalo ushbu nizo tegishli sud tomonidan hal qilinishi talab etiladi.

O'zbekiston qonunchiligi va amaliyotiga etibor qaratadigan bo'lsak, O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksiga ko'ra, davlat ro'yxatidan o'tkazishni rad etish yoki undan bo'yin tovlash bilan bog'liq nizolar ma'muriy sudlarga taalluqli hisoblanadi [7]. Biroq ishni ko'rish davomida huquq to'g'risidagi nizo mavjudligi aniqlansa, mazkur holat sud tomonidan alohida baholanishi zarur. Chunki ma'muriy sudning asosiy vazifasi ma'muriy organning qarori yoki harakatsizligi qonuniyligini tekshirishdan iborat. Agar ishning mohiyati huquqning o'zi kimga tegishli ekanligini aniqlashga qaratilgan bo'lsa, bunday nizo fuqarolik sudlari yoki iqtisodiy sudlar vakolatiga kirishi mumkin. Shu sababli davlat ro'yxatidan o'tishni rad etish yoki bundan bo'yin tovlash to'g'risidagi arizani (shikoyatni) ko'rilayotganda huquq to'g'risida nizo kelib chiqqan bo'lsa sud ish yuritishni tugatish haqida ajrim qabul qiladi. Davlat ro'yxatidan o'tishni rad etish yoki undan bo'yin tovlash bilan bog'liq nizolarning o'ziga xos xususiyati shundaki, ayrim hollarda ular ma'muriy-huquqiy munosabatlar doirasidan chiqib, huquq to'g'risidagi nizoga aylanishi mumkin. Bunday vaziyatlarda nizoning haqiqiy mazmunini aniqlash va uni tegishli sud yurisdiksiyasiga taalluqli ekanligini belgilash alohida ahamiyat kasb etadi. Germaniya tajribasi shuni ko'rsatadiki, ma'muriy sudlar va boshqa yurisdiksiya sudlari vakolatlarini aniq chegaralash huquqiy aniqlikni ta'minlash hamda sud himoyasining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shu bois O'zbekiston sud amaliyotida ham davlat ro'yxatidan o'tkazish bilan bog'liq ishlarda huquq to'g'risidagi nizoni aniqlash mezonlarini yanada takomillashtirish maqsadga muvofiq.



**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Iris Kemmler: Allgemeiner Aufopferungsanspruch und öffentlich-rechtlicher Erstattungsanspruch. In: Juristische Arbeitsblätter 2005, S. 659 (660).
2. Hartmut Maurer, Christian Waldhoff: Allgemeines Verwaltungsrecht. 19. Auflage. C. H. Beck, München 2017, ISBN 978-3-406-68177-6, § 10, Rn. 85.
3. Rudolf Schmidt: Die Anfechtungsklage gegen Verwaltungsakte im französischen Verwaltungsrecht. München 1967.
4. Ноздрачев А. Ф. Административные акты: понятие, признаки, динамика // Административные процедуры и контроль в свете европейского опыта. М.: Статут, 2011. С. 134–136
5. Давыдов К. В. Административные процедуры: концепция правового регулирования: дис. ... д-ра юрид. наук. Нижний Новгород, 2020. С. 331–333, 357; Россинский Б. В. Административное право: учебник. 6-е изд., пересмотр. М.: Норма, ИНФРА-М, 2020
6. Verwaltungsgerichtsordnung. In der Fassung der Bekanntmachung vom 19.03.1991 (BGBl. I S. 686) zuletzt geändert durch Gesetz vom 23.04.2026 (BGBl. I S. 111) m.W.v. 29.04.2026
7. O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy sud ishlarini yuritish to‘g‘risidagi kodeksi // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. <https://lex.uz/docs/3527353>



## ҲАР ҚАНДАЙ ҲОЛАТДА ҲАМ УНДИРУВНИ ГАРОВ МУЛКИГА ҚАРАТИШ МУМКИН ЭМАС

**Р.М.Бегимов**

Сурхондарё вилоят  
суди судьяси

**КАЛИТ СЎЗЛАР:** гаров, гаров мулки, ундирувни гаровга қўйилган мол-мулкка қаратиш, кредитор талаблари, гаров билан таъминланган мажбурият, қарздорлик, гаров қиймати, Фуқаролик кодекси, «Гаров тўғрисида»ги Қонун, суд амалиёти.

**АННОТАЦИЯ:** Мазкур мақолада гаров билан таъминланган мажбуриятлар бўйича ундирувни гаров мулкига қаратишнинг ҳуқуқий асослари таҳлил қилинган. Хусусан, Ўзбекистон Республикасининг «Гаров тўғрисида»ги Қонуни ва Фуқаролик кодексига киритилган сўнгги ўзгартиришлар асосида гаров билан таъминланган мажбуриятнинг бузилиши жуда арзимас деб баҳоланадиган ҳолатлар ёритилган. Шунингдек, судлар томонидан ундирувни гаров мулкига қаратиш ҳақидаги талабларни кўриб чиқишда қарз миқдорининг гаров қийматига нисбати ҳамда мажбуриятни бажариш кечикишининг давомийлигини аниқлашнинг аҳамияти таҳлил қилинган.

Ўзбекистон Республикаси “Гаров тўғрисида”ги Қонуни (бундан кейинги матнларда Қонун деб юритилади)нинг 26-моддаси биринчи қисмига кўра, гаровга олувчининг (кредиторнинг) талабларини қондириш учун ундирувни қарздор гаров билан таъминланган мажбуриятни ўзи жавобгар бўлган вазиятларда бажармаган тақдирда ёки лозим даражада бажармаганда гаровга қўйилган мол-мулкка қаратиши мумкин.

Бироқ, ҳар қандай қарздорликни ундиришда ундирувни гаров мулкига қаратиш мумкин эмас.

Қонуннинг учинчи қисмига кўра, агар гаров билан таъминланган мажбуриятнинг қарздор томонидан бузилиши жуда арзимас бўлса ва шу туфайли гаровга олувчи талабларининг миқдори гаровга қўйилган мол-мулкнинг қийматига аниқ мос келмаса, ундирувни гаровга қўйилган мол-мулкка қаратишни рад этиш мумкин.

Ўзбекистон Республикасининг 2025 йил 22 апрелдаги “Кредиторларнинг гаров билан таъминланган талабларини қаноатлантириш тизими янада такомиллаштирилиши муносабати билан Ўзбекистон Республикасининг айрим қонун ҳужжатларига ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида”ги ЎРҚ-1060-сонли Қонуни 1-моддаси биринчи қисмининг 2-бандига асосан “Гаров тўғрисида”ги Қонуннинг 26-моддаси тўртинчи қисм билан тўлдирилди.



Унга кўра, гаров билан таъминланган мажбуриятнинг бузилиши қуйидаги шартлар бир вақтнинг ўзида мавжуд бўлган тақдирда, жуда арзимас деб ҳисобланади: 1) агар гаров билан таъминланган, қарздор томонидан қопланмаган мажбуриятнинг суммаси гаров қийматининг ўн беш фоизидан камроқни ташкил қилса; 2) агар гаров билан таъминланган мажбурият бажарилишининг кечикиши кетма-кет уч ойдан ошмаган бўлса.

Шунингдек, ушбу Қонуннинг 2-моддасига асосан Ўзбекистон Республикаси Фуқаролик кодексининг 279-моддасига шу мазмундаги учинчи қисм билан тўдирилди.

Бундай ҳолатда, судлар томонидан низони мазмунан ҳал этишда даъво талабидаги қарз миқдорининг гаров мулки қийматига нисбатини ва қарздорликни юзага келган даврини аниқлаш муҳим аҳамият касб этади.

### **Фойдаланилган адабиётлар**

Ўзбекистон Республикасининг Фуқаролик кодекси.

Ўзбекистон Республикасининг 1998 йил 1 майдаги «Гаров тўғрисида»ги Қонуни.

Ўзбекистон Республикасининг 2025 йил 22 апрелдаги ЎРҚ–1060-сон «Кредиторларнинг гаров билан таъминланган талабларини қаноатлантириш тизими янада такомиллаштирилиши муносабати билан Ўзбекистон Республикасининг айрим қонун ҳужжатларига ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида»ги Қонуни.

Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг иқтисодий низоларни кўриб чиқишда гаров тўғрисидаги қонунчиликни қўллашга оид қарорлари ва тушунтиришлари.

Ўзбекистон Республикаси қонунчилик маълумотлари миллий базаси – [.lex.uz](http://lex.uz)



## KONSTITUTSIYAVIY SHIKOYATNI RAD ETISH MEZONLARI: O‘ZBEKISTON VA XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASI

**Nurmamatova Noila Doniyorovna,**

*Toshkent davlat yuridik*

*universiteti tayanch doktoranti*

*e-mail:* [nurmamatovanoila@gmail.com](mailto:nurmamatovanoila@gmail.com)

**Annotatsiya.** Ushbu tezisdagi konstitutsiyaviy sud protsessida shikoyatni rad etish mezonlari hamda ishni sud majlisiga tayyorlash bosqichi tahlil qilinadi. O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi va Germaniya, AQSh, Fransiya konstitutsiyaviy nazorat organlari tajribasi qiyosiy o‘rganilib, murojaatni rad etishning huquqiy asoslari ochib beriladi. Tahlil natijasida konstitutsiyaviy sud faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan xulosalar ilgari suriladi.

**Kalit so‘zlar:** konstitutsiyaviy sud, konstitutsiyaviy shikoyat, murojaatni rad etish, konstitutsiyaviy nazorat, qiyosiy-huquqiy tahlil.

Bugungi kunda demokratik huquqiy davlat qurish jarayonida konstitutsiyaviy nazorat instituti inson huquq va erkinliklarini himoya qilish hamda Konstitutsiya ustuvorligini ta’minlashning muhim kafolatlaridan biri sifatida e’tirof etiladi. O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilgan konstitutsiyaviy islohotlar natijasida fuqarolarga konstitutsiyaviy shikoyat bilan murojaat qilish huquqining berilishi Konstitutsiyaviy sud faoliyatida murojaatlarni ko‘rib chiqish va ularni rad etish mezonlari masalasini yanada dolzarb qilib qo‘ydi. Konstitutsiyaviy sud protsessida shikoyatning asosli yoki asossiz ekanligini to‘g‘ri baholash, ishni sud majlisiga sifatli tayyorlash va murojaatni rad etishning aniq asoslarini belgilash sud faoliyati samaradorligini hamda qabul qilinadigan qarorlar obyektivligini ta’minlaydi. Ushbu tezisdagi mazkur masalalar O‘zbekiston qonunchiligi va xorijiy davlatlar – Germaniya, AQSh hamda Fransiya tajribasi asosida qiyosiy-huquqiy jihatdan tahlil qilinadi.

Konstitutsiyaviy sud protsessida shikoyatning asosli yoki asossiz ekanligini aniqlash muhim bosqichlardan biri bo‘lib, u sudning ish yuritish sifatini belgilaydi. Sajó va Uitzning ta’kidlashicha, sud tomonidan jalb qilingan ekspertlarning huquqiy baholashlari qarorlarning obyektivligini oshirishga yordam beradi [1]. Xorijiy tajribada, xususan, Germaniya Konstitutsiyaviy sudi faoliyatida, ekspert xulosalari sud ishlarini tayyorlash jarayonida keng qo‘llaniladi, bu esa sud qarorlarining huquqiy asosligini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega [2].

O‘zbekistonda ham Konstitutsiyaviy sud jarayonida huquqiy masalalar chuqur tahlil qilinadi. Sud tomonidan dalillarni tahlil qilish va tomonlarning ishtirokini ta’minlash sudning odil qaror qabul qilishiga yordam beradi. Bu borada O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to‘g‘risidagi konstitutsiyaviy qonunida sud majlisiga tayyorgarlik jarayonida huquqiy masalalar bo‘yicha ekspertlarni jalb qilish imkoniyati ko‘zda tutilgan.



Bundan tashqari, sud ishtirokchilarni chaqirish orqali ularning qarashlarini tinglaydi va muammoni turli tomonlardan yoritadi. Ishtirokchilar – shikoyat qiluvchi, javobgar, ekspertlar va advokatlar – o‘z nuqtai nazarlarini bildirish orqali sudga holatni to‘liq baholash imkoniyatini beradi. T.Ginsburg va R.Dixon ta’kidlashlaricha, demokratik davlatlarda Konstitutsiyaviy sudlarning ishi nafaqat konstitutsiyaviy huquqiy masalalarni hal qilish, balki davlatning huquqiy prinsiplariga rioya qilishni ta’minlash vazifasini ham bajaradi [3].

A.B.Gafurov O‘zbekistonda konstitutsiyaviy nazorat instituti Konstitutsiya ustuvorligini ta’minlash orqali konstitutsiyaviy qonuniylikni mustahkamlashi va shu yo‘l bilan ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi, “muvofiqlashtiruvchi” tizimli rol o‘ynashini ta’kidlaydi [4]. Shu ma’nodagi ishtirokchilarni chaqirish va ularning fikrlarini hisobga olish sud qarorlarining adolatliligini ta’minlaydi.

Demak, ishni sud majlisiga tayyorlash jarayoni faqatgina dalillarni yig‘ish va tahlil qilish bilan cheklanmaydi. U sudning ishni adolatli va qonuniy asosda ko‘rib chiqishi uchun muhim bosqich hisoblanadi. Tegishli mutaxassislarining jalb qilinishi, ishtirokchilar fikrlarining tinglanishi va huquqiy masalalarning chuqur tahlil qilinishi – bularning barchasi sud qarorlarining obyektivligini ta’minlashga xizmat qiladi. Bu nafaqat sudning faoliyatini samarali tashkil etishga, balki Konstitutsiyaga muvofiq yondashuvni kafolatlashga yordam beradi.

Konstitutsiyaviy sudlar faoliyatida murojaatni rad etish mezonlari sud tizimining samaradorligi va adolat prinsipiga rioya qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. O‘zbekiston Respublikasining «Konstitutsiyaviy sud to‘g‘risida»gi konstitutsiyaviy qonunining 34-moddasida sud tomonidan murojaatni rad etishning asoslari ko‘rsatib o‘tilgan. Bu jarayonning aniq belgilangan qoidalari mamlakat sud tizimini huquqiy barqarorlikka hissa qo‘shuvchi muhim omillardan biriga aylantiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudida konstitutsiyaviy shikoyatni rad etish qonunchilikda belgilangan bir necha muhim omillarga asoslanadi:

- vakolat doirasidan tashqarida bo‘lgan masalalar. Konstitutsiyaviy sud faqat Konstitutsiyaga zid deb hisoblangan masalalarni ko‘rib chiqadi. Agar murojaat mazmuni sudning vakolat doirasidan tashqarida bo‘lsa, sud murojaatni rad etadi. Misol uchun, iqtisodiy nizolar, ma’muriy huquqbuzarliklar yoki boshqa huquqiy tarmoqlar doirasiga kiruvchi masalalar konstitutsiyaviy nazorat doirasiga kirmaydi [5];
- dalillar yetarli darajada asoslanmaganligi. Murojaatda keltirilgan dalillar isbotlovchi hujjatlarsiz taqdim etilgan bo‘lsa yoki murojaatchi o‘zining konstitutsiyaviy huquqlari buzilganligini aniq ko‘rsata olmasa, sud murojaatni rad etadi. Bu, xususan, murojaatni vakolatni suiiste’mol qilish vositasi sifatida ishlatishning oldini oladi;
- muddatni buzish yoki protsessual talablarning bajarilmaganligi. Sudga murojaat etishda qonunda belgilangan muddatlarga rioya qilmaslik yoki murojaat shaklida protsessual kamchiliklar mavjud bo‘lsa, murojaat ko‘rib chiqilmaydi [5]. Bu talablar Konstitutsiyaviy sud ishi tizimini tartibga soluvchi muhim omil sifatida xizmat qiladi.



Xorijiy mamlakatlarda ham konstitutsiyaviy sudlar murojaatlarni rad etishda qat'iy mezonlarga amal qiladi.

Germaniya Federal Konstitutsiyaviy sudi faqat davlat organlarining huquqiy masalalari yoki shaxsiy konstitutsiyaviy huquqlarning buzilishi bilan bog'liq murojaatlarni qabul qiladi. Agar murojaatda ko'tarilgan masala sudning vakolatiga kirmasa, murojaat rad etiladi. Sud, shuningdek, ahamiyatsiz murojaatlarni qabul qilmaslik uchun aniq mezonlarga amal qiladi. Bu sudning resurslarini muhim masalalarga yo'naltirish imkonini beradi [2].

AQShda Oliy sud ishlarni, asosan, "certiorari" tartibida tanlab oladi. Bu huquqiy diskresiya bo'lib, kuchli sabablar (masalan, muhim federal/konstitutsiyaviy savol, sudlararo qarama-qarshilik) mavjud bo'lganda beriladi [6]. Oliy sud davlat yoki shtat qonunlari AQSh Konstitutsiyasiga muvofiqligi ko'tarilgan ishlarni quyi instansiyalar (federal apellyatsiya yoki shtatning eng oliy sudi) qaroridan so'ng ko'rib chiqishi mumkin [7]. Shaxsiy manfaat darajasida qolgan, keng federal ahamiyat kasb etmaydigan nizolar odatda quyi sudlarda hal etiladi; Oliy sud ularni ko'rib chiqmaslik huquqiga ega. Bunday murojaatlar, masalan, fuqarolik va mehnat nizolari yoki jinoiy huquqbuzarliklar bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Fransiyada Konstitutsiyaviy kengash (Conseil Constitutionnel) davlat va fuqarolar o'rtasidagi konstitutsiyaviy masalalarni hal qilishda o'ziga xos qoidalarga ega bo'lib, murojaatlarni qabul qilishda qat'iy mezonlarga amal qiladi. Bu sud faoliyatining faqat davlat va jamiyat uchun ahamiyatli bo'lgan masalalarga yo'naltirilishini ta'minlashga xizmat qiladi. Fransiya Konstitutsiyaviy kengashi qonun normalarini faqat ular konstitutsiyaga zid bo'lgan taqdirda ko'rib chiqadi. Agar normativ-huquqiy hujjatning konstitutsiyaga mosligi isbotlangan bo'lsa yoki murojaatchi buni rad etuvchi aniq dalillar taqdim eta olmasa, bunday murojaatlar qabul qilinmaydi. Ushbu qoida Fransiya huquqiy tizimining umumiy tartib-taomiliga mos bo'lib, normativ hujjatning qabul qilinish jarayonida huquqiy nazoratning kuchli bo'lishi va qabul qilinganidan keyin qonunning qonuniyligi shubha ostiga olinmasligi tamoyiliga asoslangan [8]. Misol uchun, biror bir qonun murojaatchiga noqulaylik tug'dirgan taqdirda ham, agar qonun konstitutsiyaviy tamoyillarga mos kelgan bo'lsa, murojaat rad etiladi. Shuningdek, davlatga qarshi noaniq va ahamiyatsiz talablar qabul qilinmaydi. Ya'ni, Konstitutsiyaviy kengashning vakolatlari faqat davlatning asosiy qonunlariga va konstitutsiyaviy tamoyillarga oid masalalarni hal qilishga qaratilgan. Murojaatchi tomonidan davlat siyosati yoki qonuniy tamoyillarni o'zgartirishni talab qiluvchi, lekin aniq huquqiy asosga ega bo'lmagan murojaatlar rad etiladi. Bu mezon davlat tizimini noaniq yoki shaxsiy manfaatlarga asoslangan talablardan himoya qilish uchun ishlab chiqilgan. Konstitutsiyaviy kengash konstitutsiyaviy nazoratni siyosiy yoki shaxsiy manfaatlardan himoya qiluvchi mustaqil organ sifatida olib boradi.

Demak, murojaatning rad etilishi asoslari konstitutsiyaviy sudga taalluqlilik, shikoyatning ahamiyati, buzilgan huquqning konstitutsiyaga aloqadorligi va protsessual muddatlar bilan bog'liq tartibda belgilanadi.

## Xulosa



Xulosa qilib aytganda, konstitutsiyaviy sud protsessida ishni sud majlisiga tayyorlash va shikoyatni rad etish mezonlari sud faoliyati sifatini hamda adolat prinsipini ta'minlovchi o'zaro bog'liq bosqichlardir. Tegishli mutaxassis va ishtirokchilarni jalb qilish, dalillarni har tomonlama tahlil qilish ishni xolisona ko'rib chiqish imkonini bersa, shikoyatni rad etishning aniq belgilangan asoslari – sudning vakolat doirasi, shikoyatning huquqiy asosliligi, buzilgan huquqning konstitutsiyaga aloqadorligi va protsessual muddatlarga rioya etilishi – sud resurslarini ahamiyatli masalalarga yo'naltiradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Sajó A., Uitz R. The constitution of freedom: An introduction to legal constitutionalism. – Oxford: Oxford University Press, 2017. – P. 242–244. – 574 p.
2. Kommers D. P., Miller R. A. The constitutional jurisprudence of the Federal Republic of Germany. – 3rd ed. – Durham, NC: Duke University Press, 2012. – 931 p.
3. Ginsburg T., Dixon R. Comparative constitutional law. – Cheltenham: Edward Elgar, 2011. – P. 3–5. – 693 p.
4. Gafurov A. B. Institut konstitutsionnogo kontrolya v Uzbekistane: stanovlenie, sovremennoe sostoyanie i perspektivy razvitiya // Zhurnal zarubezhnogo zakonodatel'stva i sravnitel'nogo pravovedeniya. – 2021. – № 17(3). – S. 5–18. <https://doi.org/10.12737/jflcl.2021.026>
5. O'zbekiston Respublikasining «Konstitutsiyaviy sud to'g'risida»gi Konstitutsiyaviy qonuni, 2021-yil. <https://lex.uz/docs/-5391934>
6. Supreme Court of the United States. Rules of the Supreme Court (Rule 10: Considerations Governing Review on Certiorari). – 2019. <https://www.supremecourt.gov/>
7. 28 U.S.C. § 1257 – State courts; certiorari (review of state court judgments raising federal questions). LII / Legal Information Institute.
8. Constitution of 4 October 1958 (France). Arts. 61, 61-1. Conseil constitutionnel. <https://www.conseil-constitutionnel.fr/>



**МЕХАНИЗМЫ ЗАЩИТЫ КОРПОРАТИВНЫХ ПРАВ,  
ОСНОВАННЫХ НА ЦИФРОВЫХ АКТИВАХ:  
ОПЫТ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН**

**Шодмонова Муслимахон Йигиталиевна**

*студент магистратуры*

*Ташкентский государственный юридический университет*

*Ташкент, Узбекистан*

*e-mail: shodmonovam13@gmail.com*

*Научный руководитель: Юлдошев Ж.И.,*

*д.ю.н., доцент ТГЮУ*

Стремительная цифровизация экономических отношений обусловила формирование принципиально новых инструментов фиксации и оборота корпоративных прав. Блокчейн-технологии, токенизированные ценные бумаги и смарт-контракты кардинально изменяют традиционные модели корпоративного управления, порождая острую необходимость в адаптации правовых механизмов защиты прав акционеров и участников обществ к условиям цифровой среды.

Как справедливо указывает А.Н. Якубов, в законодательстве Республики Узбекистан до сих пор отсутствует законодательное определение понятия «цифровой актив», а правовой статус криптовалют и блокчейн-технологий остаётся не в полной мере определённым [1]. Данный пробел приобретает особую значимость применительно к корпоративным правоотношениям: токенизированные акции, которые по своей экономической природе являются ценными бумагами, формально выведены из-под действия законодательства о ценных бумагах в силу Постановления Президента № ПП-3926 от 2 сентября 2018 года. Это порождает системную коллизию, лишаящую держателей токенизированных акций полноценной правовой защиты.

Анализ нормативной базы Республики Узбекистан в сфере цифровых активов — Постановлений Президента № ПП-3832 (2018), № ПП-3926 (2018), Указа № УП-121 (2022), а также Положения НАПП № 3397 (2022) — показывает, что регулирование носит фрагментарный характер и не содержит специальных механизмов защиты корпоративных прав в цифровой среде. Введённая с января 2026 года возможность выпуска токенизированных ценных бумаг на лицензированных фондовых биржах является важным шагом вперёд, однако нуждается в детальном нормативном сопровождении.

В доктрине выделяются три группы механизмов защиты корпоративных прав, основанных на цифровых активах. Судебные механизмы предполагают рассмотрение споров экономическими судами; их эффективность обеспечивается обязательными требованиями КҮС для лицензированных крипто-бирж, создающими доказательственную базу для идентификации



участников транзакций. Регуляторные механизмы реализуются через надзорную деятельность НАПП, лицензирование крипто-бирж и режим регуляторной песочницы. Технические механизмы — мультиподписные кошельки, механизм timelock, системы децентрализованной идентификации (DID) — дополняют правовые инструменты защиты на уровне архитектуры блокчейн-систем [2].

Сравнительно-правовой анализ свидетельствует о том, что ведущие юрисдикции избирают различные модели регулирования [3]: США реализуют баланс федерального и штатного регулирования; ЕС создал централизованную базу в виде регламента MiCA (2023); Сингапур и Швейцария тестируют экспериментальные правовые механизмы. Общей чертой успешных моделей является применение функционального и адаптивного подхода — использование «эластичных формулировок», предотвращающих отставание законодательства от технологического прогресса.

По результатам исследования сформулированы следующие предложения по совершенствованию законодательства Республики Узбекистан: во-первых, законодательно закрепить определение «цифровых активов» и их классификацию применительно к корпоративным правоотношениям; во-вторых, дополнить Закон «Об акционерных обществах и защите прав акционеров» № 223-I специальным разделом о токенизированных корпоративных инструментах с прямым распространением на их держателей полного объёма корпоративных прав; в-третьих, сформировать в системе экономических судов специализированный состав для рассмотрения споров в сфере цифровых активов; в-четвёртых, признать юридическую силу арбитражных оговорок, встроённых в смарт-контракты.

Таким образом, эффективная защита корпоративных прав в цифровой среде требует комплексного подхода, сочетающего совершенствование нормативной базы, развитие институциональных механизмов защиты и внедрение технических инструментов обеспечения прав держателей цифровых активов [1; 4]. Узбекистан располагает необходимой регуляторной инфраструктурой для реализации данного подхода — задача состоит в её последовательном развитии с учётом передового международного опыта.

**Список использованных источников:**

1. Якубов А.Н. Эволюция понятия цифровых активов и сравнительный анализ их правового регулирования // Вестник ТГЮУ. 2024. № 2. С. 25–40.
2. Постановление Правления НАПП от 28.11.2022 г. № 3397 «Положение о порядке выпуска, регистрации и обращения крипто-активов резидентами Республики Узбекистан» // lex.uz.
3. Regulation (EU) 2023/1114 on Markets in Crypto-Assets (MiCA) // OJ L 150, 9.6.2023. P. 40–205.
4. Закон Республики Узбекистан от 26.04.1996 г. № 223-I «Об акционерных обществах и защите прав акционеров» (в ред. Закона № ЗРУ-1070 от 23.06.2025) // lex.uz.



## ЦИФРОВИЗАЦИЯ РЕГИСТРАЦИИ И ПРАВОВОЙ ОХРАНЫ ТОВАРНЫХ ЗНАКОВ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН

*Хошимова Юлдузхон Олимжоновна*  
базовый докторант (PhD),  
Ташкентский государственный  
юридический университет

**Аннотация.** В статье анализируется процесс цифровизации регистрации и правовой охраны товарных знаков в Республике Узбекистан. Рассматриваются электронная подача заявок, ведение государственных реестров, публикация сведений на официальном веб-сайте уполномоченного органа и выдача свидетельств в электронной форме. Особое внимание уделяется реформе системы органов юстиции 2024 года, передавшей функции экспертизы Центру интеллектуальной собственности при Министерстве юстиции. Отдельно, кратко, затрагивается специфика цифровых процедур применительно к общеизвестным товарным знакам.

*Ключевые слова:* товарный знак, регистрация, цифровизация, электронная заявка, государственный реестр, свидетельство, общеизвестный товарный знак.

Товарный знак как обозначение, служащее для индивидуализации товаров и услуг участников гражданского оборота<sup>1</sup>, является одним из наиболее востребованных объектов промышленной собственности. В доктрине традиционно выделяют несколько функций товарного знака — прежде всего распознавательную (индивидуализирующую), а также гарантийную и рекламную, через которые знак связывает товар с его производителем и обеспечивает доверие потребителя<sup>2</sup>. Реализация этих функций напрямую зависит от доступности и прозрачности процедур регистрации, в связи с чем перевод соответствующих процедур в цифровой формат становится практически значимым.

Существенным этапом стала реформа системы органов юстиции, проведённая Законом Республики Узбекистан от 16 января 2024 года № ЗРУ-896<sup>3</sup>. В результате реформы функции государственной экспертизы заявок были возложены на Государственное учреждение «Центр интеллектуальной

<sup>1</sup>Закон Республики Узбекистан от 30 августа 2001 г. № 267-II «О товарных знаках, знаках обслуживания и наименованиях мест происхождения товаров» (в действующей редакции). Ст. 3.

<sup>2</sup>Городов О.А. Право на средства индивидуализации: товарные знаки, знаки обслуживания, наименования мест происхождения товаров, фирменные наименования, коммерческие обозначения. — М.: Волтерс Клувер, 2006. — С. 60.

<sup>3</sup>Закон Республики Узбекистан от 16 января 2024 г. № ЗРУ-896 «О внесении изменений и дополнений в некоторые законодательные акты Республики Узбекистан в связи с совершенствованием системы органов юстиции Республики Узбекистан».



собственности» при Министерстве юстиции Республики Узбекистан<sup>4</sup>. Тем самым была усилена институциональная концентрация функций в сфере правовой охраны средств индивидуализации, что создало более чёткую организационную базу для дальнейшей цифровизации соответствующих процедур.

Действующий порядок предусматривает подачу заявки на регистрацию товарного знака в электронной форме. Сведения о поданной заявке публикуются на официальном веб-сайте уполномоченного органа в течение одного рабочего дня<sup>5</sup>. Такой подход обеспечивает оперативность информирования заинтересованных лиц и прозрачность процедуры с самого начала делопроизводства по заявке.

Следует отметить, что цифровизация процедуры регистрации товарных знаков имеет значение не только как техническое упрощение подачи документов. Для заявителя она означает возможность быстрее отслеживать движение заявки, получать информацию о её статусе и снижать зависимость от бумажного документооборота. Для уполномоченного органа цифровой формат создаёт условия для более системного учёта заявок, сопоставления обозначений и формирования единой административной практики. Вместе с тем сама по себе электронная форма не гарантирует качества правовой охраны, если она не сопровождается понятными критериями экспертизы, стабильной работой электронных сервисов и доступностью сведений для заинтересованных лиц.

Как отмечают И.Б. Якубова и А.А. Юлдашов, формальная экспертиза заявки проводится уполномоченным органом в тридцатидневный срок с даты её подачи — на этой стадии проверяются содержание заявки, наличие необходимых документов и их соответствие установленным требованиям, далее экспертиза по существу — после чего в установленные сроки принимается решение о регистрации обозначения либо об отказе<sup>6</sup>. Тенденцию к переводу этих процедур в электронный формат отмечают и И. Рустамбеков, С. Гулямов и А. Убайдуллаева: по их наблюдению, процесс регистрации всё чаще ведётся онлайн через национальные порталы ведомств по интеллектуальной собственности, обеспечивая бóльшую скорость и удобство, хотя технические сбои, проблемы управления изменениями и пробелы в

---

<sup>4</sup>Государственное учреждение «Центр интеллектуальной собственности» при Министерстве юстиции Республики Узбекистан осуществляет государственную экспертизу заявок (в редакции Закона № ЗРУ-896 от 16 января 2024 г.).

<sup>5</sup>Заявка на регистрацию товарного знака подаётся в электронной форме; сведения о ней публикуются на официальном веб-сайте уполномоченного органа в течение одного рабочего дня. См.: ст. 8, 12 Закона о товарных знаках (в ред. Закона № ЗРУ-896).

<sup>6</sup>Якубова И.Б., Юлдашов А.А. и др. Интеллектуальное право: учебник. — Ташкент: ТГЮУ, 2025. — С. 48 (на узб. яз.).



возможностях экспертов осложняют полный переход к цифровым системам подачи заявок<sup>7</sup>.

Значимость стадии регистрации подчёркивается тем, что именно государственная регистрация выступает основанием возникновения исключительного права на товарный знак и условием предоставления ему правовой охраны<sup>8</sup>. Цифровизация затрагивает и завершающую стадию — выдачу свидетельства на товарный знак<sup>9</sup>. Переход к электронной форме свидетельства, содержащего QR-код, снижает риски фальсификации правоустанавливающих документов и упрощает подтверждение действительности прав. Ведение государственных реестров в электронном виде, в свою очередь, обеспечивает открытость и проверяемость сведений о зарегистрированных обозначениях и облегчает проверку их правового статуса.

Цифровые механизмы распространяются и на особую категорию обозначений — общеизвестные товарные знаки. Правовая охрана такому знаку предоставляется на основании решения Апелляционного совета, а сведения о нём вносятся в Перечень общеизвестных товарных знаков и публикуются на официальном веб-сайте уполномоченного органа<sup>10</sup>. Публичность Перечня и его электронное ведение повышают определённость в отношении знаков, пользующихся расширенной охраной, и облегчают их учёт при экспертизе вновь заявляемых обозначений. Таким образом, цифровизация процедур, выстроенная для обычных товарных знаков, может быть дополнена специальными цифровыми инструментами для общеизвестных знаков.

Для общеизвестных товарных знаков цифровая открытость имеет особое значение, поскольку речь идёт не только о регистрации обозначения, но и о признании за ним повышенного уровня правовой охраны. Публичный доступ к сведениям о таких знаках позволяет заявителям, экспертам и иным заинтересованным лицам учитывать их при выборе и проверке новых обозначений. В то же время эффективность такого механизма зависит от полноты публикуемой информации: важно, чтобы цифровой ресурс отражал не только сам факт признания знака общеизвестным, но и позволял понять основные параметры его охраны, включая дату признания, перечень товаров или услуг и правовое основание внесения в Перечень.

Вместе с тем важно сохранять баланс между скоростью и качеством: как предупреждают И. Рустамбеков и соавторы, многие юрисдикции уже допускают онлайн-подачу, автоматизированную первичную проверку,

<sup>7</sup>Rustambekov I., Gulyamov S., Ubaydullaeva A. Intellectual Property in the Digital Age: textbook. 2nd ed. — Tashkent: TSUL Publish; Roma Tre-Press, 2025. — P. 150.

<sup>8</sup>Сергеев А.П. Право интеллектуальной собственности в Российской Федерации: учебник. — М.: Проспект, 2007. — С. 614.

<sup>9</sup>Статья 20 Закона о товарных знаках (в редакции Закона № ЗРУ-896 от 16 января 2024 г.) — о свидетельстве на товарный знак.

<sup>10</sup>Статья 32<sup>2</sup> Закона о товарных знаках: правовая охрана общеизвестному товарному знаку предоставляется на основании решения Апелляционного совета; сведения вносятся в Перечень общеизвестных товарных знаков и публикуются на официальном веб-сайте уполномоченного органа.



представление образцов в цифровой форме и электронные свидетельства, что ускоряет процесс при минимальном ручном контроле, однако порождает обоснованную обеспокоенность снижением качества экспертизы по существу<sup>11</sup>. Поэтому развитие цифровых процедур должно сопровождаться сохранением содержательной строгости экспертизы.

Таким образом, цифровизация регистрации и правовой охраны товарных знаков в Республике Узбекистан является не только техническим этапом модернизации, но и важным условием повышения предсказуемости всей системы охраны средств индивидуализации. Электронная подача заявок, публикация сведений, ведение реестров и выдача электронных свидетельств способны сделать процедуру более доступной для заявителей и более прозрачной для рынка. Вместе с тем цифровизация не должна подменять собой содержательную экспертизу обозначений. Напротив, её дальнейшее развитие должно быть направлено на соединение технологической скорости с качеством правовой оценки, полнотой открытых данных и устойчивостью административной практики. Особенно актуально это для общеизвестных товарных знаков, где публичность сведений имеет значение не только для правообладателя, но и для всех участников гражданского оборота.

#### Список использованной литературы:

1. Закон Республики Узбекистан от 30 августа 2001 г. № 267-II «О товарных знаках, знаках обслуживания и наименованиях мест происхождения товаров».
2. Закон Республики Узбекистан от 16 января 2024 г. № ЗРУ-896 «О внесении изменений и дополнений в некоторые законодательные акты Республики Узбекистан в связи с совершенствованием системы органов юстиции Республики Узбекистан».
3. Городов О.А. Право на средства индивидуализации. — М.: Волтерс Клувер, 2006.
4. Сергеев А.П. Право интеллектуальной собственности в Российской Федерации: учебник. — М.: Проспект, 2007.
5. Огай Д.А. Правовое регулирование средств индивидуализации в Республике Узбекистан. — Ташкент: Институт мониторинга действующего законодательства, 2009.
6. Якубова И.Б., Юлдашов А.А. и др. Интеллектуальное право: учебник. — Ташкент: ТГЮУ, 2025 (на узб. яз.).
7. Rustambekov I., Gulyamov S., Ubaydullaeva A. Intellectual Property in the Digital Age: textbook. 2nd ed. — Tashkent: TSUL Publish; Roma Tre-Press, 2025. — 456 p. ISBN 978-9910-666-90-2.

<sup>11</sup>Rustambekov I., Gulyamov S., Ubaydullaeva A. Op. cit. — P. 153.



**GLOBAL TENDENSIYALARNING TALABALAR MA'NAVİY  
BARQARORLIGIGA TA'SIRI: IJTIMOY-FALSAFIY TAHLIL**

**Raxmonova Nigina Tolibovna**

Sharof Rashidov nomidagi  
Samarqand davlat universiteti  
“Falsafa” kafedrası assistenti

**Annotatsiya:** Mazkur ilmiy maqolada zamonaviy globallasuv sharoitida talaba-yoshlarning ma'naviy barqarorligini ta'minlashning ijtimoiy-falsafiy jihatlari tadqiq etiladi. Global tendensiyalarning (axborotlashuv, madaniy universallasuv, iste'molchilik madaniyati) yoshlar dunyoqarashiga ta'sir ko'rsatish mexanizmlari tahlil qilingan. Maqolada ma'naviy barqarorlik tushunchasi shaxsning tashqi destruktiv ta'sirlarga nisbatan ichki immuniteti sifatida baholanadi. Shuningdek, talabalarda tanqidiy tafakkurni rivojlantirish va milliy qadriyatlarni zamonaviy pedagogik texnologiyalar orqali singdirish bo'yicha amaliy tavsiyalar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** Globallasuv, ma'naviy barqarorlik, talaba-yoshlar, ijtimoiy-falsafiy tahlil, milliy o'zlik, axborot xavfsizligi, mafkuraviy immunitet, qadriyatlar transformatsiyasi, “ommaviy madaniyat”, kognitiv xavfsizlik.

Insoniyat sivilizatsiyasining hozirgi bosqichi shiddatli o'zgarishlar, texnologik inqiloblar va madaniy chegaralarning yuvilishi bilan xarakterlanadi. Bugungi kunda “globallasuv” tushunchasi shunchaki iqtisodiy integratsiya emas, balki butun dunyo xalqlarining turmush tarzi, fikrlashi va qadriyatlar tizimiga daxldor global hodisaga aylandi. Oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalar jamiyatning eng faol qatlami bo'lishi bilan birga, tashqi mafkuraviy ta'sirlarga nisbatan eng zaif va o'zgaruvchan guruh hisoblanadi.

Zamonaviy dunyoda “ma'naviy barqarorlik” tushunchasi yangicha falsafiy mazmun kasb etmoqda. Agar ilgari barqarorlik an'analarni saqlash sifatida talqin qilingan bo'lsa, hozirgi axborot asrida u doimiy o'zgaruvchan tashqi muhitda o'zligini yo'qotmay rivojlanish qobiliyatini anglatadi. Talaba-yoshlar ongida milliy va umuminsoniy qadriyatlarning uyg'unligini ta'minlash, ularni global tahdidlardan himoya qilish bugungi kunning strategik vazifasidir. Ushbu maqolaning maqsadi global tendensiyalarning talabalar ma'naviy olamiga ko'rsatayotgan ijobiy va salbiy ta'sirini ijtimoiy-falsafiy jihatdan tahlil qilish hamda yoshlar ma'naviy barqarorligini oshirish mexanizmlarini ochib berishdan iborat.

Globallasuv jarayoni insoniyat hayotiga qator ijobiy imkoniyatlarni olib kirdi. Axborotning ochiqqligi, ta'lim olishdagi global integratsiya va xalqaro muloqotning kengayishi shular jumlasidandir. Biroq, bu jarayonning “teskari tomoni” - madaniy universallasuv va milliy o'zlikka putur yetkazuvchi tendensiyalar ham kuchayib bormoqda.



Birinchiidan, raqamli transformatsiya. Ijtimoiy tarmoqlar talabalarning asosiy axborot makoniga aylandi. Virtual olamda axborotning filtrlarsiz tarqalishi yoshlar ongida haqiqat va yolgʻon oʻrtasidagi chegaraning yoʻqolishiga sabab boʻlmoqda. Ikkinchiidan, isteʼmolchilik madaniyati (consumerism). Global bozor iqtisodiyoti insonni faqat “isteʼmolchi” sifatida koʻradi. Bu tendensiya talabalar orasida moddiy boyliklarni maʼnaviy qadriyatlardan ustun qoʻyish, “tez boyish” xohishi va mehnatga asoslanmagan farovonlikka intilish kabi illatlarni keltirib chiqarmoqda. Uchinchiidan, “ommaviy madaniyat” tahdidi. Bu tendensiya sanʼat, axloq va hayot tarzini oʻta soddalashtirish, ibtidoiy his-tuygʻularga asoslangan kontentni ommalashtirish orqali yoshlarni milliy ildizlaridan uzishga xizmat qiladi. Falsafiy nuqtai nazardan barqarorlik tushunchasi statik emas, balki dinamik xarakterga ega. Talabaning maʼnaviy barqarorligi - bu uning tashqi muhitdagi salbiy “tebranishlar”ga qaramay, oʻzining maʼnaviy oʻzagi va maqsadlarini saqlab qolishidir.

Maʼnaviy barqarorlik quyidagi elementlardan tashkil topadi:

1. Akselogik (qadriyatli) element: Shaxsning qatʼiy axloqiy prinsiplari va eʼtiqodi.
2. Kognitiv (bilish) element: Tanqidiy fikrlash darajasi.
3. Psixologik element: Stressga chidamlilik va irodaviy mustahkamlik.

Global xurujlar sharoitida talabalarni himoya qilishning eng samarali yoʻli - bu taqiqlar emas, balki “maʼnaviy immunity”ni shakllantirishdir. Bu jarayon bir necha bosqichda amalga oshiriladi:

1. Tarixiy xotirani uygʻotish: Buyuk ajdodlar merosini oʻrganish talabada faxr tuygʻusini va milliy oʻzlikni shakllantiradi.
2. Media savodxonlikni oshirish: “Axborot gigiyenasi” tushunchasi yoshlar hayotining ajralmas qismiga aylanishi lozim.
3. Falsafiy mushohada: Talabaga tayyor bilimlarni berishdan koʻra, uni fikrlashga oʻrgatish muhimroq.

**Xulosa:** Global tendensiyalar davri talaba-yoshlar maʼnaviy barqarorligi uchun jiddiy sinov davridir. Ijtimoiy-falsafiy tahlil shuni koʻrsatdiki, barqarorlik shunchaki himoyalaniish emas, balki milliy qadriyatlarni zamonaviy ruh bilan boyitgan holda rivojlanishdir. Talabaning maʼnaviy dunyosi tashqi xurujlardan xoli boʻlishi uchun uning qalbida oʻz xalqiga muhabbat, vatanparvarlik va mustaqil fikrlash qobiliyati mustahkam joy olishi lozim.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi Oʻzbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: “Oʻzbekiston”, 2021.
2. Karimov I.A. Yuksak maʼnaviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: “Maʼnaviyat”, 2008.
3. Huntington S. The Clash of Civilizations. – NY: Simon & Schuster, 1996.
4. Toffler A. Power Shift. – Bantam Books, 1990.
5. Saifnazarov I. va boshqalar. Falsafa (darslik). – Toshkent: “Noshir”, 2022.



## TABAQALASHGAN YONDASHUV ASOSIDA AMALIY-KASBIY KOMPETENSIYASINI TAKOMILLASHTIRISH INTEGRATSIYASI

**Omarova Gavhar Sadikovna**

Buxoro davlat universiteti

“Ijtimoiy-siyosiy fanlari”

kafedrası o’qituvchisi

[gavharomarova1987@gmail.com](mailto:gavharomarova1987@gmail.com)

***Annotatsiya:** Mazkur maqolada bo’lajak o’qituvchilarda amaliy-kasbiy kompetensiyani takomillashtirishda tabaqalashgan yondashuvdan foydalanish integratsiyasining pedagogik taxlil aks ettirilgan.*

***Kalit so’zlar:** kompetensiya, zamonaviy texnologiya, huquqiy ta’lim, huquqiy tafakkur, integratsiya, metodologiya, texnologiya, pedagogik vosita.*

Integratsiyasi (lotincha “integration” tiklash, to’ldirish, integer butun so’zidan) fanlarning yaqinlashishi va o’zaro aloqa jarayoni, differentsiatsiya bilan birga kechadigan jarayon[1]. M.Y. Ruzimova tadqiqotlarida “didaktik jarayonning integratsiyalashuvi nafaqat nazariy va metodik o’quv jarayonni bir butun sifatida amalga oshirishni, balki jarayonning samarali olib borilishini ham ta’minlaydi. Ayniqsa, boshlang’ich ta’lim jarayonining serqirra va o’ziga xosligini inobatga olgan holda, bo’lajak boshlang’ich sinf o’qituvchilarini tayyorlashda metodik fanlarni integratsiyalash nazariy-metodik tayyorgarlik jarayonining samarali kechishini ta’minlaydi[2]”.

Tadqiqot bo’yicha obektiv xulosalarimizni umumlashtirib tabaqalashgan yondashuv asosida bo’lajak o’qituvchilarning amaliy-kasbiy(huquqiy) kompetensiyasini takomillashtirishning zamonaviy texnologiyalari – nazariy metodologiyani aniq amaliy natijaga aylantiruvchi raqamli va pedagogik uskunalar tizimi shakllantirishga harakat qildik. Mazkur texnologiyalar ta’lim oluvchilarning darajasiga qarab: interaktiv simulyasiya texnologiyalari:

Kazus-texnologiyalar (Cazus) – iyerarxik kazuslar (bir xil huquqiy muammo turli murakkablikda beriladi):

- ❖ Boshlang’ich guruhga (vaziyatdagi huquqbuzarlikni aniqlash);
- ❖ yuqori guruhga (ushbu muammoni hal qilishning bir necha huquqiy variantini ishlab chiqish va eng samaralisini asoslash).

Raqamli va LegalTech texnologiyalari:

- Adaptiv o’qitish platformalari: sun’iy intellekt yordamida foydalanuvchining xatolarini tahlil qilib, unga mos huquqiy modullarni (masalan, faqat intellektual mulk yoki soliq huquqi yohud mehnat huquqi bo’yicha) generatsiya qiluvchi tizimlar;



➤ Huquqiy konstruktorlar: shaxsga o'z ehtiyojidan kelib chiqib, tabaqalashgan holda huquqiy hujjatlar (shartnomalar, arizalar) loyihasini mustaqil yaratishni o'rgatuvchi dasturlar.

Loyihaviy texnologiyalar: “huquqiy klinika” talabalarni yoki mutaxassislarni real muammolar ustida ishlash darajasiga ko'ra tabaqalash, masalam, kimdir maslahat beradi, kimdir hujjat tayyorlaydi, kimdir strategiya tuzadi.

Mikrolearning (Kichik hajmli ta'lim) texnologiyasi: murakkab huquqiy normalarni foydalanuvchining “iste'mol qobiliyati”ga qarab kichik, tushunarli infografikalar, video-tushuntirishlar va testlar ko'rinishida taqdim etish. Ushbu texnologiyalar natijasi shundan iboratki huquqiy kompetensiyani “jonli” va shaxsga moslashtirilgan (customized) jarayonga aylantiradi, bu esa bilimlarning esda qolish darajasi va amaliy samaradorligini keskin oshiradi[3].

Tabaqalashgan yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning amaliy-kasbiy kompetensiyasini takomillashtirishda “Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi” fani dars jarayonlarida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni quyidagi tamoyillar asosida amalga oshiriladi:

1. Talabalarni konstitutsyaviy huquqlari, erkinliklari va burchlariga oid huquqiy terminlarning mohiyati va muhim xususiyatlari bilan tanishtirish;

2. Konstitutsyaviy huquqqa oid rasional bilim shakllantirish;

Bo'lajak o'qituvchilarda amaliy-kasbiy (huquqiy) kompetensiyalarni shakllantirishda tabaqalashgan yondashuvdan foydalanish metodikasini takomillashtirishda Mehnat huquqi darslarida zamonaviy texnologiyalardan foydalanishda bir necha jihatlariga alohida e'tibor berish kerak, bunda mashg'ulotning asosiy maqsadi bo'yicha kafolatlangan natijaga erishishda qo'llaniladigan har bir ta'lim texnologiyasi o'qituvchi va talaba o'rtasida hamkorlik faoliyatini vujudga keltirishi, har ikkalasi asosiy maqsadiga erishishi, dars jarayonida talabalar o'zlarining tanqidiy mustaqil fikrlarini bildira olishi, individual va jamoaviy-ijtimoiy kompetentlikka ega bo'lishi uchun o'qituvchi qulay sharoitlar yarata olishi lozim.

Boshqa fanlar kabi mehnat huquqi fanida ham zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish dars samaradorligini oshirib, quyida bir necha zamonaviy pedagogik texnologiyalar va innovasion metodlarni tahlil etamiz[4].

“Muammoli o'qitish” texnologiyasini oladigan bo'lsak, dars jarayonida bu texnologiyadan ma'ruza va seminar mashg'ulotlarida qo'llash bir muncha farq qiladi. Ma'ruza mashg'ulotlarida “Muammoli vaziyatlar”ni mavzuga mos shaklda yaratiladi. Masalan, “mehnat qilish huquqi” “Ijtimoiy va iqtisodiy huquqlar” mavzusining ma'ruza mashg'ulotida ma'lumotlar Mehnat Kodeksi va boshqa mehnat qonunchiligi asosida beriladi. Bugungi kunda mehnat shartnomasini tuzishdagi istisno holatlardan muammoli vaziyatlar va savollar gavdalantiriladi. Seminar mashg'ulotida esa aniq bo'lib o'tgan jarayonlar, muammoli vaziyatlar va ularning sabablari, yechimlar mikro va makro guruhlarda taxlil qilinadi. Bu uslubni qo'llash orqali talabalar eng avvalo atrofda holatlarga bafarqlik qobig'idan chiqadi



va muammolarni ko'rish qobiliyatlarini o'zlarida shakllantiradi, izlanuvchanlik, nazariy bilimlarni amaliyotga tadbiiq eta olish ko'nikmalari, kuzatuvchanlik, diqqatni bir joyga jamlash va o'z fikrini ifoda qilish malakalari ustida ishlaydi.

“Cazus” va “Case study” metodlarini mehnat huquqi darslarining seminar va amaliy mashg'ulotlarida qo'llash maqsadga muvofiqdir. Keys-stadi (inglizcha sase - to'plam, aniq vaziyat, stadi -ta'lim) - keysda bayon qilingan va ta'lim oluvchilarni muammoni ifodalash hamda uning maqsadga muvofiq tarzdagi yechimi variantlarini izlashga yo'naltiradigan aniq real yoki sun'iy ravishda yaratilgan vaziyatning muammoli-vaziyatli tahlil etilishiga asoslanadigan *ta'lim uslubidir*. Masalan, “Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi” fanidan kazus (keys) metodini qo'llash - talabalarda qonun moddalarini quruq yodlashdan voz kechib, ularni hayotiy va kasbiy vaziyatlarda tahlil qilish (huquqiy tafakkur) ko'nikmasini shakllantiradi.

Konstitutsiya darslarida kazus (keys) metodini qo'llash - bo'lajak o'qituvchilarni qonun hujjatlarini mexanik yodlashdan ularni hayotiy pedagogik jarayonlarda ijodiy qo'llashga yo'naltiradi. Bu esa huquqiy kompetensiyaning “faoliyatli” komponentini shakllantirishning eng samarali usuli hisoblanadi[5].

“Tabaqalashgan topshiriqlar banki” sifatida ilova qilishingiz mumkin. Bu bizning ilmiy yangiligimizni (tabaqalashgan yondashuv amalda qanday ishlashini) yorqin ko'rsatib beradi.

Keyslarni ishlab chiqishda quyidagi tipologiyalar asosida ishlab chiqilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Chunonchi, “FSMU”, “Bumerang”, “Ven diagrammasi”, “Aqliy hujum”, “Klaster” metodlari talabalarining mehnat huquqi mashg'ulotlarining barcha mavzularida qo'llash mumkin. Bunda talabalar mavzularni o'zlashtirish barobarida, chuqur ilmiy va intellektual salohiyatini oshirishga muvoffaq bo'ladi.

O'qituvchining kuzatuvlariga ko'ra mashg'ulotda qo'llanilgan innovasion usullar va zamonaviy texnologiyalar orqali talabalarining mehnat huquqiga oid huquqiy bilim, huquqiy ong va huquqiy tafakkurni shakllantirishda quyidagi kompetenlik holatlar ijobiy kechadi:

Birinchidan, kasbiy kompetentlikni shakllantirishda talaba qaysi mutaxassislik kasbini egallashidan qat'iy nazar mehnat jamoasida faoliyat yuritadi va mehnat huquqi fanini o'zlashtirish orqali davlatimiz tomonidan amalga oshirilayotgan siyosiy-huquqiy islohotlarni to'g'ri tafakkur qilish qobiliyatini shakllantiradi;

Ikkinchidan, mehnat munosabatlari jarayonlarida nafaqat o'z sohasiga oid bilimlar, balki mehnat jamoasida o'zaro konflikt, ya'ni turli ziddiyatli holatlardan chiqish savodxonligiga ega bo'ladi;

Uchinchidan, ijtimoiy kompetentlikka ega bo'lish, mehnat munosabatlarida ijtimoiy faollik ko'rsatish ko'nikmalari, malakalariga egalik, kasbiy faoliyatida subektlar bilan muloqotga kirisha olish qobiliyatiga ega bo'ladi;



To'rtinchidan, maxsus kompetentlikka ega bo'lishi, ya'ni talabalar kelajakda o'z mehnat faoliyatida psixologik, metodik, informasion, kreativ, innovasion va kommunikativ kompetentlikka ega bo'lishadi.

Xulosa qilib aytganda, mehnat huquqi darslarida zamonaviy pedagogik texnologiyalar va yangi texnik vositalardan foydalanish eng yuqori samara berishi shubhasizdir. Chunki, mazkur texnologiyalar pedagog-xodimlar va talabalarning o'z ustida to'xtovsiz ishlashiga, kreativ fikrlashi, kognetiv salohiyatga va huquqiy tafakkur qilishga yordam beradi. Natijada talaba yoshlarimiz raqobatbordosh, ma'naviy, jismoniy, ruhiy irodasi mustahkam, zamonaviy kadr bo'lib yetishadi. Shuningdek, hur fikrlilik, insonparvarlik, vatanparvarlik, mehnat sevarlik qobiliyatlarini ham shakllantiradi. Huquqiy kompetensiyani shakllantirishdan asosiy maqsad bu jamiyatda yoshlar o'rtasidagi huquqbuzarliklarning oldini olish hisoblanadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Integratsiya // <https://uz.wikipedia.org/wiki/Integratsiya>
2. Ruzimova M.Y. Integratsiyalashgan ta'lim asosida ta'lim jarayonini tashkil etishning o'ziga xos didaktik tamoyillari. Maqola, Magistrlar, 2023, fevral.
3. GS Omarova. [A new approach to teaching the subject "law" in the system of continuing education \(on the example of the system of secondary special education\)](#). Science and Education 2 (4), 403-409
4. OG Sadikovna. [A differentiated approach to the use of hybrid technology in the process of legal education](#). International Conference 20211 (1), 28-33
5. Азизхўжаева Н. Н. Педагогик технологиялар ва педагогик маҳорат. – Тошкент: ТДПУ, 2003. – 154-160-бетлар.
6. Sobirovich, T. B. (2023). Basic Criteria for Building the Third Renaissance in Uzbekistan. Asian Journal of Applied Science and Technology (AJAST), 7(1), 149-157.



## MARKAZIY OSIYO GEOSIYOSATINI TAHLIL QILISHNING NAZARIY ASOSLARI

**Islomova Dilfuza Rustam qizi,**

O'zbekiston davlat  
jahon tillari universiteti doktoranti,  
Toshkent, O'zbekiston.

[6115550@gmail.com](mailto:6115550@gmail.com)

ORCID: <https://orcid.org/0009-0008-8599-5102>

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada Markaziy Osiyo geosiyosatini o'rganishning nazariy asoslari tahlil qilinadi. Mintaqaning geostrategik ahamiyati, xalqaro munosabatlar tizimidagi o'rni hamda geosiyosiy jarayonlarni tushuntirishda realizm, liberalizm va konstruktivizm kabi nazariy yondashuvlarning ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, Markaziy Osiyoning tabiiy resurslari, transport-kommunikatsiya yo'laklari va yirik davlatlar manfaatlari kesishgan hudud sifatidagi xususiyatlari ko'rib chiqiladi.

**Kalit so'zlar:** Markaziy Osiyo, geosiyosat, xalqaro munosabatlar, realizm, liberalizm, konstruktivizm, geostrategiya.

**Abstract:** This article analyzes the theoretical foundations of studying the geopolitics of Central Asia. It highlights the geostrategic importance of the region, its role in the system of international relations, and the significance of theoretical approaches such as realism, liberalism, and constructivism in explaining geopolitical processes. The study also examines the characteristics of Central Asia as a region rich in natural resources, crossed by major transport and communication routes, and serving as an area where the interests of major powers intersect.

**Keywords:** Central Asia, geopolitics, international relations, realism, liberalism, constructivism, geostrategy.

**Аннотация:** В данной статье анализируются теоретические основы изучения геополитики Центральной Азии. Освещаются геостратегическое значение региона, его место в системе международных отношений, а также роль таких теоретических подходов, как реализм, либерализм и конструктивизм, в объяснении геополитических процессов. Кроме того, рассматриваются особенности Центральной Азии как региона, обладающего богатыми природными ресурсами, расположенного на пересечении важных транспортно-коммуникационных маршрутов и являющегося пространством пересечения интересов ведущих мировых держав.

**Ключевые слова:** Центральная Азия, геополитика, международные отношения, реализм, либерализм, конструктивизм, геостратегия.

### **Kirish**

Globalashuv jarayonlarining jadallashuvi, xalqaro munosabatlar tizimida yangi kuch markazlarining shakllanishi hamda geosiyosiy raqobatning kuchayishi Markaziy Osiyo mintaqasining strategik ahamiyatini yanada oshirmoqda. Markaziy



Osiyo Yevropa va Osiyoni bog'lovchi muhim geografik hudud sifatida qadimdan siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalar markazida bo'lib kelgan. Bugungi kunda ham mintaqa boy tabiiy resurslari, qulay geostrategik joylashuvi hamda xalqaro transport-kommunikatsiya yo'laklarining kesishgan nuqtasi sifatidagi ahamiyati bilan dunyo hamjamiyati e'tiborini o'ziga jalb etmoqda. Sovet Ittifoqi parchalanganidan so'ng Markaziy Osiyo davlatlarining mustaqillikka erishishi mintaqada yangi geosiyosiy muhitning shakllanishiga olib keldi. Natijada mintaqa nafaqat mintaqaviy, balki global siyosatning ham muhim obyektiga aylandi. Rossiya, Xitoy, AQSh, Yevropa Ittifoqi, Turkiya va boshqa xalqaro aktorlarning Markaziy Osiyoga bo'lgan qiziqishi tobora ortib bormoqda. Bu esa mintaqada turli manfaatlarning kesishuviga hamda geosiyosiy jarayonlarning murakkablashishiga sabab bo'lmoqda. Markaziy Osiyoda xavfsizlik, energetika, transport-logistika, suv resurslari va mintaqaviy integratsiya masalalari geosiyosiy tadqiqotlarning asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi [1]. Ushbu masalalarni ilmiy jihatdan tahlil qilishda xalqaro munosabatlar nazariyalaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi Markaziy Osiyo geosiyosatini tahlil qilishning nazariy asoslarini o'rganish, geosiyosiy jarayonlarni izohlashda qo'llaniladigan asosiy nazariy yondashuvlarning mazmuni va ahamiyatini yoritishdan iborat. Shuningdek, mintaqaning xalqaro munosabatlar tizimidagi o'rni hamda geostrategik ahamiyatini nazariy nuqtai nazardan tahlil qilish ushbu tadqiqotning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

### **Asosiy qism**

Geosiyosat davlatlarning geografik joylashuvi va siyosiy manfaatlari o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganadigan fan hisoblanadi. Markaziy Osiyo geosiyosatini tahlil qilishda bir qator nazariy yondashuvlardan foydalaniladi. Realizm nazariyasiga ko'ra, davlatlar o'z milliy manfaatlari va xavfsizligini ta'minlash uchun kurashadi. Ushbu yondashuv Markaziy Osiyoda Rossiya, Xitoy va AQSh kabi yirik davlatlarning faol ishtirokini tushuntirishda muhim ahamiyatga ega [2]. Liberalizm nazariyasi esa davlatlar o'rtasidagi hamkorlik, iqtisodiy integratsiya va xalqaro tashkilotlarning roliga e'tibor qaratadi. Markaziy Osiyo mamlakatlarining mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirishga intilishi ushbu nazariya orqali izohlanadi [3]. Konstruktivizm nazariyasi xalqaro munosabatlarda tarixiy tajriba, madaniy qadriyatlar va milliy identiklikning ahamiyatini ta'kidlaydi. Markaziy Osiyo davlatlarining umumiy tarixiy va madaniy merosi mintaqadagi siyosiy jarayonlarga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda [4].

Bugungi kunda Markaziy Osiyo energetika resurslari, transport koridorlari va xavfsizlik masalalari nuqtai nazardan muhim strategik hudud hisoblanadi [5]. Shu bois mintaqadagi geosiyosiy jarayonlarni tahlil qilishda turli nazariy yondashuvlardan kompleks foydalanish zarur.

### **Xulosa**



Markaziy Osiyo geosiyosatini tahlil qilishda realizm, liberalizm va konstruktivizm nazariyalari muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu yondashuvlar mintaqada kechayotgan siyosiy va iqtisodiy jarayonlarni chuqurroq anglash imkonini beradi. Zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimida Markaziy Osiyoning geostrategik ahamiyati ortib borayotganligi sababli, mintaqa geosiyosatini nazariy jihatdan o‘rganish ilmiy tadqiqotlarning muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qolmoqda.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Morgenthau H. Politics Among Nations. – New York: McGraw-Hill, 2006. - 145 p.
2. Waltz K. Theory of International Politics. – Reading: Addison-Wesley, 1979. – 305 p.
3. Keohane R. International Institutions and State Power. – Boulder: Westview Press, 1989. – 287 p
4. Wendt A. Social Theory of International Politics. – Cambridge University Press, 1999. – 62 p
5. Allison R. Central Asian Regionalism and Geopolitics. – London: Routledge, 2020. – 431 p.



QADIMGI VA O'RTA ASRLARDA XORAZM VOHASIDA SUG'ORMA  
DEHQONCHILIK TARIXI

Ibragimova RabiyaJon Mansurbekovna,  
Abu Rayhon Beruniy nomidagi  
Urganch davlat universiteti  
mustaqil izlanuvchisi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada dunyodagi eng qadimgi sug'orma dehqonchilik markazlaridan biri bo'lmish Xorazm vohasining qadimgi va o'rta asrlardagi agrar tarixi tadqiq etilgan. Maqolada Amudaryoning quyi oqimida joylashgan mazkur hududning tabiiy-geografik sharoiti, ilk sug'orish inshootlarining barpo etilishi, dehqonchilik madaniyatining shakllanishi va evolyusiyasi tarixiy hamda arxeologik manbalar asosida tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** Xorazm vohasi, sug'orma dehqonchilik, irrigatsiya, Amudaryo.

Insoniyat sivilizatsiyasi tarixida sug'orma dehqonchilik madaniyatining shakllanishi yirik daryo havzalari bilan uzviy bog'liq bo'lgan. Markaziy Osiyo, xususan, Amudaryoning quyi oqimida joylashgan Xorazm vohasi o'ziga xos ekologik va geografik muhitga ega bo'lib, bu yerda dehqonchilik juda qadimgi davrlardan boshlab iqtisodiyotning asosiy negizini tashkil etgan. S.P. Tolstov boshchiligidagi Xorazm arxeologiya-etnografiya ekspeditsiyasi tadqiqotlari vohada dehqonchilik va sun'iy sug'orish tizimlarining ming yillik tarixga ega ekanligini isbotladi.

Xorazmda ilk dehqonchilik madaniyati miloddan avvalgi II-I ming yilliklar chegarasiga borib taqaladi. Dastlabki bosqichda aholi Amudaryoning tabiiy tarmoqlari va toshqin suvlari qolgan havzalarda — «limli sug'orish» (лиманное орошение) usulidan foydalangan. Muntazam suv toshqinlari yerni tabiiy loyqa (il) bilan boyitgan, bu esa o'g'itsiz ham yuqori hosil olish imkonini bergan[1].

Miloddan avvalgi I ming yillikning o'rtalarida (Kaltaminor va Suyurgan madaniyatlaridan so'ng, ayniqsa Ahamiylar davri va undan keyingi mustaqil Qadimgi Xorazm davlatida) irrigatsiyada tub burilish yuz berdi. Muhandislik bilimlarining rivojlanishi natijasida Ko'zaliqir va Qal'aliqir kabi yirik shahar-qal'alarni suv bilan ta'minlovchi dastlabki yirik magistral kanallar qazildi. Bu davrda asosan arpa, bug'doy, tariq, kunjut va poliz ekinlari yetishtirilgan.

Ilk o'rta asrlarda Xorazmda Afrig'iylar sulolasi hukmronligi davrida dehqonchilik o'ziga xos xususiyat kasb etdi. Bu davr tarixshunoslikda «qal'alar davri» deb ataladi. Muntazam tashqi hujumlar va ichki nizolar tufayli dehqonchilik vohalari yirik devor bilan o'ralgan dehqon qo'rg'onlari (kulbalar va qasrlar) atrofida markazlashgan.

Bu davrning eng katta yutug'i — gidrotexnikada **chig'ir (charxpalak)** tizimining keng joriy etilishi bo'ldi. Chig'irlar yordamida Amudaryodan va chuqur



kanallardan suvni yuqori sathdagi tekisliklarga chiqarish imkoniyati tug'ildi. Bu esa vohada o'zlashtiriladigan yerlar maydonini keskin kengaytirdi[2].

Anushteginilar (Xorazmshohlar) davrida Xorazm butun Yaqin va O'rta Sharqning eng qudratli imperiyasiga aylandi. Bu davrda iqtisodiyot va sug'orma dehqonchilik o'zining eng yuqori cho'qqisiga chiqdi. Kanallar tizimi murakkab tarmoqlarga bo'linib, maxsus suv taqsimlagichlar (bandlar) va to'g'onlar orqali boshqarilgan.

Mazkur davrda dehqonchilik mahsulotlari tovar xususiyatini oldi:

- **Qovunchilik:** Xorazm qovunlari shirinligi va uzoq muddat saqlanishi bilan mashhur bo'lgan. Arab sayyohi Ibn Battuta Xorazm qovunlari tilini kesib quritilishi (qovun qoqi) va ular Hindiston hamda Xitoygacha eksport qilinganini yozadi.
- **Paxtachilik:** Vohada paxta yetishtirish va undan mato (bo'z) to'qish sanoat darajasiga ko'tarildi. Xorazm matolari Buyuk Ipak yo'li orqali tashqi bozorlarda yuqori baholangan.
- **Yer egaligi:** Yerlar asosan uch toifaga bo'lingan: *Mulk* (xususiy), *Vaqf* (diniy muassasalar ixtiyorida) va *Iqto* (harbiy va davlat xizmatchilariga shartli beriladigan yerlar).

Rivojlangan o'rta asrlarda Xorazm dehqonchiligi va uning mahsulotlari nafaqat mintaqaviy, balki xalqaro bozorda ham yuqori baholangan. Bu haqda XIV asrning mashhur arab sayyohi va geografi Ibn Battuta o'zining «Rixla» («Sayohatnoma») asarlarida qimmatli guvohliklarni qoldirgan.

Sayyoh Xorazm (Ko'hna Urganch) shahri va uning atrofidagi qishloqlarni tasvirlar ekan, vohaning yashil vodiya aylanganini va tuprog'ining nihoyatda unumdorligini alohida ta'kidlaydi: «*Men dunyoda Xorazmdan ko'ra aholisi zichroq, yo'llari ravonroq va qishloqlari go'zalroq o'lkani ko'rmadim*»[3].

Ibn Battuta xotiralarida Xorazm dehqonchiligining tashrif qog'ozi bo'lgan qovunchilik madaniyatiga yuqori baho berilgan. Uning yozishicha, voha qovunlaridek shirin va mazali mevani dunyoning hech bir nuqtasida uchratish umuman mumkin emas. Manbada mahalliy aholining mahsulotni uzoq muddat saqlash va eksport qilish bo'yicha o'ziga xos agrotexnologik usuli quyidagicha bayon etiladi:

- **Qovun qoqi tayyorlash:** Qovunlarning po'sti shilini, tilimlarga (tilka) bo'lingan va quyoshda quritilgan.
- **Eksport geografiyasi:** Tayyorlangan qovun qoqlari maxsus teri qoplarga joylanib, Buyuk Ipak yo'li karvonlari orqali Hindiston (Dehli sultonligi) va Xitoy (Yuan imperiyasi) saroylarigacha olib borilgan.
- **Ijtimoiy ahamiyati:** Quritilgan qovun voha aholisi uchun nafaqat asosiy ozuqa, balki tashqi savdoda oltin va kumush kabi qiymatga ega bo'lgan yirik iqtisodiy daromad manbai hisoblangan.

Xorazm vohasida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar (Jonbosqal'a, Topraqqal'a, Qo'yqirilganqal'a va Guldursun qal'alari) yozma manbalardagi ma'lumotlarni to'liq tasdiqlaydi hamda dehqonchilikning moddiy asoslarini ochib beradi.



Arxeologik qazishmalar davomida topilgan ashyoviy dalillarni bir necha guruhga ajratish mumkin:

- **Don omborlari va xumlar:** Topraqqal'a va Jonbosqal'a saroy komplekslaridan sig'imi bir necha yuz litrga teng bo'lgan ulkan sopol xumlar topilgan. Bu xumlarning ichidan kuygan arpa, bug'doy va tariq donlarining qoldiqlari aniqlangan. Bu esa davlat darajasida yirik g'alla zaxiralari yaratilganidan dalolat beradi.
- **Uzumchilik va vinochilik inshootlari:** Ilk o'rta asrlarga oid qal'alarning deyarli barchasida maxsus uzum siqish moslamalari (vinodelnyalar) va shira oqib tushadigan tosh novlar topilgan. Bu Xorazmda bog'dorchilik va uzumchilikning sanoat darajasida bo'lganini ko'rsatadi.
- **Agrotexnik qurollar:** Tuproq qatlamlaridan temirdan yasalgan omoch tishlari, og'ir ketmonlar, o'roqlar va don maydalagich tosh tegirmonlar (kelilar) topilgan. Temir qurollarning keng tarqalishi dehqonchilikda yerni chuqur haydash va unumdorlikni oshirish imkonini bergan[4].
Настоящее исследование исходит из предположения, что ESG-рейтинг и ESG-зрелость представляют собой различные аналитические конструкции и не должны рассматриваться как взаимозаменяемые показатели. Если рейтинг является внешней оценкой, формируемой специализированным агентством на основе собственной методологии, то ESG-зрелость отражает степень интеграции принципов устойчивого развития в систему управления компании, её процессы, практики раскрытия информации и механизмы контроля.

В международной литературе данная проблема становится всё более актуальной. Исследования показывают, что оценки одной и той же компании, присвоенные различными ESG-агентствами, могут существенно различаться. Следовательно, возникает вопрос не только о качестве рейтингов, но и о том, что именно они измеряют. Особенно важным этот вопрос становится для развивающихся стран, где ESG-инфраструктура находится на стадии формирования, а международное рейтинговое покрытие остаётся ограниченным.

В работе предлагается концепция ESG Reporting Maturity Index (ERMИ) - инструмента оценки публично наблюдаемой ESG-зрелости компаний. В основе индекса лежит идея о том, что институциональную зрелость невозможно измерить напрямую, однако её можно оценивать через наблюдаемые признаки. Поэтому ERMИ рассматривает четыре взаимосвязанных измерения: раскрытие информации, корпоративное



управление, достоверность данных и операционализацию ESG-подходов в деятельности компании.

Логика индекса строится вокруг последовательного развития ESG-системы. Сначала компания начинает раскрывать информацию и формировать ESG-политику. Далее появляются специализированные структуры управления и механизмы ответственности. Затем происходит подтверждение качества данных через внешнее заверение и взаимодействие с международными инициативами. Наконец, ESG становится частью повседневных управленческих процессов через KPI, цели и систему мониторинга результатов. Таким образом, индекс позволяет оценивать не отдельный отчёт и не отдельный рейтинг, а степень институционального развития ESG-системы в целом.

Особый интерес представляет опыт Узбекистана. В отличие от многих развитых стран, где ESG распространялся преимущественно под воздействием инвесторов и финансовых рынков, в Узбекистане ключевую роль играют государственные реформы, подготовка предприятий к приватизации, внедрение международных стандартов отчётности и развитие «зелёного» финансирования. Это позволяет рассматривать страну как интересный пример формирования ESG-инфраструктуры в условиях переходной экономики.

Проведённый анализ показывает, что международные ESG-рейтинги следует рассматривать как важный, но не единственный источник информации о состоянии ESG-систем компании. В ряде случаев формирование практик раскрытия информации и корпоративного управления начинается задолго до появления рейтинговой оценки. Следовательно, рейтинг отражает лишь часть процесса институционального развития и не всегда позволяет увидеть его полную картину.

Таким образом, исследование предлагает новый взгляд на оценку устойчивого развития компаний. Вместо противопоставления ESG-рейтингов и ESG-зрелости предлагается рассматривать их как взаимодополняющие инструменты. ESG-рейтинг выступает внешним сигналом для инвесторов и других заинтересованных сторон, тогда как ERMI позволяет анализировать внутреннюю логику формирования ESG-системы и отслеживать её развитие во времени.

#### **Список использованная литература**

1. Berg, F., Kölbl, J. F., & Rigobon, R. (2022). Aggregate confusion: The divergence of ESG ratings. *Review of Finance*, 26(6), 1315–1344. <https://doi.org/10.1093/rof/rfac033>
2. Chatterji, A. K., Durand, R., Levine, D. I., & Touboul, S. (2016). Do ratings of firms converge? Implications for managers, investors and strategy researchers. *Strategic Management Journal*, 37(8), 1597–1614.
3. Gibson Brandon, R., Krueger, P., & Schmidt, P. S. (2021). ESG rating disagreement and stock returns. *Financial Analysts Journal*, 77(4), 104–127.



4. Dimson, E., Marsh, P., & Staunton, M. (2020). Divergent ESG Ratings. MIT Sloan Management Review. <https://sloanreview.mit.edu/article/divergent-esg-ratings/>



## ХОРИЖ АМАЛИЁТИДА КИЧИК ТАДБИРКОРЛИК СУБЪЕКТЛАРИ УЧУН ТАКЛИФ ЭТИЛАЁТГАН КРЕДИТ МАҲСУЛОТЛАРИ ШАКЛЛАРИ

Ташмухамедов Маъруф Муратович  
Ўзбекистон Республикаси БМА тингловчиси  
m.muratovich@mail.ru

**Аннотация.** Мазкур тезисда кичик тадбиркорлик субъектлари фаолиятини кредитлаш бўйича хориж амалиёти ўрганиб чиқилган. Шу билан бирга кичик бизнесга тақдим этилаётган кредит маҳсулотларининг ўзига хос хусусиятлари билан яқиндан таништирилади.

**Калит сўзлар:** *кичик бизнес, кичик тадбиркорлар, кредит, факторинг, инвестиция, овердрафт, коммерсант, микрокредит*

Ҳозирги кунда хориж амалиётида кичик бизнес субъектларини кредитлашнинг бир нечта замонавий моделлари ишлаб чиқилган. Мазкур кредитлар хориж, хусусан, Россия банклари амалиётида тадбиқ этилган. Уларнинг бир нечта кенг тарқалган турлари билан яқиндан танишиб чиқамиз.

**Инвестицион кредитлар.** Буларга қуйидагилар киради: бизнес кредити, «Ишонч» кредити, бизнес айланмаси ва бошқалар. Бу бизнесни ривожлантириш, янги лойиҳани ишлаб чиқиш ва амалга ошириш, ишлаб чиқариш қувватларини сезиларли равишда кенгайтириш учун бериладиган кредит бўлиши мумкин.

Инвестицион кредитлар банклар томонидан 1,5 йилдан 10 йилгача берилади, бу жуда ҳам қулай бўлиб, уларга асосий қарзни тўлашни кечиктиришга имкон берилиши мумкин. Кредитлар кредит шартлари ва бошқа шартлар бўйича бир-биридан фарқ қилади.

**Лизинг операциялари учун кредитлар.** Бундай ҳолда, банк қарз олувчи томонидан талаб қилинадиган мол-мулкни мустақил равишда сотиб олади ва мулк ҳуқуқини сақлаб қолган ҳолда молиявий лизингга беради. Лизинг шартномаси охирида мулк лизинг олувчининг мулкига айланади.

**Факторинг.** Факторинг шартномасига биноан банк жўнатилган маҳсулотлар тўлови учун кредит беради. Шундай қилиб, айланма маблағларнинг етишмаслиги қопланади ва товарларни (ишларни, хизматларни) сотиш ҳамда харидор томонидан тўлаш ўртасидаги вақт оралиғи ёпилади. Амалиётда факторинг одатда 90 кунгача тақдим этилади [1].

**Аккредитивларни бериш учун кредитлар.** Аккредитивлар асосан ташқи иқтисодий фаолиятда қўлланилади ва бир йилгача муддатга берилиши мумкин.

**Овердрафт.** Кредитнинг ушбу шакли кичик тадбиркорга, агар ташкилотнинг ҳисобидаги ўз маблағлари вақтинча бўлмаса ёки етарли бўлмаган шароитда ҳам, зарурий тўловларни тезда амалга ошириш



имкониятини беради. Албатта, ушбу ҳисобрақам (ҳисоб ёки жорий) қарз берувчи банкнинг филиалида очилиши керак.

**Коммерсант.** Бу кичик тадбиркорга нафақат гаров ва кафилсиз, балки соддалаштирилган ҳужжатлар тўплами асосида бериладиган етарлича мослашувчан кредит туридир. Мазкур кредит туридан Россия банклари кенг фойдаланиб келинмоқда.

Россия амалиётида мазкур кредит суммаси 3 миллион рублгача тақдим этилади, шу билан бирга, кредитни қўллаб-қувватлаш ва муддатидан олдин тўлаш учун тўлов олинмайди (аммо, муддатидан олдин қайтаришнинг минимал миқдори 20 минг рубл). Сиз кредитни нақд ёки халқаро пластик картадан олишингиз мумкин. Бизнесни ривожлантириш кредитидан фарқли ўлароқ, "Коммерсант" ставкага нисбатан янада шаффоф шартларда тақдим этилади: йиллик 22%. Бундай юқори ставка қарз олувчига ишонч билдириш ва миждознинг кредитни узишни истамаганда банк ўзини суғурта қилиши билан изоҳланади [2].

**Бизнес-Экспресс.** 2017 йилда Россия кредит бозори учун ноёб, янги қарорларни тез қабул қилиш технологиясига асосланган кичик (4 млн. рублгача) кредитлар линияси фаол ривожлантирилди. Скоринг асосида қарз олувчидан сўровнома олган ҳолда, бу тизимдан фойдаланиш кичик бизнесга бир кун ичида тезкор кредитлар беришга имкон беради. Шундай қилиб, банклар бир кунда 30 минг рублгача (\$ 1000 ёки € 1000) омонатсиз, фақат компания эгаларининг қафолати асосида кредит берадилар.

**Микрокредитлар.** Сўнгги пайтларда Россия амалиётида микрокредитлар (30-600) минг рубл, кичик қарзлар (600 минг - 3 миллион рубл) ва ўрта кредитлар (3-15 миллион рубл) бериш анча ривожланди. Кредит олиш учун ариза берилган вақтдан бошлаб 14 кундан ортиқ бўлмаган муддат талаб этилади [2].

**Кредит пакетлари.** Мазкур лойиҳа Сбербанкнинг қизиқарли пилот лойиҳаси саналади. Банк ўз бизнесини бошлаётган тадбиркорларга 100 та стандарт лойиҳаларни, шу жумладан бизнеснинг аниқ бир саноат тармоғига мослаштирилган кредитларни, бизнес учун зарур ускуналар етказиб бериш ва тайёр ишлаб чиқилган бизнес режани таклиф этади. Банк вакилларининг сўзларига кўра, бунга асосан хизмат кўрсатиш, озиқ-овқат ва савдо соҳасидаги франчайзинг дастурлари киради.

### Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Гамидуллаев Р.Б. Анализ механизмов государственной поддержки малого инновационного предпринимательства. // Известия ПГПУ им. В.Г.Белинского, 2012, № 28. -С. 298.
2. Акопян П. А., Маляров А. С., Как кредитовать малый и средний бизнес: российско-итальянский проект // Банковское кредитование. — 2013. — №5. — С. 23-25.
3. ПАО Сбербанк: расмий сайти. URL: [www.sberbank.ru](http://www.sberbank.ru) (ташриф санаси: 19.09.2019, 03.12.2019, 30.03.2020).



## МОЛИЯ ИНСТИТУТЛАРИНИНГ ЭКОЛОГИК БАРҚАРОРЛИКНИ ТАЪМИНЛАШДАГИ РОЛИ

**Рахимова Хавахон Усманжановна** -  
и.ф.н., Ўзбекистон Республикаси  
Банк-молия академияси профессор в.б.,  
[havahon@rambler.ru](mailto:havahon@rambler.ru),

**Аннотация:** Ушбу мақолада яшил иқтисодиётнинг жаҳон ва миллий иқтисодиётдаги аҳамияти, банкларнинг экологик тоза лойиҳаларни молиялаштиришдаги стратегик роли, яшил облигациялар ва депозитлар амалиёти, шунингдек Ўзбекистонда ESG индекси жорий этилиши каби масалалар ёритилди.

**Калит сўзлар:** яшил иқтисодиёт, банклар, облигациялар, кредитлар, депозитлар, ESG тамойиллари, барқарор ривожланиш.

Яшил иқтисодиёт бугунги кунда жаҳон иқтисодиётида марказий масалага айланиб, иқтисодий ўсишни табиий ресурсларни тежаш ва атроф-муҳитни муҳофаза қилиш билан уйғунлаштиришни мақсад қилади. Жаҳон банки маълумотларига кўра, атроф-муҳитнинг ифлосланиши туфайли ҳар йили 4,2 триллион АҚШ доллари миқдорида иқтисодий зарар келтирилмоқда, бу эса жаҳон ялпи ички маҳсулотининг тахминан 5 фоизига тенг. Банклар ушбу жараёнда икки томонлама рол ўйнайди: улар экологик мувозанатни бузиши мумкин бўлган лойиҳаларни молиялаштириши эҳтимолдан холи эмас, бироқ шу билан бирга, яшил иқтисодиётни ривожлантиришда асосий молиявий воситачига айланиши мумкин.

Дунё амалиётида яшил облигациялар бозори 390 миллиард доллардан ошган бўлиб, 2025 йилга келиб 1 триллион долларга етиши кутилмоқда. Жанубий Кореяда «Яшил ўсиш» ва «Янги яшил курс» стратегиялари орқали банклар барқарор иқтисодиётни молиялаштиришда фаол иштирок этмоқда, Korea Green Growth Trust Fund эса 180 та дастурни 138 миллион доллар миқдорида қўллаб-қувватлаган. Европа Иттифоқи мамлакатларида эса 40 фоиздан ортиқ инвестиция фондлари ESG тамойилларини ўз фаолиятига жорий этган.

Ўзбекистонда ҳам яшил иқтисодиёт масалалари стратегик аҳамият касб этмоқда. Иқтисодий ва молия вазирлиги маълумотларига кўра, мамлакатдаги йиллик CO<sub>2</sub> чиқиндилари 120 миллион тоннадан ортиқ бўлиб, шундан 60 фоизи энергетика соҳасига тўғри келади. «Ўзбекистон – 2030» стратегиясида қайта тикланадиган энергия манбалари улушини 25 фоизга етказиш вазифаси белгиланган. 2023 йилда Навоий вилоятида қуёш электр станцияларини қуриш учун 200 миллиард сўмлик яшил облигациялар чиқарилди.

Шунингдек, тижорат банклари электромобиллар учун имтиёзли автокредитлар ва энергия самарадор уй-жойлар учун яшил ипотека



дастурларини йўлга қўйди. Бу каби молиявий маҳсулотлар аҳоли ва бизнес субъектларини экологик жиҳатдан тоза технологиялардан фойдаланишга рағбатлантиради. Шу билан бирга, яшил депозитлар аҳоли маблағларини экологик аҳамиятга эга лойиҳаларга йўналтириш имконини бериб, барқарор молиянинг муҳим йўналишига айланмоқда. Масалан, Германияда аҳолининг 15 фоиздан ортиғи барқарор депозитларни танлайди, Японияда эса банклар махсус «эко-ҳисоблар»ни таклиф этмоқда. Ўзбекистонда ҳам 2024 йилда учта йирик банк яшил депозитларнинг пилот дастурларини бошлади ва бу орқали миллий молия бозорида экологик йўналишдаги инновациялар амалга оширилмоқда.

Яшил молиявий маҳсулотлар билан бир қаторда ESG тамойиллари — экологик масъулият, ижтимоий ғамхўрлик ва корпоратив бошқарув шаффофлиги — яшил иқтисодиётни ривожлантиришда муҳим мезон сифатида намоён бўлмоқда. Ушбу стандартлар банклар ва корхоналарнинг барқарор ривожланишга қаратилган фаолиятини баҳолашда асосий кўрсаткич ҳисобланади. 2025 йилда Ўзбекистонда миллий ESG индекси жорий этилди ва натижаларга кўра, йирик корхоналарнинг 30 фоизи барқарор ривожланиш элементларини ўз фаолиятига кирита бошлади. Бу эса мамлакатда экологик маданият ва молиявий барқарорликни таъминлаш йўлида муҳим қадам бўлиб хизмат қилмоқда.

Хулоса қилиб айтадиган бўлсак, яшил иқтисодиётни ривожлантириш банкларнинг фаол иштирокини талаб қилади. Улар экологик тоза лойиҳаларни молиялаштиришда стратегик ҳамкор сифатида позиция эгаллаши зарур. Давлат томонидан солиқ имтиёзлари, экологик буюртмалар ва яшил облигациялар чиқарилишини рағбатлантириш каби чоралар зелёна ташаббусларнинг рентабеллигини ошириш учун муҳим шарт ҳисобланади. Жаҳон бозорида барқарор молиявий инструментлар икки рақамли суръатларда ўсиб бораётган, экологик хатарлар эса глобал тус олаётган бир шароитда банкларнинг эколого-иқтисодий мувозанатни таъминлашдаги роли жаҳон иқтисодиётида ҳам, Ўзбекистон иқтисодиётида ҳам келгуси тараққиёт учун ҳал қилувчи ва муайян омил сифатида намоён бўлмоқда.

### Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Губарьков С.В., Егшин В.С. (2020). *Зелёный банкинг: технологии создания новых банковских продуктов*. Москва: Финансы и кредит.
2. World Bank. (2024). *World Development Report: Green Growth and Sustainability*. Washington, DC.
3. Korea Green Growth Trust Fund (KGGTF). (2021). *Annual Report: Supporting Client Countries in Green Transition*. Seoul.
4. European Commission. (2023). *EU Green Deal Progress Report*. Brussels.
5. Министерство экономики и финансов Республики Узбекистан. (2024). *Доклад о выбросах CO<sub>2</sub> и стратегии «Узбекистан – 2030»*. Ташкент.
6. Центральный банк Республики Узбекистан. (2023). *Отчёт о выпуске зелёных облигаций в национальной валюте*. Ташкент.



7. Investor's Business Daily. (2025). *ESG Ratings in Financial Sector: Metropolitan Bank, Moelis & Co., Artisan Partners*. New York.
8. OECD. (2022). *Financing Green Projects: Global Trends and Policy Recommendations*. Paris.



## XORAZM VILOYATI MINTAQASIDA DEMOGRAFIK JARAYONLARNI ZAMONAVIY STATISTIK TADQIQ QILISH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH XUSUSIYATLARI

**Atabayeva K.R.**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi  
Urganch davlat universiteti  
Iqtisodiyot kafedrası  
katta o'qituvchisi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Xorazm viloyati mintaqasida demografik jarayonlarni zamonaviy statistik tadqiq qilish usullarini takomillashtirish zaruriyati va xususiyatlari yoritilgan. Shuningdek, mintaqada demografik jarayonlarni zamonaviy statistik tadqiq qilish usullarini takomillashtirish yuzasidan xulosalar bayon etilgan.

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются необходимость и особенности совершенствования методов современного статистического исследования демографических процессов в Хорезмской области. Также сделаны выводы о совершенствовании методов современного статистического исследования демографических процессов в регионе.

**Abstract.** This article discusses the need and features of improving the methods of modern statistical research of demographic processes in the Khorezm region. Also, conclusions are drawn on the improvement of methods of modern statistical research of demographic processes in the region.

**Kalit so'zlar.** Xorazm viloyati, mintaqa, demografik jarayon, usul, statistik usul, takomillashtirish.

**Ключевые слова.** Хорезмская область, регион, демографический процесс, метод, статистический метод, совершенствование.

**Key words.** Khorezm region, region, demographic process, method, statistical method, improvement.

Bugungi kunda mintaqaviy demografik jarayonlarni o'rganish va ularni statistik tahlil qilish mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini prognozlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Demografik jarayonlar jamiyat hayotining turli jabhalari o'z ichiga olgan holda tug'ilish va o'lim darajasi bilan birgalikda aholining migratsiya va yosh tarkibigacha muhim ahamiyatga ega [1]. Shularga muvofiq, Xorazm viloyati aholisi dinamikasi, tug'ilish va o'lim ko'rsatkichlari, migratsiya oqimlari hamda aholining yosh-jins tarkibi kabi demografik jarayonlar iqtisodiy siyosatni shakllantirishdagi muhim shart bo'lib hisoblanadi. Bu masala bo'yicha mamlakatimizdagi qabul qilingan me'yoriy-huquqiy hujjatlarga asosan, statistika ma'lumotlari sifatini yanada yaxshilash, statistika ko'rsatkichlarining to'laqonli ma'lumot bazalarini yaratish, ularni xalqaro standartlarga moslashtirish, ijtimoiy-



iqtisodiy va demografik sohalarda statistikaning zamonaviy usullarini joriy etish zarurati mavjud [2]. Shularni hisobga olib, borada Xorazm viloyatida demografik jarayonlarni zamonaviy statistik usullar asosida tahlil qilish va ularni takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Avvalo, Xorazm viloyatida demografik jarayonlar respublika o'rtacha ko'rsatkichlariga nisbatan qator o'ziga xos xususiyatlarga ega. Viloyatda aholi sonining barqaror o'sishi kuzatilmoqda. Jumladan, statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2026-yilning 1-yanvar holatiga Xorazm viloyatining doimiy aholisi soni 2069,2 ming kishini tashkil etib, 2025-yilning mos davriga nisbatan 1,8 foizga ko'paygan. 2025-yil yanvar-dekabr oylarida tug'ilganlar soni 46,1 ming nafarni, vafot etganlar 9,5 ming nafarni tashkil etib, tabiiy o'sish 36,6 ming kishiga teng bo'lgan. Viloyatga xorijiy davlatlardan ko'chib kelganlar soni 7 nafar kishini va viloyatdan xorijga ko'chib ketganlar soni 96 nafar kishini, qayd etilgan nikohlar 15,3 mingtani va nikohdan ajralishlar esa 1,9 mingtani tashkil etgan [3]. Biroq, ushbu o'sish sur'atlari turli hududlar kesimida bir xil emas. Ya'ni, tug'ilish darajasi nisbatan yuqori bo'lsa-da, migratsiya jarayonlari, ayniqsa yosh aholining boshqa viloyatlar va xorijga chiqib ketishi demografik strukturaga ta'sir ko'rsatmoqda. Qishloq hududlarida aholi zichligi yuqori bo'lib, shaharlashuv darajasi sekin kechmoqda. O'lim darajasi va o'rtacha umr davomiyligi ko'rsatkichlari esa sog'liqni saqlash tizimi, turmush darajasi va ekologik omillar bilan bevosita bog'liqdir.

Shuningdek, Xorazm viloyati mintaqasida demografik jarayonlarni zamonaviy statistik tadqiq qilish usullari bugungi kunda aholining soni, tarkibi va harakatini aniq baholash hamda prognoz qilishga xizmat qiladi. Mazkur jarayonda quyidagi asosiy zamonaviy usullar qo'llaniladi:

- dinamik qatorlar tahlili tug'ilish, o'lim va migratsiya ko'rsatkichlarining vaqt bo'yicha o'zgarishini o'rganadi;

- ekonometrik modellashtirish demografik jarayonlarga ta'sir etuvchi iqtisodiy va ijtimoiy omillarni aniqlaydi;

- regressiya tahlili aholi o'sishi bilan bog'liq omillar o'rtasidagi bog'liqlikni baholaydi;

- yosh guruhlari tahlili turli yosh guruhlarning demografik xatti-harakatlarini o'rganadi;

- prognozlashtirish modellari (ARIMA va boshqalar) kelajakdagi aholi soni va tarkibini bashorat qiladi;

- GIS texnologiyalari hududiy demografik farqlarni xaritalar asosida tahlil qiladi;

- Big Data va raqamli statistika real vaqt rejimida demografik ma'lumotlarni yig'ish va qayta ishlash imkonini beradi.

Mazkur usullar Xorazm viloyatida demografik jarayonlarni chuqur tahlil qilish, hududiy farqlarni aniqlash va samarali ijtimoiy-iqtisodiy qarorlar qabul qilishda muhim ahamiyatga ega bo'lib hisoblanadi. Bu esa demografik jarayonlarni tahlil qilish va ularni kelajakka prognozlashtirish imkonini beradi.

Biroq, Xorazm viloyati darajasida bu usullar yetarli darajada integratsiya qilinmagan. Ammo, Xorazm viloyatida demografik ma'lumotlarni tahlil qilish



tizimida statistik ma'lumotlarni yig'ishda raqamlashtirish darajasining pastligi, hududiy ma'lumotlarning to'liq emasligi, prognozlashtirish modellarining cheklangan qo'llanilishi, migratsiya statistikasining aniq hisoblanmasligi va ma'lumotlar bazasining integratsiya qilinmaganligi kabi muammolar mavjud. Ushbu holat demografik jarayonlarning real holatini to'liq baholashga to'sqinlik qilib, qaror qabul qilish jarayonini murakkablashtiradi.

Fikrimizcha, Xorazm viloyatida demografik jarayonlarni statistik tadqiq qilish tizimini takomillashtirish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim:

- raqamli demografiya axborot tizimini joriy etish;
- geoaxborot tizimlari asosida demografik xaritalashtirish;
- Big Data texnologiyalaridan samarali foydalanish;
- demografik prognozlashning avtomatlashtirilgan modellarini ishlab chiqish;
- migratsiya oqimlarini real vaqtda monitoring qilish tizimini yaratish;
- hududiy statistik ma'lumotlarni integratsiyalashtirish;
- mashina o'rganish algoritmlarini keng qo'llash.

Mazkur choralar demografik jarayonlarni aniqroq baholash va samarali prognoz qilish imkonini beradi.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, Xorazm viloyatida demografik jarayonlarni statistik tadqiq qilishni takomillashtirish hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Bu bo'yicha zamonaviy statistik usullar, raqamli texnologiyalar va prognoz modellarini joriy etish orqali demografik jarayonlarning aniqligi va ishonchliligi oshadi. Bu esa aholi siyosati, mehnat bozori, ijtimoiy infratuzilma va iqtisodiy rejalashtirishda samarali qarorlar qabul qilishga xizmat qiladi. Unga asosan, Xorazm viloyatida demografik jarayonlarni statistik tadqiq qilish hudud aholisi soni, tarkibi va harakati bilan bog'liq jarayonlarni ilmiy asosda o'rganish va baholashni anglatadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Siroj Z.R. Aholi demografik jarayonlarni iqtisodiy statistik usullardan foydalanib tahlil qilish. // "Raqamli iqtisodiyot" ilmiy-elektron jurnali, 12-son, 2025 - 1319 b. <https://cyberleninka.ru/article/n/aholi-demografik-jarayonlarni-iqtisodiy-statistik-usullardan-foydalanib-tahlil-qilish>

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-avgustdagi "O'zbekiston Respublikasining milliy statistika tizimini yanada takomillashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4796-son Qarori. Manba: <https://lex.uz/docs/-4926736>

3. <https://xorazmstat.uz/uploads/press-reliz/2025/12/demografik.pdf>



## BOZOR IQTISODIYOTI SHAROITIDA AHOLINI IJTIMOIIY HIMOYA QILISH TIZIMI

**Saydullayeva Dinora Atabekovna,**  
Urganch Ranch texnologiya universiteti  
2501 - "Iqtisodiyot" guruhi  
magistratura talabasi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada bozor iqtisodiyoti sharoitida aholini ijtimoiy himoya qilish tizimi, uning zaruriyati va o'ziga xos xususiyatlari yoritilgan. Shuningdek, bozor iqtisodiyoti sharoitida aholini ijtimoiy himoya qilish tizimi tadqiqiga qaratilgan xulosa yoritilgan.

**Аннотация.** В данной статье рассматривается система социальной защиты населения в условиях рыночной экономики, ее необходимость и специфические особенности. Также приводятся выводы по результатам исследования системы социальной защиты населения в условиях рыночной экономики.

**Abstract.** This article discusses the system of social protection of the population in a market economy, its necessity and specific features. It also provides a conclusion on the study of the system of social protection of the population in a market economy.

**Kalit so'zlar.** Iqtisodiyot, bozor, bozor iqtisodiyoti, tizim, aholi, ijtimoiy himoya qilish tizimi.

**Ключевые слова.** Экономика, рынок, рыночная экономика, система, население, система социальной защиты.

**Key words.** Economy, market, market economy, system, population, social protection system.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiy erkinlik, raqobat va mulkchilikning turli shakllari asosiy o'rin tutadi. Bunday iqtisodiy tizimda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalari rivojlanib, aholi daromadlari ortadi. Shu bilan birga, bozor munosabatlari ayrim ijtimoiy muammolarni ham yuzaga keltiradi. Jumladan, ishsizlik, daromadlar o'rtasidagi tafovutning kuchayishi, kam ta'minlangan oilalar sonining ortishi kabi holatlar kuzatilishi mumkin. Shu bois, davlat tomonidan aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini shakllantirish va takomillashtirish muhim shart bo'lib hisoblanadi. Bu bo'yicha "kambag'allikdan farovonlik sari" dasturi doirasida har bir fuqaroni o'zi va farzandlari kelajagi uchun mas'uliyat bilan yondashishga undaydigan va salohiyatini ro'yobga chiqarish imkoniyatini yaratish hamda ijtimoiy xizmat va yordam ko'rsatish ko'lamini kengaytirish orqali oilalarning mehnat qilish imkoniyatini cheklovchi sabablarni bartaraf etishga alohida e'tibor qaratilmoqda [1].

Avvalo, ijtimoiy himoya tizimi fuqarolarning munosib turmush darajasini ta'minlash, ijtimoiy tenglikni mustahkamlash va aholining ehtiyojmand qatlamlarini



qo'llab-quvvatlashga qaratilgan chora-tadbirlar majmuasidir. Ushbu tizim bozor iqtisodiyotining salbiy ta'sirlarini yumshatish hamda jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni saqlash uchun zarur bo'ladi. O'zbekistonda mustaqillik yillarida bozor iqtisodiyoti talablari asosida aholini ijtimoiy himoya qilish tizimi ishlab chiqildi va muntazam takomillashtirilib borilmoqda [2]. Bozor iqtisodiyoti sharoitida har bir fuqaro o'z mehnati, bilim va malakasi asosida daromad topadi. Biroq, barcha insonlar ham teng imkoniyatlarga ega emas.

Ijtimoiy himoya tizimi ana shu qatlamlarning iqtisodiy va ijtimoiy manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan. Bu orqali davlatning ijtimoiy himoya sohasi uchun sarflangan xarajatlari, aholi jon boshiga nisbatan hisoblanganda, 5 martadan ko'proq oshgan [3]. Ushbu tizim aholining minimal turmush darajasini ta'minlash, kambag'allikni qisqartirish, ishsizlik oqibatlarini yumshatish, nogironligi bo'lgan shaxslarni qo'llab-quvvatlash, pensionerlarning munosib hayot kechirishini ta'minlash, onalik va bolalikni himoya qilish hamda ijtimoiy adolat va barqarorlikni mustahkamlash kabi asosiy vazifalarni bajaradi.

Bozor iqtisodiyoti rivojlangan davlatlarda ijtimoiy himoya tizimi iqtisodiy siyosatning muhim tarkibiy qismi bo'lib hisoblanadi. Davlat iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish bilan birga, aholining zaif qatlamlarini himoya qilish choralari ham amalga oshiradi. Shu sababli, bozor iqtisodiyoti sharoitida ijtimoiy himoya quyidagi yo'nalishlarda amalga oshiriladi:

- ijtimoiy sug'urta. Ijtimoiy sug'urta tarkibiga pensiya ta'minoti, vaqtinchalik mehnatga layoqatsizlik nafaqalari, ishsizlik bo'yicha yordamlar va boshqa to'lovlar kiradi. Ijtimoiy sug'urta tizimi ish beruvchilar va xodimlar tomonidan to'lanadigan majburiy badallar hisobidan moliyalashtiriladi.

- pensiya ta'minoti. Pensiya tizimi ijtimoiy himoyaning eng muhim tarkibiy qismlaridan biridir. Mehnat faoliyatini yakunlagan fuqarolar davlat tomonidan pensiya bilan ta'minlanadi. Bu ularga qarilik davrida munosib hayot kechirish imkonini beradi.

- kam ta'minlangan oilalarni qo'llab-quvvatlash. Davlat kam daromadli oilalarga moddiy yordam, nafaqalar va subsidiyalar ajratadi. Bu yordamlar aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini qo'llab-quvvatlash hamda kambag'allik darajasini kamaytirishga xizmat qiladi.

- ish bilan ta'minlash siyosati. Ishsizlik bozor iqtisodiyotining tabiiy unsuri bo'lib hisoblanadi. Shu bois, davlat yangi ish o'rinlari yaratish, kasb-hunar o'rgatish, qayta tayyorlash kurslarini tashkil etish va tadbirkorlikni rivojlantirish orqali aholi bandligini ta'minlashga harakat qiladi.

- sog'liqni saqlash va ta'lim xizmatlari. Aholini ijtimoiy himoya qilishda sog'liqni saqlash va ta'lim tizimi muhim ahamiyatga ega. Fuqarolarning sifatli tibbiy xizmat va ta'lim olish imkoniyatlari ijtimoiy rivojlanishga xizmat qiladi. Davlat ushbu sohalarini moliyalashtirish orqali aholi farovonligini oshirishga intiladi.

Shuningdek, O'zbekistonda bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonida aholini ijtimoiy himoya qilish masalalariga alohida e'tibor qaratildi. Mamlakatda ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti modeli tanlanib, aholining ehtiyojmand qatlamlarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirildi.



Ayniqsa, so‘nggi yillarda pensiyalar, nafaqalar va ish haqlari miqdori muntazam ravishda oshirib borilmoqda. Kam ta‘minlangan oilalarni aniqlash va ularga manzilli yordam ko‘rsatish tizimi takomillashtirilmoqda. Hamda nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlarini himoya qilish, ularni ish bilan ta‘minlash va jamiyat hayotiga faol jalb etish bo‘yicha muhim choralar ko‘rilmoqda.

Bandlikni ta‘minlash maqsadida yangi ishlab chiqarish korxonalari tashkil etilmoqda, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik qo‘llab-quvvatlanmoqda. Kasb-hunar markazlari orqali fuqarolarni zamonaviy kasblarga o‘qitish ishlari ham kengayib bormoqda. Ular qatori ijtimoiy xizmatlar sifati va samaradorligini oshirish, raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali ijtimoiy yordamlarni aholiga tezkor va shaffof yetkazish ishlari amalga oshirilmoqda.

Fikrimizcha, bozor iqtisodiyoti sharoitida ijtimoiy himoya tizimi doimiy ravishda takomillashtirib borilishi lozim. Bu yo‘nalishlarda olib borilayotgan islohotlar aholining turmush darajasini yaxshilash, ijtimoiy tenglikni ta‘minlash va jamiyatda barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Xulosa shuki, bozor iqtisodiyoti sharoitida aholini ijtimoiy himoya qilish tizimi davlat ijtimoiy siyosatining eng muhim yo‘nalishi bo‘lib hisoblanadi. Ushbu tizim fuqarolarning ijtimoiy xavfsizligini ta‘minlash, kambag‘allikni kamaytirish, ishsizlik oqibatlarini yumshatish va ehtiyojmand qatlamlarni qo‘llab-quvvatlashga xizmat qiladi. Bu bo‘yicha mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar aholini ijtimoiy himoya qilish samaradorligini oshirishga qaratilgan. Kelgusida esa ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish, aholi turmush darajasini yuksaltirish va ijtimoiy adolatni ta‘minlash mamlakat taraqqiyotining asosi bo‘lib qoladi. Shu bois, kuchli ijtimoiy himoya tizimini shakllantirish va rivojlantirish davlat hamda jamiyat oldidagi ustuvor vazifalari bo‘lib xizmat qiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi “Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini moliyalashtirish tartib-taomillarini takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-17-son Farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/7374261>
2. Baxtiyorov B.B. O‘zbekistonda aholini ijtimoiy himoya qilishning ustuvor yo‘nalishlari. // Iqtisod va moliya, 2021, 3(139). - 45 b.
3. Baxromova D.B. Mamlakatimizda ijtimoiy sohalar faoliyatini yanada takomillashtirishning iqtisodiy-statistik tahlili. // “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy-elektron jurnali, No3, mart, 2012.



## BARQAROR RIVOJLANISH SARI: IJTIMOYIY SOHANING MINTAQAVIY QIYOFASI

**K.I.Ro‘zmetov**

Urganch RANCH texnologiya universiteti,  
“Iqtisodiyot” kafedrası katta o‘qituvchisi

**B.U.Tadjiyev**

Urganch RANCH texnologiya universiteti,  
“Iqtisodiyot” kafedrası dotsenti

**Q.I.Ibragimov**

Urganch RANCH texnologiya universiteti,  
Iqtisodiyot yo‘nalishi magistranti

**ANNOTATSIYA:** Ijtimoiy sohani barqaror rivojlantirishda mintaqaviy yondashuv ustuvor ahamiyatga ega bo‘lib, hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy salohiyati, demografik tarkibi va infratuzilmaviy imkoniyatlarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan siyosat va dasturlar ijtimoiy tenglik hamda aholi farovonligini ta‘minlashda muhim omil hisoblanadi.

**KALIT SO‘ZLAR:** ijtimoiy barqarorlik, mintaqaviy taraqqiyot, hududiy rivojlanish, ijtimoiy infratuzilma, ijtimoiy siyosat, innovatsion yondashuvlar, aholi farovonligi.

Barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish iqtisodiy o‘sish, ijtimoiy tenglik va ekologik muvozanatning uyg‘un integratsiyasi orqali kelajak avlodlar uchun yuqori turmush sharoitlarini ta‘minlashga qaratilgan. Ushbu ta‘rif barqarorlikning uchta asosiy ustunini – iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik jihatlarni o‘z ichiga oladi, bu esa uning kompleks xarakterini ko‘rsatadi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan 2015-yilda qabul qilingan Barqaror Rivojlanish Maqsadlari (BRM) global miqyosdagi qashshoqlik, iqlim o‘zgarishi va biologik xilma-xillikning yo‘qolishi kabi muammolarni hal qilishga qaratilgan bo‘lib, barqarorlikni uzoq muddatli maqsad, barqaror rivojlanishni esa unga erishish jarayonlari sifatida belgilaydi. Adabiyotlarda barqaror rivojlanishning ijtimoiy o‘lchovi ayniqsa muhim o‘rin tutadi, chunki u inson farovonligi, tenglik, inklyuzivlik va ijtimoiy adolatni ta‘minlashga qaratilgan. Bu jihatlar aholining turmush sifati, sog‘liqni saqlash, ta‘lim, madaniyat va ijtimoiy himoya kabi muhim sohalarni qamrab oladi.

Shunga qaramay, mintaqaviy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishda mavjud bo‘lgan farqlar va muammolar ijtimoiy sohani barqaror rivojlantirishning mintaqaviy xususiyatlarini chuqur o‘rganishni talab etadi. Sherzod Bo‘riyev Axadovichning tadqiqotlari O‘zbekiston mintaqalaridagi islohotlarning samaradorligini tahlil qilib, mavjud kamchiliklarni ko‘rsatadi [1]. Ushbu maqola ijtimoiy sohani barqaror rivojlantirishning mintaqaviy xususiyatlarini har tomonlama tahlil qilish, mintaqaviy ijtimoiy-iqtisodiy omillarning ta‘sirini baholash hamda barqaror rivojlanishni ta‘minlashga qaratilgan samarali mintaqaviy strategiyalar va



mexanizmlarni ishlab chiqishga qaratilgan.

Ijtimoiy soha barqaror rivojlanishning asosiy ustunlaridan biri bo'lib, aholining turmush sifati, sog'liqni saqlash, ta'lim, madaniyat va ijtimoiy himoya kabi muhim jihatlarni qamrab oladi. Globallashuv sharoitida mintaqaviy dinamikaning ahamiyati ortib bormoqda, chunki mintaqalar tez o'zgaruvchan sharoitlarga moslashish, raqobatbardoshligini oshirish va inson resurslarini rivojlantirish zarurati bilan yuzlashmoqda [2].

Zamonaviy jamiyatlar uchun barqaror rivojlanish global miqyosdagi eng muhim maqsadlardan biri hisoblanadi. Bu tushuncha kelajak avlodlarning ehtiyojlarini qondirish imkoniyatlarini xavf ostiga qo'ymasdan, hozirgi avlod ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan inson taraqqiyoti yo'nalishini anglatadi [3].

Ushbu tadqiqot ijtimoiy sohani barqaror rivojlantirishning mintaqaviy xususiyatlarini har tomonlama tahlil qilish, mintaqaviy ijtimoiy-iqtisodiy omillarning ta'sirini baholash hamda barqaror rivojlanishni ta'minlashga qaratilgan samarali mintaqaviy strategiyalar va mexanizmlarni ishlab chiqish maqsadida aralash usullar yondashuviga asoslanadi. Mazkur yondashuv miqdoriy va sifatiy tahlil usullarini uyg'unlashtirish orqali tadqiqot muammosining murakkab va ko'p qirrali tabiatini chuqurroq anglash imkonini beradi. Ijtimoiy soha barqarorligini ta'minlash nafaqat statistik ko'rsatkichlar orqali baholanishi, balki mahalliy kontekst, institutsional omillar va aholining sub'ektiv idrokini ham hisobga olishni talab etadi. Shu sababli, tadqiqot dizayni O'zbekiston mintaqalari misolida qiyosiy-tahliliy yondashuvni o'z ichiga oladi, bu esa mintaqalararo farqlarni aniqlash va ularning sabablarini chuqur o'rganishga xizmat qiladi.

Tadqiqotning nazariy asosini barqaror rivojlanishning uchta ustuni – iqtisodiy o'sish, ijtimoiy tenglik va ekologik muvozanatning uyg'un integratsiyasi g'oyasi tashkil etadi. Xususan, ijtimoiy o'lchovga alohida e'tibor qaratiladi, chunki u inson farovonligi, tenglik, inklyuzivlik va ijtimoiy adolatni ta'minlashga qaratilgan bo'lib, aholining turmush sifati, sog'liqni saqlash, ta'lim, madaniyat va ijtimoiy himoya kabi muhim sohalarni qamrab oladi. Tadqiqotda mintaqaviy rivojlanish nazariyalari, xususan, hududiy nomutanosibliklar, ularning sabablari va oqibatlari bo'yicha ilmiy yondashuvlar asos qilib olinadi. Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, O'zbekiston kontekstida ijtimoiy soha barqarorligiga ta'sir etuvchi endogen va ekzogen omillarni aniqlash, ularning o'zaro bog'liqligini baholash bo'yicha ilmiy bo'shliqlar mavjud. Shu bois, ushbu metodologiya mazkur bo'shliqlarni to'ldirishga qaratilgan.

Tadqiqot natijalari mintaqaviy siyosatni takomillashtirish, aholi turmush sifatini oshirish va ijtimoiy tenglikni ta'minlashga qaratilgan amaliy tavsiyalar uchun mustahkam asos bo'lib xizmat qiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. G'ulomov S.S., Xolmatov N.A. O'zbekiston hududlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish strategiyasining ustuvor yo'nalishlari // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. – 2020. – №1. – 49-57 b.
2. Xasanov M.A. Hududlarda inson kapitalini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. – 2023. – №2. – 2-



- 11 b. Xolmatov M.X., Xolmatova N.M. Hududiy ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirishning ustuvor yoʻnalishlari // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. – 2022. – №1. – 12-16 b.
3. Xaydarov A.A., Xaydarova M.M. Mintaqaviy barqaror rivojlanishni taʼminlashda ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatdan samarali foydalanish yoʻnalishlari // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. – 2021. – №6. – 96-102 b.



## ДИНАМИКА И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ МУЗЕЙНОГО ТУРИЗМА В РЕСПУБЛИКЕ КАРАКАЛПАКСТАН (2021–2025 ГГ.)

**Bekimbetova Mariya Makhsetullayevna**

0009-0009-6420-4655

Muhammad al-Khwarizmi

Tashkent University of Information

Technologies,

PhD student of Management and

Marketing department

email: mariya.bekim@gmail.com

**Аннотация.** В тезисе рассматриваются трансформационные процессы в музейной сети Каракалпакстана на основе сравнительного анализа данных за пятилетний период. Особое внимание уделено росту международного интереса к региону и выявлению наиболее эффективных моделей управления музейными объектами на примере Музея истории Аральского моря.

**Ключевые слова:** Каракалпакстан, музейный туризм, Муйнак, Музей Савицкого, экологический туризм, статистика посещаемости.

**Введение.** Музейная сеть Республики Каракалпакстан в период с 2021 по 2025 год демонстрирует качественную трансформацию, переходя от локально-ориентированных экспозиций к международно значимым туристическим хамам. К началу 2026 года общая посещаемость государственных музеев региона достигла 141 207 человек.

**Методология.** В основу исследования легли статистические отчеты о деятельности шести ведущих государственных музеев республики за 2021–2025 гг.

**Трансформация туристического потока:** Музей истории Аральского моря стал первым в регионе, где количество иностранных посетителей устойчиво превысило число местных граждан. Переломным моментом стал 2023 год, когда музей посетили **3 384 иностранца** и **3 339 местных жителей**. К концу 2025 года этот разрыв закрепился: **4 600 иностранных туристов** против **3 065 местных**. Для сравнения: в 2021 году иностранных гостей было всего **341 человек**. Таким образом, за 5 лет международный интерес к данному музею вырос более чем в **13 раз**.

**Экономический вклад:** Среди всех государственных музеев республики (за исключением музея им. Савицкого и центрального историко-культурного музея) именно Музей истории Аральского моря является наиболее финансово успешным. В 2025 году его годовая выручка составила **198,9 млн сумов**. Это почти в 15 раз превышает доход соседнего **Экологического музея Муйнака**



(12,8 млн сумов) и в 34 раза — доход Археологического музея Элликкалы (5,7 млн сумов).

**Экспозиционная деятельность:** Несмотря на отсутствие зафиксированной в 2025 году научно-публикационной активности сотрудников, музей демонстрирует высокую интенсивность работы с посетителями. В 2025 году было организовано **15 стационарных выставок**, что делает его одной из самых активных выставочных площадок республики после музея им. Савицкого и музея истории и культуры.

**Результаты исследования.**

**QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASI DAVLAT MUZEYLARIDA 2025-YIL YAKUNI BO‘YICHA MA‘LUMOTLAR**

№	Davlat muzeylari	Mahalliy sayyohlar	Xorijiy sayyohlar	Statsionar ko‘rgazmalar	Ko‘chma ko‘rgazmalar	Chet el ko‘rgazmalar	Ilmiy konferensiyalar	Ilmiy maqolalar	Gos.katalog	Yillik pul tushumi (mln.da)
1	I.V.Savitskiy nomidagi Qoraqalpog‘iston davlat san’at muzeyi	6408 2	19625	2	8	4	1	53	4306 9	242285100 0
2	Berdaq nomidagi Qoraqalpoq adabiyoti tarixi davlat muzeyi	1319 8	104	4	6	0	3	21	1580	17620000
3	Qoraqalpog‘iston Respublikasi tarixi va madaniyati davlat muzeyi	2688 6	5895	37	1	1	0	30	3345 8	402110000
4	Mo‘ynoq tumani Ekologiya muzeyi	1483	212	31	0	0	0	8	0	12898000
5	Mo‘ynoq tumani Orol dengizi tarixi muzeyi	3065	4600	15	0	0	0	0	0	198917500
6	Ellikqal’a tumani Arxeologiya muzeyi	2047	10	42	0	0	0	3	0	5757000



<b>Жами:</b>	1107 61	30446	131	15	5	4	115	7810 7	306015350 0
--------------	------------	-------	-----	----	---	---	-----	-----------	----------------

Анализ данных выявил несколько ключевых тенденций:

1. **Лидерство системных институтов:** Безусловным флагманом остается Государственный музей искусств имени И.В. Савицкого. В 2025 году его посетили 83 707 человек (64 082 местных и 19 625 иностранных туристов). Музей также сохраняет первенство по финансовым показателям, сформировав выручку в размере более 2,4 млрд сумов.
2. **Феномен «Муйнакского узла»:** Музей истории Аральского моря стал уникальным примером объекта, ориентированного на экспорт туристических услуг.
  - **Динамика потока:** Если в 2021 году количество иностранных гостей составляло 341 человек, то к 2025 году этот показатель вырос до 4 600 человек, что свидетельствует о росте международного интереса более чем в 13 раз.
  - **Точка инверсии:** В 2023 году был зафиксирован момент, когда число иностранных посетителей (3 384) превысило число местных (3 339). К 2025 году этот тренд укрепился: иностранных туристов стало на 50% больше, чем граждан республики.
3. **Экономическая эффективность:** Музей истории Аральского моря стал третьим по доходности в республике (198,9 млн сумов). Для сравнения, доход соседнего Экологического музея в том же районе в 2025 году был в 15 раз ниже (12,8 млн сумов).
4. **Экспозиционная деятельность:** Высокая интенсивность работы отмечена в Музее истории и культуры (37 стационарных выставок) и Музее истории Аральского моря (15 выставок). Последний, несмотря на отсутствие публикационной активности, остается одной из самых динамичных площадок республики.

**Заключение.** Исследование подтверждает, что специализация на уникальных региональных проблемах (экология Арала) является мощным стимулом для привлечения зарубежного турпотока. Музей истории Аральского моря стал вторым по значимости международным центром после Музея им. Савицкого. Рекомендуются интеграция успешного опыта Муйнака в стратегию развития менее активных музеев, таких как Археологический музей Элликкалы, а также усиление научной базы малых музеев для повышения их академического статуса.

**Список использованных источников (APA 7th Edition)**

- Государственный музей искусств имени И. В. Савицкого. (2026, 7 января). *Данные по основным показателям деятельности музея за 2025 год* [Статистический отчет].
- Министерство культуры Республики Каракалпакстан. (2025). *Динамика посещаемости государственных музеев за 2021–2024 гг.* [Архивные данные].



- Музей истории Аральского моря. (2026). Отчет об экспозиционной и финансовой деятельности за 2025 год [Ведомственная статистика].
- Республика Каракалпакстан. (2026). *Сводная статистическая таблица по внутреннему и иностранному туризму в музейной сфере* [Статистический бюллетень].
- Экологический музей Муйнакского района. (2026). *Показатели посещаемости и внебюджетных поступлений за отчетный период 2025 года* [Статистические данные].
- Элликкалинский районный музей археологии и истории. (2025). *Анализ динамики посещаемости и научных публикаций за 2021–2025 гг.* [Отчетные данные].



## KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNI QO'LLAB- QUVVATLASHNING INSTITUTSIONAL MEKANIZMLARI: XORAZM VILOYATI MINTAQAVIY TAJRIBASI

**Madraimova Marxamat Raximberganovna**

Abu Rayhon Beruniy  
nomidagi Urganch davlat universiteti  
Biznes va boshqaruv kafedrasida o'qituvchisi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada kichik biznes va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashning institutsional mexanizmlari Xorazm viloyati misolida o'rganiladi. Muallif tomonidan mintaqadagi tadbirkorlik infratuzilmasi elementlari – biznes-inkubatorlar, texnoparklar, moliyaviy vositachilik institutlari va kasbiy birlashmalarning faoliyati tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** *institutsional mexanizmlar, tadbirkorlik infratuzilmasi, mintaqaviy ekotizim, biznes-inkubator, moliyaviy vositachilik, Xorazm viloyati.*

**Аннотация.** В данной статье исследуются институциональные механизмы поддержки малого бизнеса и предпринимательства на примере Хорезмской области. Автором проанализирована деятельность элементов предпринимательской инфраструктуры региона — бизнес-инкубаторов, технопарков, институтов финансового посредничества и профессиональных объединений.

**Ключевые слова:** *институциональные механизмы, предпринимательская инфраструктура, региональная экосистема, бизнес-инкубатор, финансовое посредничество, Хорезмская область.*

**Abstract.** This article examines the institutional mechanisms for supporting small businesses and entrepreneurship using the Khorezm region as a case study. The author analyses the activities of entrepreneurial infrastructure elements in the region, including business incubators, technoparks, financial intermediary institutions, and professional associations.

**Keywords:** *institutional mechanisms, entrepreneurial infrastructure, regional ecosystem, business incubator, financial intermediation, Khorezm region.*

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, kichik biznesni tartibga solishdagi muvaffaqiyat ko'p jihatdan institutsional muhitning sifatiga bog'liqdir[1]. Institutsional mexanizmlar deganda biz faqat qonunchilik bazasini emas, balki tadbirkorlik infratuzilmasini tashkil etuvchi barcha muassasa va tuzilmalar majmuasini tushunamiz: davlat idoralari, moliya institutlari, biznes-assotsiatsiyalar, ta'lim muassasalari va boshqalar (Williamson, 1985; North, 1990)[2]. Xorazm viloyatida so'nggi yillarda ushbu sohadagi institutsional bazani mustahkamlashga



qaratilgan bir qator tashabbuslar amalga oshirildi. Xususan, 2021-yilda Urganch Texnoparkining faoliyati boshlandi, 2022-yilda viloyatda faoliyat yurituvchi biznes-inkubatorlar soni 3 tadan 7 taga yetkazildi. Biroq ushbu institutlarning samaradorligi hali ham yetarli emas deb baholanmoqda.

Tadqiqot doirasida 2023–2024 yillarda Xorazm viloyatidagi 142 ta kichik korxonalar rahbarlari orasida so‘rov o‘tkazildi. So‘rov natijalari quyidagilarni ko‘rsatdi: respondentlarning 68 foizi institutsional qo‘llab-quvvatlash tuzilmalari to‘g‘risida yetarli ma‘lumotga ega emasligi; 54 foizi mavjud biznes-inkubatorlarga qabul qilinish tartibini haddan tashqari murakkab deb hisoblashi; 47 foizi kichik korxonalar uchun mo‘ljallangan kredit liniyalaridan foydalanish imkoniyatlarini cheklangan deb baholashi[3]. Mintaqada institutsional «koordinatsiya nuqsoni» ayniqsa yaqqol ko‘zga tashlanmoqda: davlat qo‘llab-quvvatlash institutlari, xususi moliya tashkilotlari va ta‘lim muassasalari o‘rtasida tizimli hamkorlik yo‘qligi sababli, har bir institut o‘z doirasida alohida faoliyat yuritmoqda. Bunday ajralgan faoliyat tashkiliy resurslarni isrof qilishi va tadbirkorlik aktivligiga salbiy ta‘sir ko‘rsatishi Braczyk va boshq. (1998) tomonidan tadqiq etilgan «mintaqaviy innovatsiya tizimi» nazariyasi bilan ham tasdiqlangan[4].

Muammoni bartaraf etish uchun uchta asosiy chora-tadbir zarur: (1) Viloyat hokimligi huzurida «Tadbirkorlik ekotizimini muvofiqlashtirish kengashi»ni tuzish; (2) Institutlar o‘rtasidagi ma‘lumot almashishni ta‘minlovchi yagona raqamli platforma yaratish; (3) Kichik biznes uchun mo‘ljallangan barcha qo‘llab-quvvatlash dasturlarini yagona «xizmatlar paketi» ko‘rinishida taqdim etishni joriy etish.

Xorazm viloyatida kichik biznesni qo‘llab-quvvatlashning institutsional mexanizmlari miqdoriy jihatdan rivojlangan, ammo sifatij samaradorligi past bo‘lib qolmoqda. Asosij muammo – bu institutlar o‘rtasidagi koordinatsiya yetishmasligi. «Mintaqaviy tadbirkorlik ekotizimi» yondashuvi ushbu muammoni hal etish uchun strategik asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Taklif etilgan mexanizmlar joriy etilgan taqdirda, viloyatda kichik korxonalar tomonidan yaratilayotgan qo‘shilgan qiymat ko‘rsatkichi 2027-yilga kelib 30–35 foizga ortishi kutilmoqda. Mintaqaviy tajriba O‘zbekistonning boshqa viloyatlari uchun ham metodologik asos bo‘lishi mumkin.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. North, D.C. Institutions, Institutional Change and Economic Performance. – Cambridge: Cambridge University Press, 1990.
2. Williamson, O.E. The Economic Institutions of Capitalism. – New York: Free Press, 1985.
3. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. Kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash dasturlari hisoboti. – Toshkent, 2023.
4. Mirzayev, N., Toshmatov, F. «Mintaqaviy tadbirkorlik ekotizimlari: nazariya va amaliyot» // Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil.–2023. – №2. – B. 45–61.



## ANALYSIS OF INSURANCE PREMIUM AND LOSS DISTRIBUTION BASED ON THE GEOMETRIC PARALLELEPIPED MODEL

**Abdishukurova Guzal**

National university of Uzbekistan

**Ruzimurodova Guzal**

National university of Uzbekistan

**Narmanov Ulugbek**

National university of Uzbekistan

**Abstract:** This scientific thesis is dedicated to modeling risks in an insurance portfolio and their financial equivalents (premium and loss) through a parallelepiped located in three-dimensional Euclidean space. In the model, each axis of the parallelepiped represents a fundamental parameter of the insurance contract (risk coefficient, exposure volume, and loss severity). The loss distribution is interpreted as a change in the volume of cross-sections within the parallelepiped, while the insurance premium is treated as a "risk loading" layer added on top of this volume. The thesis proves the theoretical foundations of the model, its application in actuarial calculations, and optimality conditions.

### Introduction

In insurance mathematics, the collective risk model ( $S = X_1 + \dots + X_n$ ) is typically studied using analytical or simulation methods. However, geometric approaches are rarely used for visual and structural analysis of the mutual influence of multi-dimensional risk factors. The Parallelepiped Model (P-model) represents the risk field as a bounded, measurable, and compact set, offering the following capabilities:

- Determining marginal loss distributions through geometric projections;
- Visually separating the pure risk premium from the risk loading within the premium structure;
- Modeling reinsurance strategies (stop-loss, excess-of-loss) as the operation of "cutting" from the parallelepiped.

## 2. Formal mathematical description of the P-model

### 2.1. Space and Basis Axes

Suppose the insurance portfolio  $\Omega$  is represented by the following three-dimensional right-angled parallelepiped:

$$\Pi = \{(x, y, z) \in \mathbb{R}^3 \mid 0 \leq x \leq a, 0 \leq y \leq b, 0 \leq z \leq c\}$$

where:

- $x$  – *risk factor rate* (e.g., tariff coefficient or probability weight);
- $y$  – *exposure measure* (sum of insured values or number of contracts);
- $z$  – *loss severity* (potential magnitude of a single insured event, i.e., severity).

Each interior point  $(x, y, z)$  represents an "elementary contract" corresponding to a specific risk class in the portfolio.

### 2.2. Geometric Interpretation of Loss Distribution



The total expected loss  $E[L]$  across the portfolio is determined by the following triple integral:

$$E[L] = \iiint_{\Pi} z \cdot f(x, y, z) \, dx \, dy \, dz$$

where  $f(x, y, z)$  is the loss probability density function (if it exists). If losses are assumed to be uniformly distributed across the portfolio, then  $f(x, y, z) = 1/(abc)$ , and the expected loss equals the  $z$ -coordinate of the center of mass of the parallelepiped:

$$E[L] = (1/abc) \int_0^a \int_0^b \int_0^c z \, dz \, dy \, dx = c/2$$

This case represents the pure "mathematical expectation".

The loss distribution function  $F_1(t) = \Pr(L \leq t)$  is expressed as the ratio of the volume of the cross-section of the parallelepiped to its total volume:

$$F_1(t) = (1/abc) \cdot \text{Vol}(\Pi \cap \{z \leq t\}) = t/c \text{ for } 0 \leq t \leq c, \text{ and } 1 \text{ for } t > c$$

That is, under a uniform distribution, the loss amount is uniformly distributed on the interval  $[0, c]$ . Using this geometric method, any arbitrary distribution (e.g., exponential or Pareto) can be modeled by assigning an appropriate  $f(x, y, z)$ .

### 3. Geometry of insurance premium formation

According to the actuarial fair premium principle, the premium must at least cover the expected loss. In the P-model, the net premium ( $P_{\text{net}}$ ) equals  $E[L]$ , i.e., the average height of the parallelepiped along the  $z$ -axis.

However, since the insurer assumes risk, a risk loading is added. This addition is represented by appending an upper layer to the top of the parallelepiped ( $z > c$ ) or proportionally to the entire volume.

#### 3.1. Loading Based on the Variance Principle

If the insurer follows the variance principle:

$$P = E[L] + \alpha \cdot \text{Var}(L)$$

then in the geometric model this corresponds to increasing the height of the parallelepiped along the  $z$ -axis by  $\alpha\sigma^2$ . The new height is:

$$c' = c + \alpha\sigma^2$$

The volume of the new parallelepiped  $\Pi' = \{0 \leq z \leq c'\}$  is  $V' = abc'$ , and the additional volume ( $\Delta V = ab \cdot \alpha\sigma^2$ ) represents the insurer's additional income (or capital requirement) for bearing the risk.

#### 3.2. Probability Principle (Value-at-Risk – VaR)

If the premium equals the VaR at confidence level  $(1-\varepsilon)$ , i.e.:

$$P = \inf\{t \mid \Pr(L \leq t) \geq 1-\varepsilon\}$$

then in geometric terms,  $P$  is the point where cutting the parallelepiped with the plane  $z = P$  yields a lower volume-to-total volume ratio equal to  $(1-\varepsilon)$ :

$$\text{Vol}(\Pi \cap \{z \leq P\}) / abc = 1-\varepsilon$$

This method is critically important for actuarial practice under SOLVENCY II requirements.

### 4. Loss allocation and layer analysis

In reinsurance, excess-of-loss contracts operate on the basis of dividing losses into layers. In the P-model, this is expressed very simply through horizontal cross-sections:

- First layer (priority):  $0 \leq z \leq d_1$  – the insurer's own retention amount;



- Second layer:  $d_1 \leq z \leq d_2$  – first reinsurance (surplus);
- Third layer:  $d_2 \leq z \leq c$  – second reinsurance or catastrophic layer.

The expected loss of each layer:

$$E[L_{ia}^{yer}] = \iiint \Pi \cap \{d_{i-1} \leq z \leq d_i\} z \cdot f(x, y, z) dx dy dz$$

Here, the volume integrals provide the geometric basis for calculating the reinsurance premium payable for each layer.

### 5. Portfolio optimization: "Cube" evolution

The goal of insurance portfolio management is to minimize risk (variance) for a given volume (total liabilities). In the P-model, this reduces to the problem of approximating the parallelepiped to a cube shape.

Suppose the portfolio volume  $V = abc$  is fixed. Variance depends on the variability of  $z$ . When losses are uniformly distributed, the variance  $\sigma^2 = c^2/12$ . With constant volume,  $c = V/(ab)$ . To minimize variance,  $ab$  must be maximized, i.e.,  $a$  and  $b$  should be made as large as possible. However,  $a$  (risk rate) and  $b$  (exposure) are subject to market constraints.

Optimality condition (Lagrange method):

$$L(a, b, c) = \sigma^2(a, b, c) + \lambda(abc - V_0)$$

Solving this equation yields the optimal portfolio condition at  $a = b = c$  (i.e., a cube), which means the portfolio is balanced and diversified across all parameters.

### 6. Dynamic extension of the model (time factor)

This model can be extended to a 4-dimensional hyper-parallelepiped ( $x, y, z, t$ ), where  $t$  is the time axis (e.g., contract duration or inflation rate). In this case, the evolution of loss distribution over time is viewed as a change in hyper-volume. In practical calculations, discrete divisions along the time axis (years, quarters) are taken, and each division is modeled as a separate parallelepiped.

### 7. Limitations of the model and critical analysis

The following limitations of the model should be specifically noted:

- Independence assumption: The model treats the  $x, y, z$  axes as orthogonal (independent), but in reality there is a correlation between risk rate and loss severity (e.g., higher-risk clients may cause greater losses). This can be addressed by making the parallelepiped oblique-angled (affine transformation), expressing the angle between axes through the covariance matrix.
- Complexity of the density function: Real distributions (e.g., Pareto) may have infinite variance, in which case  $c$  is not bounded by a finite value. In such cases, it is necessary to view the parallelepiped as an infinite prism (truncated).
- Price constraints: The premium rate must not exceed the market price, which imposes an upper boundary condition on  $a$ .

### 8. Practical example (numerical interpretation)

Suppose for an automobile insurance portfolio:

- $a = 1.2$  (high risk coefficient);
- $b = 1000$  (1000 contracts);
- $c = 5000$  (maximum loss, in monetary units).



Then the total portfolio volume  $V = 1.2 \cdot 1000 \cdot 5000 = 6,000,000$  (conventional units). Expected loss  $E[L] = c/2 = 2,500$  (if uniformly distributed). Net premium fund  $P = 2,500 \cdot 1,000 = 2,500,000$ . If the risk loading is 20% ( $\alpha = 0.2$ ), then  $c' = 5000 \cdot 1.2 = 6,000$ , and the new volume increases to 7,200,000. If in reinsurance  $d_1 = 3,000$  (own retention) is set, the layer volume passing to the reinsurer amounts to  $(6,000 - 3,000) \cdot 1,000 \cdot 1.2 = 3,600,000$ .

## 9. Conclusions

The parallelepiped model combines insurance premium and loss distribution in a single geometric space, providing a new, intuitive, and mathematically rigorous foundation for actuarial calculations. The main scientific results of the model are:

- The loss distribution function was expressed as the volume of cross-sections of the parallelepiped;
- Risk loadings were modeled through changes in height;
- Portfolio optimality was explained through convergence to a cubic shape.

In future research, it is recommended to replace the model with spherical geometry (spherical coordinates) or convex bodies (e.g., ellipsoid) to account for correlated risks and extreme losses (black swan events). Additionally, developing practical algorithms for real-time volume optimization using artificial intelligence is considered a priority.

## References

- Kaas, R., Goovaerts, M., Dhaene, J., & Denuit, M. (2008). *Modern Actuarial Risk Theory*. Springer.
- Feller, W. (1971). *An Introduction to Probability Theory and Its Applications*.
- Panjer, H. H. (2006). *Operational Risk: Modeling Analytics*. Wiley.
- Klugman, S. A., Panjer, H. H., & Willmot, G. E. (2012). *Loss Models: From Data to Decisions*. Wiley.
- Solvency II Legislative Requirements (EIOPA, 2016).



ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ  
ТАДҚИҚОТЛАР

ТА'ЛИМ ЖАРAYONIDA IJTIMOIIY PEDAGOGIKANING NAZARIY VA  
AMALIY AHAMIYATI

**Daminova Nigora Kudratovna**

*Toshkent Kimyo xalqaro universiteti*

*Samarqand filiali dotsenti*

**Mavlonova Baxtigul Saidovna**

*Toshkent Kimyo xalqaro universiteti*

*Samarqand filiali o'qituvchisi*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada ta'lim jarayonida ijtimoiy pedagogikaning nazariy va amaliy ahamiyati tahlil qilingan. Bugungi globallashtirish va axborotlashuv sharoitida ta'lim muassasalarining vazifasi faqat o'quvchilarga bilim berish bilan chegaralanib qolmay, balki ularni jamiyatda faol, mas'uliyatli, mustaqil fikrlovchi va ijtimoiy hayotga moslasha oladigan shaxs sifatida shakllantirishdan iboratdir. Shu nuqtayi nazardan, ijtimoiy pedagogika ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchi shaxsining ijtimoiylashuvi, ma'naviy-axloqiy rivojlanishi, kommunikativ madaniyati hamda ijtimoiy muhit bilan sog'lom munosabatlarini shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Maqolada ijtimoiy pedagogikaning mazmuni, uning ta'lim tizimidagi vazifalari, shaxs kamolotiga ta'siri va amaliy imkoniyatlari ilmiy-pedagogik jihatdan yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** ijtimoiy pedagogika, ta'lim jarayoni, ijtimoiylashuv, tarbiya, shaxs kamoloti, pedagogik muhit, ijtimoiy moslashuv, kommunikativ madaniyat.

Zamonaviy ta'lim tizimi jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri sifatida qaraladi. Chunki har qanday jamiyatning kelajagi unda voyaga yetayotgan yosh avlodning bilimi, dunyoqarashi, ma'naviyati va ijtimoiy faolligi bilan bevosita bog'liqdir. Bugungi kunda ta'lim muassasalari oldida turgan asosiy vazifa o'quvchi-yoshlarga faqat tayyor bilimlarni yetkazish emas, balki ularni hayotiy faoliyatga tayyorlash, ijtimoiy muhitda o'z o'rnini topa oladigan shaxs sifatida tarbiyalashdan iboratdir. Ta'lim jarayoni inson shaxsining rivojlanishida alohida ahamiyatga ega bo'lgan murakkab pedagogik va ijtimoiy jarayondir. O'quvchi maktab yoki oliy ta'lim muassasasida nafaqat fan asoslarini o'zlashtiradi, balki jamoadagi munosabatlar, ijtimoiy me'yorlar, axloqiy qadriyatlar, muloqot madaniyati va mas'uliyat hissini ham egallaydi. Shu sababli ta'lim jarayonini faqat didaktik jarayon sifatida emas, balki keng ma'nodagi ijtimoiy-pedagogik hodisa sifatida o'rganish zarur. Ijtimoiy pedagogika aynan mana shu jarayonlarni ilmiy jihatdan tahlil qiladi. U shaxsning ijtimoiy muhitda shakllanishi, rivojlanishi, tarbiyalanishi va jamiyatga moslashuvi bilan bog'liq masalalarni o'rganadi. Ayniqsa, bugungi murakkab ijtimoiy sharoitda o'quvchilarning ruhiy, axloqiy, ijtimoiy va kommunikativ rivojlanishini qo'llab-quvvatlash ijtimoiy pedagogikaning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.



Ijtimoiy pedagogika pedagogika fanining muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, u shaxs va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni pedagogik nuqtayi nazardan o‘rganadi. Uning asosiy maqsadi insonning ijtimoiy muhitda to‘laqonli rivojlanishi, jamiyatdagi mavjud qadriyatlar, me‘yorlar va munosabatlar tizimini o‘zlashtirishi hamda ijtimoiy hayotga muvaffaqiyatli moslashishiga yordam berishdan iboratdir. Ta‘lim jarayonida ijtimoiy pedagogikaning nazariy ahamiyati shundaki, u o‘quvchi shaxsini bir tomonlama emas, balki yaxlit holda o‘rganishni talab qiladi. O‘quvchining bilimi, xulqi, dunyoqarashi, oilaviy muhiti, tengdoshlari bilan munosabati, qiziqishlari va ijtimoiy faolligi bir-biri bilan uzviy bog‘liqdir. Shu bois ta‘lim-tarbiya jarayonida o‘quvchining faqat darsdagi o‘zlashtirish ko‘rsatkichlariga qarab baho berish yetarli emas. Uning shaxsiy ehtiyojlari, ruhiy holati, ijtimoiy muhitga moslashuvi va tarbiyaviy rivojlanishi ham e‘tiborga olinishi lozim.

Ijtimoiy pedagogika o‘quvchi shaxsining ijtimoiylashuv jarayonini chuqurroq anglashga yordam beradi. Ijtimoiylashuv - bu shaxsning jamiyatda mavjud bo‘lgan ijtimoiy tajriba, axloqiy me‘yorlar, qadriyatlar va xulq-atvor qoidalarini o‘zlashtirish jarayonidir. Bu jarayon oilada boshlanadi, ta‘lim muassasasida davom etadi va butun hayot davomida rivojlanib boradi. Ta‘lim muassasasi esa ushbu jarayonda eng muhim ijtimoiy institutlardan biri hisoblanadi. O‘quvchi ta‘lim jarayonida faqat bilim olmaydi, balki o‘zini jamoadagi shaxs sifatida angelaydi. U boshqalar bilan muloqot qilishni, fikr almashishni, bahslashishni, kelishishni, yordam berishni va yordam qabul qilishni o‘rganadi. Ana shu jarayonlarda uning ijtimoiy tajribasi boyiydi. Demak, ta‘lim jarayonida ijtimoiy pedagogikaning o‘rni o‘quvchining shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishini uyg‘unlashtirishda namoyon bo‘ladi.

Ijtimoiy pedagogikaning amaliy ahamiyati, avvalo, ta‘lim muassasalarida tarbiyaviy ishlarni samarali tashkil etishda ko‘rinadi. Har bir o‘quvchi o‘ziga xos xarakter, qiziqish, oilaviy sharoit va ijtimoiy tajribaga ega. Ayrim o‘quvchilarda darsga qiziqishning pasayishi, o‘ziga ishonchsizlik, muloqotdagi tortinchoqlik, tengdoshlari bilan ziddiyat, oilaviy muammolar yoki ijtimoiy moslashuvdagi qiyinchiliklar kuzatilishi mumkin. Bunday holatlarda ijtimoiy pedagogik yondashuv o‘quvchining muammosini yuzaki emas, balki uning kelib chiqish sabablari bilan birga o‘rganishga imkon beradi. Ijtimoiy pedagogik faoliyatda individual yondashuv muhim o‘rin tutadi. Chunki barcha o‘quvchilarga bir xil talab qo‘yish yoki bir xil tarbiyaviy ta‘sir ko‘rsatish har doim ham kutilgan natijani bermaydi. Ba‘zi o‘quvchilar rag‘batga, ba‘zilari tushuntirishga, boshqalari esa ko‘proq psixologik qo‘llab-quvvatlashga ehtiyoj sezadi. Shu sababli pedagog o‘quvchining shaxsiy xususiyatlarini hisobga olgan holda ishlashi kerak.

Ijtimoiy pedagogika ta‘lim jarayonida sog‘lom ma‘naviy-psixologik muhit yaratishga ham xizmat qiladi. Sog‘lom pedagogik muhit mavjud bo‘lgan joyda o‘quvchi o‘zini erkin, xavfsiz va qadrlangan shaxs sifatida his qiladi. Bunday muhitda o‘quvchining bilim olishga bo‘lgan qiziqishi, o‘zini namoyon etish istagi va jamoaviy faoliyatdagi faolligi ortadi. Aksincha, befarqlik, adolatsizlik, qo‘pollik yoki doimiy tanqid mavjud bo‘lgan muhitda o‘quvchining ichki faolligi susayishi mumkin. Ta‘lim jarayonida ijtimoiy pedagogikaning yana bir muhim vazifasi o‘quvchilarda ijtimoiy mas‘uliyatni shakllantirishdir. Ijtimoiy mas‘uliyat shaxsning



o‘z xatti-harakatlari, jamoadagi o‘rni, atrofdagilarga munosabati va jamiyat oldidagi burchini anglashida namoyon bo‘ladi. Bu sifat o‘z-o‘zidan shakllanmaydi. U dars jarayoni, sinfdan tashqari tadbirlar, jamoaviy ishlar, ijtimoiy loyihalar, madaniy-ma‘rifiy uchrashuvlar va tarbiyaviy suhbatlar orqali bosqichma-bosqich rivojlanadi.

Bugungi kunda ijtimoiy pedagogikaning ahamiyati raqamli muhit bilan ham chambarchas bog‘liq. O‘quvchilar internet, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalari orqali turli axborot oqimlariga duch kelmoqda. Bu jarayon ularning dunyoqarashi, qiziqishlari, xulq-atvori va muloqot madaniyatiga ta‘sir ko‘rsatadi. Shu sababli pedagoglar yoshlarni axborotdan ongli foydalanishga, zararli ta‘sirlardan himoyalashga, virtual muhitda odob-axloq qoidalariga rioya qilishga o‘rgatishlari zarur. Bu ham ijtimoiy pedagogikaning zamonaviy vazifalaridan biri hisoblanadi. Ijtimoiy pedagogik yondashuv imkoniyati cheklangan, ijtimoiy himoyaga muhtoj, oilaviy sharoiti murakkab yoki tarbiyasida qiyinchiliklar mavjud bo‘lgan o‘quvchilar bilan ishlashda ham katta ahamiyatga ega. Bunday o‘quvchilar ko‘pincha alohida e‘tibor, mehr, qo‘llab-quvvatlash va moslashtirilgan pedagogik yondashuvga ehtiyoj sezadilar. Ta‘lim muassasasi esa har bir o‘quvchi uchun teng imkoniyat yaratishi, uni jamoadan ajratmasligi va shaxsiy rivojlanishiga sharoit yaratishi lozim. Ijtimoiy pedagogikaning samarali amalga oshirilishi pedagogning kasbiy mahorati va insoniy fazilatlariga ham bog‘liq. Pedagog o‘quvchining faqat tashqi xatti-harakatini emas, balki uning ichki kechinmalari, ehtiyojlari va muammolarini ham tushuna olishi kerak. Buning uchun unda kuzatuvchanlik, adolat, mehribonlik, mas‘uliyat va muloqot madaniyati shakllangan bo‘lishi zarur. O‘qituvchi o‘quvchi uchun faqat bilim beruvchi emas, balki tarbiyachi, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlovchi shaxs hamdir.

Ta‘lim jarayonida ijtimoiy pedagogik yondashuvni samarali tashkil etish uchun bir qator shartlarga amal qilish maqsadga muvofiqdir. Birinchidan, o‘quvchilarning ijtimoiy-psixologik holati muntazam o‘rganilishi kerak. Ikkinchidan, ta‘lim jarayonida hamkorlikka asoslangan metodlardan foydalanish zarur. Uchinchidan, ota-onalar bilan tizimli aloqani yo‘lga qo‘yish lozim. To‘rtinchidan, ta‘lim muassasasida sog‘lom ma‘naviy muhit yaratish muhim. Beshinchidan, har bir o‘quvchiga uning ehtiyoji va imkoniyatidan kelib chiqib yondashish talab etiladi.

Xulosa qilib aytganda, ijtimoiy pedagogika ta‘lim jarayonida o‘quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirish, uni jamiyat hayotiga tayyorlash va ijtimoiy muhitga moslashuvini ta‘minlashda muhim nazariy hamda amaliy ahamiyatga ega. Ta‘lim muassasasi o‘quvchi uchun nafaqat bilim olish joyi, balki ijtimoiy tajriba to‘plash, muloqot madaniyatini egallash, jamoadagi o‘rni anglash va hayotiy ko‘nikmalarni shakllantirish maktabidir. Ijtimoiy pedagogikaning ta‘lim jarayoniga tatbiq etilishi o‘quvchilarda mas‘uliyat, hamkorlik, bag‘rikenglik, mustaqil fikrlash, ijtimoiy faollik va ma‘naviy-axloqiy sifatlarni rivojlantiradi. Ayniqsa, zamonaviy jamiyatda yoshlarning turli axborot oqimlari, ijtimoiy muammolar va murakkab munosabatlar sharoitida to‘g‘ri yo‘l topishi uchun ijtimoiy pedagogik yordam muhim hisoblanadi. Shunday ekan, ta‘lim jarayonida ijtimoiy pedagogikaning imkoniyatlaridan samarali foydalanish, pedagogik faoliyatda shaxsga yo‘naltirilgan



va ijtimoiy hamkorlikka asoslangan yondashuvlarni kuchaytirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir. Bu esa barkamol, ijtimoiy faol, ma'naviy yetuk va jamiyat taraqqiyotiga munosib hissa qo'sha oladigan yosh avlodni tarbiyalashga xizmat qiladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mavlonova R., To'rayeva O., Holiqberdiyev K. Pedagogika. Toshkent: O'qituvchi, 2013.
2. Abdullayeva Sh. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.
3. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Toshkent, 2006.
4. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. Qarshi, 2000.
5. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya. Toshkent, 2012.
6. Qodirov B.R. Pedagogik diagnostika va korreksiya. Toshkent, 2018.
7. Hasanboyev J., To'raqulov X., Haydarov M. Pedagogika fanidan izohli lug'at. Toshkent, 2008.
8. Musurmonova O. Ma'naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi. Toshkent, 2010.
9. Jo'rayev R.H., Tolipov O'.Q. Pedagogik faoliyat, texnologiyalar va mahorat. Toshkent, 2015.



## ASSERTIV XULQ SHAKLLANISHIDA IJTIMOYIY-PSIXOLOGIK OMILLAR VA TALABALAR TAFAKKURINING ROLI

**Umurzoqov Feruzjon Farxodovich**

Samarqand davlat chet tillar instituti

mustaqil izlanuvchisi

@mail:feruzfarkhodovich48@gmail.com

**Annotatsiya:** Bu izlanishda talabalar shaxsida assertiv xulq-atvor shakllanishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillar tizimi hamda zamonaviy tafakkur jarayonlarining o'rni tahlil qilinadi. Shuningdek, mazkur omillarning o'zaro integratsiyasi natijasida talabaning kommunikativ va shaxsiy rivojlanishiga ta'siri yoritiladi.

**Kalit so'zlar:** assertivlik, ijtimoiy muhit, psixologik omillar, tafakkur, refleksiya, kommunikativ kompetensiya.

**Abstract:** This study examines the system of socio-psychological factors influencing the formation of assertive behavior in students' personalities, as well as the role of contemporary cognitive processes. Furthermore, it elucidates how the integration of these factors contributes to the development of students' communicative competence and personal growth.

**Keywords:** assertiveness, social environment, psychological factors, cognition, reflection, communicative competence.

Hozirgi davrda ta'lim tizimi oldida turgan muhim vazifalardan biri talabalar shaxsida mustaqil fikrlash, o'z nuqtai nazarini asosli himoya qilish va samarali muloqotga kirishish ko'nikmalarini shakllantirishdan iboratdir. Bu jarayonda assertiv xulq muhim psixologik sifat sifatida namoyon bo'ladi. Assertivlik shaxsning o'z fikr va hissiyotlarini ochiq, aniq va boshqalarning huquqlarini hurmat qilgan holda ifoda etish qobiliyatidir. Talabalar shaxsida assertiv xulqning rivojlanishi avvalo ijtimoiy muhit bilan chambarchas bog'liqdir. Oila tarbiyasi, ayniqsa demokratik va qo'llab-quvvatlovchi muhit, shaxsda erkin fikrlash va o'zini ifoda etish ko'nikmalarini shakllantiradi. Ta'lim muassasasidagi pedagogik yondashuvlar, xususan interfaol metodlardan foydalanish, talabalarning faolligini oshiradi va ularning mustaqil fikrlashini rivojlantiradi. Shuningdek, tengdoshlar guruhi va jamiyatdagi ijtimoiy normalar ham shaxs xulq-atvorining assertiv, passiv yoki agressiv shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Assertiv xulq shakllanishida psixologik omillar ham muhim ahamiyat kasb etadi. O'z-o'zini baholash darajasi yuqori bo'lgan talabalar o'z fikrlarini erkinroq ifoda etishga moyil bo'ladi. Emotsional intellekt rivojlangan shaxslar esa boshqalar bilan muloqotda muvozanatni saqlashga qodir bo'ladi. Refleksiya, ya'ni o'z xatti-harakatlarini tahlil qilish qobiliyati, shaxsning o'z ustida ishlashiga va assertiv xulqni ongli ravishda rivojlantirishiga imkon yaratadi. Bundan tashqari, stressga chidamlilik va ichki motivatsiya kabi omillar ham ushbu jarayonda muhim rol o'ynaydi.



Zamonaviy talabalar tafakkuri axborotga boy va tezkor o'zgaruvchan muhit ta'sirida shakllanib, tanqidiy fikrlash, kreativ yondashuv, axborotni tez qayta ishlash va muammoli vaziyatlarda samarali qaror qabul qilish kabi xususiyatlar bilan tavsiflanadi. Bunday tafakkur turi talabalarga o'z pozitsiyasini asoslash va himoya qilish imkonini beradi, bu esa assertiv xulqning muhim tarkibiy jihatlaridan biridir. Assertiv xulq va tafakkur jarayonlari o'zaro uzviy bog'liq bo'lib, biri ikkinchisini to'ldiradi. Tanqidiy fikrlash mustaqil qaror qabul qilishga xizmat qilsa, refleksiya o'z xatti-harakatlarini baholash imkonini beradi. Kreativ tafakkur muammolarga yangi yechim topishga yordam beradi, emotsional intellekt esa ijtimoiy munosabatlarda muvozanatni ta'minlaydi. Natijada talaba shaxsi ijtimoiy faol, o'z fikrini aniq va ravon ifoda eta oladigan hamda boshqalar bilan samarali muloqot o'rnatadigan darajaga yetadi.

Assertiv xulq va tafakkurning o'zaro bog'liqligini quyidagi jadval orqali ko'rishimiz mumkin:

<b>Omillar</b>	<b>Assertivlikka ta'siri</b>	<b>Natija</b>
<b>Ijtimoiy muhit</b>	Tashqi xavfsizlik va qo'llab-quvvatlashni his qilish.	Muloqotga kirishish qobiliyati.
<b>Psixologik holat</b>	Ichki ishonch va emotsional barqarorlik.	Stressli vaziyatlarda o'zini yo'qotmaslik.
<b>Tafakkur jarayoni</b>	Vaziyatni tahlil qilish va yechim topish.	Asosli va mantiqiy nutq.

Xulosa qilib aytganda assertivlik - bu "Yo'q" deya olish san'ati emas, balki "Men o'zimni va sizni hurmat qilgan holda o'z haqiqatimni ayta olaman" degan hayotiy pozitsiyadir. Assertiv xulq shakllanishi ko'p omilli jarayon bo'lib, unda ijtimoiy muhit, psixologik xususiyatlar va tafakkur jarayonlari muhim o'rin tutadi. Zamonaviy talabalar tafakkurining rivojlanganligi assertivlikni shakllantirish uchun qulay sharoit yaratadi. Shu sababli ta'lim jarayonida talabalar shaxsida nafaqat bilim va ko'nikmalarni, balki mustaqil tafakkur va assertiv xulqni rivojlantirishga qaratilgan kompleks yondashuvni qo'llash muhim hisoblanadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Goleman, D. (1995). *Emotional Intelligence: Why It Can Matter More Than IQ*. New York: Bantam Books.
2. Rogers, C. R. (1961). *On Becoming a Person: A Therapist's View of Psychotherapy*. Boston: Houghton Mifflin.
3. Vygotsky, L. S. (1978). *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes*. Cambridge: Harvard University Press.



## O'QITISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA BLENDED LEARNING (ARALASH TA'LIM) MODELIDAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK AHAMIYATI

**Ibragimova Go'zal Rustamovna**  
“International school of finance  
technology and science” instituti  
Samarqand filiali 1-kurs magistranti

**ANNOTATSIYA.** Ushbu maqolada blended learning (aralash ta'lim) modeli asosida o'qitish samaradorligini oshirishning pedagogik mexanizmlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda an'anaviy va raqamli ta'lim shakllarining integratsiyasi, o'quv jarayonini individuallashtirish, talabalar faolligini oshirish hamda mustaqil ta'lim ko'nikmalarini rivojlantirish masalalari yoritilgan. Shuningdek, aralash ta'lim modelida interaktiv metodlar, raqamli platformalar va zamonaviy pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanishning ahamiyati ko'rib chiqiladi. Maqolada o'qitish jarayonini optimallashtirish, ta'lim sifati va natijadorligini oshirishga xizmat qiluvchi asosiy pedagogik omillar tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari blended learning modelining ta'lim jarayonidagi samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy-amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishga xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** pedagogik mexanizmlar, ta'lim samaradorligi, raqamli texnologiyalar, interaktiv metodlar, individuallashtirish, masofaviy ta'lim, o'quv jarayoni, innovatsion ta'lim.

**АННОТАЦИЯ.** В данной статье анализируются педагогические механизмы повышения эффективности обучения на основе модели смешанного обучения. Рассматриваются вопросы интеграции традиционных и цифровых форм образования, индивидуализации учебного процесса, повышения активности учащихся и развития навыков самостоятельного обучения. Также рассматривается важность эффективного использования интерактивных методов, цифровых платформ и современных педагогических технологий в модели смешанного обучения. Анализируются основные педагогические факторы, способствующие оптимизации учебного процесса, повышению качества и эффективности образования. Результаты исследования служат основой для разработки научно-практических рекомендаций, направленных на повышение эффективности модели смешанного обучения в образовательном процессе.

**Ключевые слова:** педагогические механизмы, эффективность образования, цифровые технологии, интерактивные методы, индивидуализация, дистанционное обучение, образовательный процесс, инновационное образование.

**ABSTRACT.** This article analyzes pedagogical mechanisms for increasing the effectiveness of teaching based on the blended learning model. The study covers



the issues of integration of traditional and digital forms of education, individualization of the learning process, increasing student activity, and developing independent learning skills. It also considers the importance of the effective use of interactive methods, digital platforms, and modern pedagogical technologies in the blended learning model. The article analyzes the main pedagogical factors that serve to optimize the teaching process, improve the quality and effectiveness of education. The results of the study serve to develop scientific and practical recommendations aimed at increasing the effectiveness of the blended learning model in the educational process.

**Keywords:** pedagogical mechanisms, educational effectiveness, digital technologies, interactive methods, individualization, distance learning, educational process, innovative education.


Ta'lim jarayonida elektron ta'limdan foydalanish darajasiga ko'ra onlayn ta'lim va aralash ta'lim shakllari farqlanadi. Onlayn ta'lim internet texnologiyalari asosida tashkil etilib, o'quvchilarga o'quv materiallarini mustaqil ravishda o'zlashtirish imkonini beruvchi ta'lim shakli hisoblanadi. Aralash ta'lim esa onlayn va an'anaviy yuzma-yuz ta'limning o'zaro integratsiyasi bo'lib, u klassik o'qitish usullarini zamonaviy elektron texnologiyalar bilan uyg'unlashtirishni nazarda tutadi. An'anaviy yondashuvga ko'ra, aralash ta'lim modeli yuzma-yuz o'qitish jarayonining ma'lum qismini elektron yoki masofaviy ta'lim shakllari bilan almashtirish orqali amalga oshiriladi.[1] Mazkur model ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilari-o'qituvchi va o'quvchilarning faol hamkorligini talab etadigan murakkab tizim sifatida qaraladi. Shu sababli, aralash ta'lim ikki tomonlama xarakterga ega bo'lib, u bir tomondan talabning mustaqil va auditoriyadagi o'quv faoliyatini qamrab olsa, ikkinchi tomondan o'qituvchi tomonidan ushbu faoliyatni an'anaviy va elektron shakllarda samarali tashkil etishni o'z ichiga oladi.

Blended learning, ya'ni aralash ta'lim tushunchasiga Clayton Christensen Institute tomonidan quyidagicha ta'rif berilgan: aralash ta'lim (blended learning) - zamonaviy ta'lim texnologiyasi bo'lib, o'qituvchi ishtirokidagi ta'lim olishni (Brick and Mortar Education) onlayn ta'lim (eLearning) olish bilan birlashtiradi va ta'lim oluvchi tomonidan o'quv jarayonining tezligi, joyi, vaqti mustaqil nazorat qilinishini hamda o'qituvchi bilan birga va onlayn o'qish tajribasi integratsiyasini faraz qiladi[2]. Aralash ta'lim an'anaviy va masofaviy ta'lim texnologiyalarini birlashtiradi. Ushbu ta'lim texnologiyasi an'anaviy (Brick and Mortar Education) ta'limdan voz kechishni talab qilmaydi, chunki to'liq ta'lim (qatnab o'qish) muhim bo'lgan nutq va ijtimoiy-madaniy ko'nikmalarni beradi. Ingliz tilida Brick and Mortar (g'isht va eritma) deb atalishi an'anaviy", "uzoq vaqt ichida qo'llaniladigan" ma'nosini bildiradi. Brick and Mortar Education to'liq ta'limning an'anaviy modelini bildiradi.

Zamonaviy ta'lim ma'lum darajada aralash ta'lim turidir, chunki raqamli texnologiyalar bilim va tajribaning asosiy manbaidir. Ammo shunga qaramasdan, Garvard universitetida olib borilgan ilmiy izlanishlar natijasida aniqlanishi bo'yicha aralash ta'limda talabalar uchun asosiysi kursning onlayn elementlari emas, balki



o'qituvchi tomonidan material qay ko'rinishida berilishi. Shu sababli ushbu ta'lim texnologiyasida ham inson omili katta ahamiyatga ega [3].



Elektron ta'limda tinglovchilar mustaqil, erkin va ixtiyoriy bilim olish imkoniyatiga ega bo'ladi, o'qituvchi va talaba o'rtasidagi bevosita aloqa bo'lmaganligi uchun talabalarning o'zlashtirish darajasi bevosita uning intellektual tomonlariga bog'liq, ko'rgazmalilikning keng imkoniyatlaridan foydalanish, ya'ni eshitish, ko'rish, idrok qilish, esda saqlab qolish, tushunish fikrlashda texnik jarayonlarning faol ishtiroki yordamida egallanayotgan bilim mohiyatini chuqurroq anglashga yordam beradi.

Auditoriya soatlarini qisqartirishda ta'lim beruvchi asosiy e'tiborni talaba o'qituvchi rahbarligi va nazorati ostida bajaradigan mustaqil ishlarga qaratiladi. Bu ish auditoriya mashg'ulotlariga tayyorgarlik, alohida mavzular bo'yicha topshiriqlar ishlab chiqish, yozma nazorat ishlarini bajarish, joriy, oraliq va yakuniy nazoratlarga tayyorgarlikni o'z ichiga oladi.[4] Auditoriya va mustaqil ish ya'ni joriy nazorat, talabaning umumta'lim bilimlari, ya'ni kirish nazorati va berilgan fan o'rganilgandan so'ng o'zlashtirilgan bilimlarni nazorat qilish o'quv jarayoni pedagogik texnologiyasining ajralmas qismi hisoblanadi.

Hozirgi kunda Blended learning (aralash ta'lim, an'anaviy va elektron ta'lim) texnologiyasi rivojlanmoqda, natijada o'quv materialining bir qismi elektron kurs shaklida, qolgani esa auditoriyadagi mashg'ulot shaklida amalga oshirilishi mumkin. Bunday ta'lim talabalardan o'z o'quv jarayonini boshqarishni, yuqori darajada tashkilotchilikni, ma'lum qobiliyatlarni, o'quvlarni, ta'lim olish jarayoni natijalarini baholashni talab etadi.[5] Bundan tashqari, talaba o'quv materialini o'zlashtirish uchun uni mustaqil ravishda umumlashtirishi, bajarilgan o'quv ishlari va topshiriqlarni bajarishdagi faoliyatini tahlil qilishi va baholashi kerak. Shunday qilib, talaba o'qituvchi bilan birga nazorat ishlarini bajarishga qay darajada tayyor ekanligini mustaqil baholashi lozim.

Respublikamiz ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlar o'qitish ishlarini jahon andozalariga moslashtirishni va eng samarali usullarga asoslanishni taqozo etmoqda.[6] Elektron ta'lim jarayonini tashkillashtirish hozirgi zamon talabidir. Shuning uchun Blended learning (aralash ta'lim, ana'anaviy va elektron ta'lim) asosida ta'lim tizimi tashkil etishni yo'lga qo'yish ta'lim samaradorligini oshirishga olib kelishi shubhasiz. Bizning nazarimizda, bu borada aralash ta'lim an'anaviy va modul tizimida o'qitish ishlarini takomillashtirish, ommalashtirish, aralash ta'lim



bo'yicha rivojlangan davlatlar tajribasini chuqur o'rganish aralash ta'lim milliy modelini yaratilishiga imkon yaratadi [7].

**Xulosa** qilib aytganda, blended learning (aralash ta'lim) modeli zamonaviy ta'lim tizimida o'quv jarayonining samaradorligini oshirishda muhim pedagogik yondashuv sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu model an'anaviy yuzma-yuz ta'lim bilan raqamli texnologiyalar asosidagi masofaviy o'qitishni uyg'unlashtirib, o'quvchilarning individual ehtiyojlari, qobiliyatlari va o'rganish sur'atlarini hisobga olish imkonini beradi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, aralash ta'lim samaradorligini ta'minlashda pedagogik mexanizmlar-o'quv faoliyatini individuallashtirish, interaktiv metodlardan foydalanish, o'z-o'zini nazorat qilish ko'nikmalarini rivojlantirish, hamkorlikka asoslangan o'qitish va muntazam refleksiya jarayonlari muhim o'rin tutadi. Shu bilan birga, o'qituvchining fasilitator sifatidagi roli, raqamli kompetensiyalarning rivojlanganligi va o'quv materiallarining sifatli ishlab chiqilishi ham hal qiluvchi omillardan hisoblanadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Graham C. R. (2006). Blended Learning Systems: Definition, Current Trends, and Future Directions.
2. Bonk C. J., Graham C. R. (2006). The Handbook of Blended Learning: Global Perspectives, Local Designs. San Francisco: Pfeiffer.
3. Horn M. B., Staker H. (2015). Blended: Using Disruptive Innovation to Improve Schools. San Francisco: Jossey-Bass.
4. Hrastinski S. (2019). What Do We Mean by Blended Learning? TechTrends, 63(5), 564–569.
5. Vygotsky L. S. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Cambridge: Harvard University Press.
6. Bloom B. S. (1956). Ta'lim maqsadlari taksonomiyasi: o'quv maqsadlarini tasniflash. Nyu-York: Longmans.
7. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi (2021). Raqamli ta'limni rivojlantirish strategiyasi. Toshkent.



## THE ROLE OF ENGLISH FOR SPECIFIC PURPOSES (ESP) IN THE PROFESSIONAL TRAINING OF FUTURE ARCHITECTS

**G.M.Meylieva,**

Associate Professor.

Tashkent university of architecture  
and Civil Engineering, Uzbekistan

[gulnozameylieva@gmail.com](mailto:gulnozameylieva@gmail.com)

**N.R.Xolboyeva,**

Student Tashkent university of  
architecture and Civil Engineering,

Uzbekistan

**Abstract.** This article examines the theoretical and practical dimensions of teaching English for Specific Purposes (ESP) to future architects. By synthesizing current research on needs analysis, syllabus design, and communicative competence, the study proposes a comprehensive framework for architectural ESP. It explores the shift from General English (GE) to profession-oriented instruction, emphasizing the necessity of authentic materials, task-based learning (TBL), and the integration of Content and Language Integrated Learning (CLIL).

**Keywords:** English for Specific Purposes (ESP), Architectural Education, Needs Analysis, Communicative Competence, CLIL, Syllabus Design, Professional Development.

In the era of globalization, English has emerged as the lingua franca of international scholarship and professional practice. Within the architectural domain, the ability to communicate technical concepts, design philosophies, and project specifications in English is no longer an optional skill but a compulsory for professional survival and success. The internationalization of higher education, accelerated by the Bologna Declaration, has fundamentally transformed the landscape of English language teaching in universities. As academic institutions strive to enhance their global profiles, the demand for specialized language training has undergone a sharp surge. In this context, English for Specific Purposes (ESP) has moved from the periphery to the core of university curricula, particularly in professional fields like architecture. Unlike General English (GE), which aims to provide a broad linguistic foundation, ESP is a specialized branch of English language teaching focused on the specific professional, academic, or job-related requirements of learners.

For future architects, the mastery of English is critical for participating in international competitions, collaborating with global engineering firms, and accessing the latest scientific research. Architecture is a field defined by its own unique technical jargon, discursive practices, and cultural nuances. Therefore, teaching English in this context must go beyond simple grammar and vocabulary; it



must empower students to perform specific job-related functions, such as presenting design stories, writing technical reports, and negotiating with international stakeholders.

However, the transition from GE to ESP is fraught with challenges. Many students perceive ESP as an "ancillary" or "additional burden" compared to their core design studios. Furthermore, ESP practitioners often face a "linguistic gap" between their language expertise and the technical content of the architectural discipline. This article seeks to address these issues by providing a robust pedagogical framework for architectural ESP, drawing on successful models of integration and innovative teaching methodologies.

**Theoretical Foundations of ESP in Architectural Education.** ESP is defined by several "absolute" characteristics: it is tailored to meet the specific needs of the learner; it is related to specific disciplines in terms of content; and it is centered on language appropriate to those activities in terms of syntax, lexicon, and discourse. In the field of architecture, this means the content is not taught as a subject separated from the students' real world; rather, it is integrated into a subject-matter area that is intrinsically motivating because students can immediately apply their learning to their main field of study.

The evolution of ESP has seen a shift from a "product-based" approach, which focused primarily on the technical vocabulary and grammar of a register, to a "process-oriented" approach. In its early stages (1960s), ESP instruction was often limited to lists of isolated words and structural drills. Contemporary pedagogy, however, emphasizes the development of communicative competence—the ability to use language effectively in various social and professional contexts. This involves not just knowing "the profession in English" but mastering "English for the profession".

In architectural ESP, communicative competence is multifaceted. It includes:  
**Grammatical Competence:** The accurate use of sentence patterns.

**Sociolinguistic Competence:** Understanding the social norms and speech etiquette of the architectural community.

**Discourse Competence:** The ability to analyze and produce specific text types, such as project proposals or site analysis reports.

**Strategic Competence:** The ability to use communicative strategies (e.g., paraphrasing, fillers) to maintain a conversation despite linguistic limitations.

**Needs Analysis: The Foundation of Curriculum Design.** The "heart" of any effective ESP course is a thorough needs analysis. For architecture students, this process involves gathering detailed information about the tasks they must perform and the settings in which they will communicate. Educators must investigate the context of future use. For architects, this often includes:

**Oral Communication:** Presenting research stories, engaging in design crits, and participating in site meetings.

**Written Communication:** Writing reports, proposals, and medical or technical documentation.



Receptive Skills: Reading authentic textbooks, journals, and technical manuals.

Architectural students are typically "adult learners" who already possess a general knowledge of English but require specialized proficiency for their career. Needs analysis must account for their diverse backgrounds, prior learning experiences, and heterogeneous proficiency levels. Regular feedback—every four weeks—can ensure that the course remains aligned with students' evolving professional requirements.

To bridge the gap between language and content, architectural ESP utilizes several specialized methodologies. One of them is CLIL, it involves teaching English alongside subject matter. In architecture, this means the subject matter is the main teaching objective, but language is the vehicle for learning. This synergy allows conceptual meaning and linguistic form to be consolidated simultaneously. For instance, understanding the "social model of disability" in architecture is enhanced by learning the specific technical terms used to describe inclusive design.

Second one is TBL, which provides students with real-world tasks that require English to achieve a specific outcome. In architectural ESP, these tasks might include role-playing a patient consultation (for healthcare architecture) or simulating a presentation for an international design competition. This approach encourages students to "learn by doing" and move beyond mere comprehension into the reformulation of facts and concepts.

Research indicates that knowledge of the 2,000 most frequent word families allows a reader to recognize approximately 84% of words in a text. However, for "unassisted pleasurable reading" of technical materials, a threshold of 95% to 98% coverage is required, which necessitates a vocabulary of 5,000 to 8,000 word families. For ESP teachers, the challenge is to prioritize "useful" vocabulary based on frequency and learner needs. Using corpus software like "Range" can help instructors evaluate the vocabulary potential of their teaching materials to ensure they are sufficiently specialized and relevant.

Moving lexical information from short-term (working) memory to permanent long-term memory requires multiple exposures and active manipulation. Effective strategies include:

Using new words in a meaningful context (sentences or stories).

Employing visual aids and vocabulary cards to foster associations.

Recognizing words of Latin origin, which may have translational equivalence in the learner's native language.

The ESP teacher is not merely an instructor but performs five roles: teacher, collaborator, course designer, researcher, and evaluator. ESP teachers often come from backgrounds unrelated to architecture. This can lead to linguistic insecurity when dealing with complex scientific texts. To mitigate this, practitioners must work closely with field specialists (content teachers) to gain insights into the target discipline. This collaboration breaks down disciplinary barriers and ensures that language instruction is grounded in accurate professional content.



Instructors should move away from being "slaves to published textbooks" which may not be perfectly suited to their students' needs. Instead, they should develop materials using real-world texts, such as research articles, blueprints, and professional reports. Authentic materials are highly motivating because they reflect how English is actually used in the global architectural community.

Students often view ESP as an "ancillary" subject. To overcome this, teachers must clearly demonstrate the professional benefits of English proficiency. Emphasizing the development of "soft skills"—such as interpersonal communication and intercultural sensitivity—as part of ESP training can also enhance engagement.

There is a pressing need for specialized training for ESP teachers. Many instructors lack confidence in developing CLT (Communicative Language Teaching) materials or managing technical contexts. Training sessions and international conferences can help local teachers master innovative pedagogical techniques and keep pace with the evolution of the field.

To conclude, it can be said that the role of ESP in preparing future architects is transformative. By moving beyond general grammar and focusing on the specific linguistic, discursive, and professional needs of the architectural discipline, ESP programs empower students to succeed in a globalized world. Effective architectural ESP is built upon the pillars of rigorous needs analysis, authentic material development, and interdisciplinary collaboration between language and content experts.

While challenges such as material development and teacher expertise remain, the integration of methodologies like CLIL and TBL offers a pathway toward more meaningful and motivating language instruction. Ultimately, a well-designed ESP curriculum does not just teach "words"; it fosters the "higher-order thinking skills"—analysis, evaluation, and creation—that are essential for architectural innovation. For the future architect, English is the bridge between a local design concept and its global realization.

### References

1. Muminova, D. (2025). Teaching English for Specific Purposes (ESP) to Students: A Comprehensive Overview. *Journal of International Research*, 3(5), 93-96.
2. Khazratova, Z. M. (2023). English for Specific Purposes (ESP) Approach to Language Teaching. *Scientists.uz*, ISSN 2181-3337.
3. Costa, F., & Mastellotto, L. (2022). The Role of English for Specific Purposes (ESP) in Supporting the Linguistic Dimension in English-medium Instruction (EMI). *CLIL Journal of Innovation and Research*, 5(2), 37-52.
4. Rozanova, Y., Kudryashova, A., & Zamyatina, O. (2018). Computer-Aided Research of ESP Class Materials: Vocabulary Potential and Learning Opportunities. National Research Tomsk Polytechnic University.



5. Khamitova, A. G., et al. (2019). Effective Vocabulary Teaching and Learning Strategies in English for Specific Purposes. L.N. Gumilyev Eurasian National University.
6. Mamadalieva, H. A., & Yagyaeva, E. B. (2020). Improving Reading Comprehension Skills of Learners in Teaching ESP. Fergana Polytechnic Institute.
7. Fayazova, D. S. (2021). Learning Technical Vocabulary with Enhancement Activities in an ESP Course. Bukhara Engineering-Technological Institute.
8. Wahedi, N. (2020). Peculiarities of Communicative Approach in Foreign Language Teaching. Uzbekistan State University of World Languages.
9. Saidvalieva, D. (2021). Teaching Methods of English for Specific Purposes. Tashkent University of Information Technologies.
10. Sattarova, N. A. (2021). Using ESP Vocabulary Teaching and Learning Foreign Languages in ESP Classes. Termez State University.



## MUSTAQIL TA'LIM JARAYONIDA METOKOGNITIV KOMPETENTLIKNI O'RNI

**Muratova Nafisa Baratovna**

Samarqand davlat  
pedagogika instituti o'qituvchisi

**Quldoshova Durdona Otabek qizi**

Samarqand davlat  
pedagogika instituti talabasi

**Annotatsiya.** Mazkur tezisdagi mustaqil ta'lim jarayonida metokognitsiyaning o'rni va ahamiyati yoritilgan. Metokognitiv ko'nikmalarning o'quvchilarning o'z-o'zini boshqarish, nazorat qilish va baholash faoliyatidagi roli tahlil qilingan. Shuningdek, metokognitiv yondashuvning ta'lim samaradorligini oshirishdagi ahamiyati ochib berilgan.

**Kalit so'zlar:** metokognitsiya, mustaqil ta'lim, refleksiya, o'z-o'zini boshqarish, ta'lim samaradorligi.

**Аннотация.** В данном тезисе рассматриваются роль и значение метакогниции в процессе самостоятельного обучения. Проанализирована роль метакогнитивных навыков в самоорганизации, контроле и оценке учебной деятельности учащихся. Также раскрывается значение метакогнитивного подхода в повышении эффективности обучения.

**Ключевые слова:** метакогниция, самостоятельное обучение, рефлексия, самоуправление, эффективность образования.

**Abstract.** This thesis discusses the role and importance of metacognition in the process of independent learning. The role of metacognitive skills in students' self-management, monitoring, and evaluation activities is analyzed. In addition, the importance of the metacognitive approach in improving learning effectiveness is highlighted.

**Keywords:** metacognition, independent learning, reflection, self-regulation, learning effectiveness.

Bugungi globallashuv va raqamli texnologiyalar jadal rivojlanayotgan sharoitda ta'lim tizimiga qo'yilayotgan talablar tubdan o'zgarib bormoqda. Zamonaviy ta'limning asosiy maqsadi nafaqat bilim berish, balki o'quvchilarda mustaqil fikrlash, o'z-o'zini rivojlantirish va o'rganish jarayonini ongli ravishda boshqarish kompetensiyalarini shakllantirishdan iboratdir. Shu nuqtai nazardan, mustaqil ta'lim jarayonining samaradorligini ta'minlashda metokognitsiya muhim ahamiyat kasb etadi. Metokognitsiya o'quvchining o'z fikrlash faoliyatini tahlil qilish, nazorat qilish va baholash qobiliyatini ifodalaydi. Ushbu ko'nikmalar orqali o'quvchi o'z bilimlarini chuqurlashtirish hamda samarali o'rganish strategiyalarini shakllantirish imkoniga ega bo'ladi. Ayniqsa, mustaqil ta'lim sharoitida



metokognitiv ko'nikmalar o'quvchining muvaffaqiyatini belgilovchi asosiy omillardan biri sifatida namoyon bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini modernizatsiya qilish va xalqaro standartlarga moslashtirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar ham yoshlarning mustaqil ta'lim olish kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan. Xususan, Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Zamonaviy bilim va kasb-hunarlarni egallagan, mustaqil fikrlaydigan yoshlarni tarbiyalash bugungi kunning eng dolzarb vazifalaridan biridir" [1] - deb aytgan fikrlari ta'lim jarayonida o'quvchilarning mustaqil faoliyatini rivojlantirish zarurligini ko'rsatadi.

Shuningdek, ta'lim tizimida innovatsion yondashuvlarni keng joriy etish, o'quvchilarning intellektual salohiyatini rivojlantirish va ularni global raqobatga tayyorlash masalalari ham dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi [2]. Bu esa metokognitiv yondashuvning ta'lim jarayonidagi ahamiyatini yanada oshiradi. Shu bois, mustaqil ta'lim jarayonida metokognitsiyaning o'rni va ahamiyatini o'rganish zamonaviy pedagogikaning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Mustaqil ta'lim va metokognitsiya masalalari pedagogika hamda psixologiya fanlarida muhim ilmiy yo'nalishlardan biri sifatida o'rganilmoqda. Tadqiqotlarda o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, o'z-o'zini boshqarishi va reflektiv yondashuv asosida bilim olish ko'nikmalarini rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Jumladan, N. G'aybullayev o'z ilmiy ishlarida mustaqil ta'limning nazariy asoslarini tahlil qilib, o'quvchilarning o'z faoliyatini rejalashtirish va nazorat qilish ko'nikmalarini shakllantirish zarurligini ta'kidlaydi [3]. Muallifning fikricha, mustaqil ta'lim samaradorligi o'quvchining o'z-o'zini boshqarish darajasiga bog'liq bo'lib, bu jarayonda metokognitiv yondashuv muhim o'rin tutadi. Shuningdek, R. Mavlonova tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda ta'lim jarayonida interfaol metodlardan foydalanish orqali o'quvchilarda refleksiya va o'z-o'zini baholash ko'nikmalarini rivojlantirish masalalari yoritilgan [4]. Ushbu yondashuv metokognitiv faoliyatni faollashtirishga xizmat qilib, o'quvchilarning bilimni chuqur o'zlashtirishiga yordam beradi. Bundan tashqari, B. Qodirovning ilmiy izlanishlarida shaxsning psixologik rivojlanishida kognitiv va metokognitiv jarayonlarning o'zaro bog'liqligi asoslab berilgan [5]. Olimning ta'kidlashicha, o'quvchilarda o'z fikrlash jarayonlarini anglash va nazorat qilish qobiliyatini shakllantirish mustaqil ta'lim kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot davomida pedagogika va psixologiyaga oid ilmiy adabiyotlar o'rganilib, metokognitiv yondashuvning nazariy asoslari tahlil qilindi. Shuningdek, mustaqil ta'lim jarayonida o'quvchilarning o'z-o'zini boshqarish, nazorat qilish va baholash faoliyatiga doir ilmiy qarashlar umumlashtirildi.

Tadqiqot jarayonida metokognitiv strategiyalarning o'quv faoliyatidagi o'rni, o'quvchilarning mustaqil fikrlashi va reflektiv yondashuvini rivojlantirishdagi ahamiyati o'rganildi. Metokognitiv yondashuvning ta'lim samaradorligiga ta'siri nazariy jihatdan tahlil qilindi [6]. Tadqiqot natijalari mustaqil ta'lim jarayonida metokognitiv ko'nikmalar muhim ahamiyat kasb etishini ko'rsatdi. Xususan, metokognitiv yondashuv o'quvchilarning o'quv faoliyatini rejalashtirish, monitoring qilish va natijalarni baholash ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat



qilishi aniqlandi. Metokognitsiya o'quvchilarda refleksiya, muammoli vaziyatlarni hal etish va o'z-o'zini boshqarish kompetensiyalarini shakllantirishga yordam beradi. Mustaqil ta'lim jarayonida metokognitiv strategiyalardan foydalanish o'quvchilarning bilimni samarali o'zlashtirishiga hamda ta'lim samaradorligini oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatishi qayd etildi.

Zamonaviy ta'lim tizimida, ayniqsa, raqamli va masofaviy ta'lim rivojlanayotgan sharoitda metokognitiv ko'nikmalarni rivojlantirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Chunki mustaqil ta'lim jarayonida o'quvchi o'z faoliyatini mustaqil tashkil etishi, o'z bilimini nazorat qilishi va baholashi talab etiladi [6]. Ta'lim jarayonida metokognitiv strategiyalarni qo'llash o'quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish, o'z ustida ishlash ko'nikmalarini shakllantirish hamda ta'lim sifatini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Metokognitiv yondashuvni ta'lim amaliyotiga keng joriy etish zamonaviy pedagogikaning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida ahamiyat kasb etadi [8]

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, mustaqil ta'lim jarayonida metokognitsiya o'quvchilarning bilim olish faoliyatini samarali tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Metokognitiv ko'nikmalar orqali o'quvchilar o'z o'quv faoliyatini rejalashtirish, nazorat qilish va baholash imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu esa ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, metokognitiv yondashuv o'quvchilarda mustaqil fikrlash, refleksiya, muammoli vaziyatlarni hal etish hamda o'z-o'zini boshqarish kompetensiyalarini rivojlantiradi. Zamonaviy raqamli sharoitda bunday ko'nikmalar muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Tadqiqot natijalari metokognitiv strategiyalarni ta'lim jarayonida qo'llash o'quvchilarning bilimni chuqur o'zlashtirishiga va mustaqil ta'lim samaradorligini oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatishini ko'rsatdi. Shu bois, ta'lim amaliyotida metokognitiv yondashuvni keng joriy etish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Mirziyoyev Sh.M. Yoshlar ta'limi va tarbiyasiga oid nutqlari. – T, 2020.
2. Mirziyoyev Sh.M. Ta'lim tizimini rivojlantirishga qaratilgan islohotlar haqidagi ma'ruzalar. – Toshkent, 2021.
3. G'aybullayev N. Pedagogika asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 2015.
4. Mavlonova R. Pedagogika nazariyasi va tarixi. – Toshkent: Fan, 2017.
5. Qodirov B. Psixologiya. – Toshkent: O'qituvchi, 2012.
6. Yo'ldoshev J. Pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: O'qituvchi, 2014.
7. Tolipov O'., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning nazariy va amaliy asoslari. – Toshkent: Fan, 2010.
8. Nishonova Z. Umumiy psixologiya. -T: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2018.



## FIZIKA FANI O‘QITISHNI INNOVATSION USULLAR VA ZAMONAVIY TEKNOLOGIYALAR ORQALI TASHKIL ETISH.

**Tojimatov Qobiljon Maxamadtoir o‘g‘li**  
Farg‘ona “Temurbeklar maktabi” harbiy  
akademik litseyi fizika fani o‘qituvchisi  
*qtojimatov@inbox.ru*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada fizika fani o‘qitishga kompyuter texnologiyalarini qo‘llash, ular asosidagi multimediya vositalardan foydalanish natijalari hamda kompyuter modellarini o‘quv jarayonlarida qo‘llash tamoyillari aks ettirilgan.

**Annotation.** This article reflects the application of computer technologies to the teaching of physics, the results of using multimedia tools based on them, and the principles of using computer models in educational processes.

**Аннотация.** В данной статье отражены применение компьютерных технологий в обучении физике, результаты использования мультимедийных средств на их основе, принципы использования компьютерных моделей в учебных процессах.

**Kalit so‘zlar:** Axborot, fizika, ta’lim, texnologiya, elektron darslik, animatsiya, virtual laboratoriya.

Ta’lim jamiyat tomonidan kelajak avlod uchun taqdim etiladigan asosiy xizmatdir. Shuning uchun ta’lim maqsadlari o‘zgaruvchan dunyo talablariga javob berishi kerak. O‘quvchiga yo‘naltirilgan, faol o‘rganish kontsepsiyasi zamonaviy o‘quvchilar uchun o‘rganishni eng yaxshi rag‘batlantiradigan empirik tasdiqlangan o‘qitish amaliyoti sifatida tadqiqot adabiyotlarida keng qo‘llab-quvvatlanadi. Bu ta’limning konstruktivistik nuqtai nazaridan kelib chiqadiki, u o‘quvchi bilimni faol ravishda qurishi kerak va o‘qituvchi bilim manbai emas, balki vositachi rolini o‘z zimmasiga olishi kerakligini ta’kidlaydi. Konstruktivistik nuqtayi nazaridan ko‘rinib turibdiki, o‘quvchiga yo‘naltirilgan ta’lim odatda faol ishtirok etish va izlanish uslubidagi o‘qitish-ta’lim usullariga urg‘u beradi, bunda o‘quvchilar o‘qitish rahbarligi ostida o‘z tushunchalarini samarali qurishlari mumkin. O‘quvchiga yo‘naltirilgan ta’lim, shuningdek, o‘qituvchilar o‘z kuchlarini o‘quvchilarning ehtiyojlariga qaratishni, nafaqat samarali o‘qitish va o‘qitish usullarini taqdim etishni, balki ta’lim amaliyotini zamonning ta’lim maqsadlariga doimiy ravishda moslashtirishni ham talab qiladi.

Yangi ta’lim standartlari fikrlash, ijodkorlik va ochiq muammolarni hal qilish kabi yuqori darajadagi ko‘nikmalarga urg‘u beradi. Yigirma birinchi asrning muhim ko‘nikmalarini aniqlash bo‘yicha jiddiy tadqiqot dalillari mavjud bo‘lsada, tegishli ko‘nikmalarning vaqt o‘tishi bilan qanday o‘zaro ta’siri va rivojlanishiga qaratilgan tadqiqotlar yetishmaydi. Umuman butun dunyoda ta’lim maqsadlari o‘quvchilarning yigirma birinchi asrning ishchi kuchi va global iqtisodiyotiga muvaffaqiyatli hissa



qo'shish uchun zarur bo'lgan bilim va fazilatlarni egallashiga urg'u berish uchun ishlab chiqilgan.

Hozirgi zamonning ta'lim maqsadlariga mos ravishda, fizika ta'limi sohasidagi tadqiqotlar chuqur o'rganishni targ'ib qilish va parallel ravishda yuqori darajadagi fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish bo'yicha kelajakdagi ishlar uchun kontekstni ta'minlash uchun qisqacha ko'rib chiqiladi. Yigirma birinchi asrga oid ko'nikmalar va fizika ta'limiga oid adabiyotlarni sintez qilish orqali kelajakdagi tadqiqotlar uchun aniq belgilangan ta'lim va tadqiqot maqsadlari to'plami taklif etiladi.

Elektron vositalarni ta'lim muassasalarida fizika fanini o'qitishda fizik jarayonlarni, elektron darsliklar, animatsiyalar, virtual laboratoriya va tajribalarni tinglovchilarga dars davomida ko'rsatib borilmoqda.

Fizika fanini o'qitishga kompyuter texnologiyalarini qo'llash va ular asosidagi multimediyalar vositalardan foydalanish pedagogik va psixologik nuqtai nazardan katta ahamiyatga ega bo'lib, quyidagi muhim natijalarga olib kelishi ma'lum:

- O'quvchilarning mustaqil ta'lim olish imkoniyatlari ko'payadi va vaqt tanqisligi muammosi kamayadi;
- O'quv-tarbiya jarayoni faollashib, dars samaradorligi oshadi;
- O'quv materiallarining turli shaklda uzatilishi tinglovchilarning diqqatini o'ziga tortadi;
- Yuqori darajadagi ko'rgazmalilik, tinglovchida o'rganilayotgan fanga nisbatan katta qiziqish uyg'otadi;
- O'rganilgan o'quv materialining uzoq muddatga xotirada saqlanishini ta'minlaydi;

Ta'lim jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalardan foydalangan holda darslarni tashkillashtirish uchun ma'lum bir shart-sharoitlar va texnik vositalar mavjud bo'lish kerak. Axborot texnologiyalarning imkoniyatidan foydalangan holda kompyuter modellarini o'quv jarayonlarida foydalanish o'zining samarasini beradi. Kompyuter modellarini o'quv jarayonlarida qo'llash tamoyillari quyidagilar:

- ish natijasida tinglovchi model yordamida hodisalarni tavsiflovchi kattliklarning ham sifat, miqdor bog'lanishlarini bilishlari kerak;
- kompyuter dasturi tajribani o'tkazish mumkin yoki tajriba kuzatib bo'lmas darajada harakatlangan paytda qo'llanilishi lozim;
- kompyuter dasturi o'rganilayotgan jarayon kattaligini aniqlashda yoki yechilayotgan masalaning illyustratsiyasida yordam beradi;

Fizik jarayonlarni kompyuterda modellashtirish uchun axborot texnologiyada fizik bilimlardan keng foydalaniladi. Murakkab jarayonlarni o'rganishda modellarning roli katta. Kompyuter yordamida soddalashtirilgan model ishga tushiriladi. Avval boshlang'ich shartlari, so'ng turli qadam bilan xisoblash amalga oshiriladi. Olingan natijalar kompyuter xotirasida fayl shaklida saqlanadi.

Modellashtirishning o'ziga xos muhim tomonlari shundaki, turli xil asboblarni tayyorlash shart emas, hodisalarni jonli va tabiiy ko'rinishda tasvirlash, tajribani oz fursat ichida istalgan paytda takrorlash, kuzatish qiyin bo'lgan va umuman



kuzatilishi mumkin bo'lmagan jarayonlarni ham namoyish eta olish imkoniyatiga ega bo'ladi. Agarda dastur ishlashi biron-bir sabab bilan to'xtab qolsa, shu yerda ishga tushirish iloji mavjud. Natijalarning taxlilini aksariyat xolatlarda ikkinchi qadamda amalga oshirish kuzatiladi. Buning uchun boshqa dastur ishga tushirilib, uning yakuniy natijasini grafik shaklida monitor ekranida paydo bo'lishi bilan yakunlanadi. Hozirda bunday qadamlar zarur bo'lmay qoldi. Natijalar olinib, ularning taxlili qo'shimcha ekranda o'z aksini topadi. Kompyuter dasturini qo'llash orqali o'tilgan mashg'ulotlar oddiy mashg'ulotlardan ko'ra yaxshiroq samara beradi. Fizika fanini o'qitishda kompyuter dasturlaridan foydalangan holda, animatsiyali mashg'ulotlar olib borish o'qituvchi va tinglovchiga qulaylik yaratib, fizik jarayonlarning yuz berish mexanizmlari va bosqichlarini tushunib yetishda yaxshi samara beradi. Fizik jarayonlar mexanizmlarini, ularni ma'ruza, amaliy va ayniqsa tajriba mashg'ulotlarida namoyish etish va bu holatlarni kompyuter texnologiyalariga tayangan holda olib borish o'qitish jarayonida tinglovchilarga bilim berish va fan asoslariga doir ko'nikmalar hosil qilish samaradorligini oshiruvchi omillari bo'lib hisoblanadi. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, yuqorida keltirilgan dasturlardan ma'ruza jarayonida qo'llash natijasida qisqa vaqt ichida kerakli axborotni tinglovchi va o'quvchilarga ko'rgazmali o'tkazish imkoniyati bor. Bu esa o'quv samaradorligini oshirishning muhim omili bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa maqsadida shuni aytish joizki, fizika fanini o'qitish jarayonining samaradorligini oshirishda AKT vositalariga asoslangan innovatsion usullar va dasturiy ta'minotlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu fizikaning mohiyatini kamaytirmasdan, balki uni oson tushunishga imkoniyati paydo bo'lishini ta'minlaydi. Bu esa o'z navbatida ta'lim sifati va samaradorligini oshirishning muhim omilidir.

### **Adabiyotlar**

1. M.Kurbonov, D.Begmatova "Fizika o'qitish uslubi fanidan majmua" 2015
2. M.D.Jo'raev.."Fizika o'qitish metodikasi" T.TDPU.,2013
3. Buabeng, I. (2018). Physics classroom interactions: Teaching strategies and practices. *Journal of Research in Science, Mathematics and Technology Education*, 1(3), 311-328.
4. Albion, P., Jamieson-Proctor, R., & Finger, G. (2010). Auditing the TPACK competence and confidence of Australian teachers: The teaching with ICT audit survey (TWICTAS). Paper presented at the 21st International



## СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ТРАДИЦИОННОГО И ГУМАННОГО ПОДХОДОВ В ОБУЧЕНИИ КРИТИЧЕСКОМУ МЫШЛЕНИЮ.

Давыдова Руфина Артуровна

Преподаватель международного университета  
«Tashkent International University of Education»  
t454@tiue.uz

**Аннотация:** В данной статье представлен сравнительный анализ формирования критического мышления в традиционных и гуманных подходах в обучении. Обоснован тот факт, что критическое мышление представляет собой многокомпонентное образование, которое включает в себя навыки рассуждения, анализа и интерпретации информации, постановку вопросов, аргументацию, рефлексию.

**Ключевые слова:** критическое мышление, традиционный подход, гуманный подход, оценивание, учитель, ученик, рефлексия, аргументация.

### Введение

В современной системе образования критическое мышление рассматривается как необходимая метакомпетенция, которая позволяет обрабатывать и анализировать поступающую информацию, решать и принимать важные решения, осознавать последствия своих поступков и прочее. Но зачастую на практике мы можем наблюдать за декларативным характером значимости критического мышления и реальным результатом. В частности, обучающиеся могут вполне успешно решать задачи, требующие логического или абстрактного мышления, но в дискуссиях или же в обсуждениях испытывать трудности, связанные с умением выражать собственное мнение, отстаивать личную позицию и находить логические противоречия в словах собеседника. Данная проблематика становится наиболее актуальной при традиционной модели обучения, которая ориентирована на контроль, заучивание и воспроизведение готовых ответов.

В данной статье выполнен сравнительный анализ гуманного и традиционного подходов в формировании критического мышления. По мнению исследователя Николаевой Е.К. «Под традиционным обучением принято понимать такой вид обучения, который направлен педагогом на передачу знаний ученикам в подготовленной форме, предназначенных для усвоения воспроизводящего типа, где преподаватель есть одним главным действующим человеком в учебном процессе» [1, с. 175]. Таким образом, в традиционном подходе основное внимание уделяется этапам объяснения, закрепления и проверки знаний под руководством главного субъекта образовательного процесса – педагогом. В противовес традиционному, гуманный подход понимается как организация обучения, в которой ученик выступает главным субъектом обучения, а «учитель - посредник между



учеником и его культурой, между учеником и жизнью, между его конкретными возможностями на сегодня и учебным материалом, тоже предназначенным на сегодня» [2]. Иными словами, учащиеся обучаются в диалогичной, психологически безопасной образовательной среде, которая способствует развитию самостоятельности, осознанности, рефлексивности.

**Целью** настоящего исследования является сопоставление традиционного и гуманного подхода к формированию критического мышления, выявление их различий по ключевым педагогическим параметрам, кроме того, выявить условия, при которых развитие критического мышления становится более эффективным. **Задачами** данного исследования являются: определение традиционного и гуманного подхода обучения; уточнение содержание понятия «критическое мышление» и выделить его основные компоненты; описание традиционной и гуманной модели развития критического мышления.

**Обзор литературы и методология.** В настоящем исследовании были использованы такие методы, как: анализ научной и методической литературы, сравнительно-сопоставительный анализ, педагогическое моделирование. В статье нами были использованы исследования таких ученых, как: Майкл Скривен и Ричард Пол, Дуайер К.П, Лифанова Т. Ю, Султанова М.Т, Амонашвили Ш.А. и другие.

**Результаты и обсуждения.**

Определение понятия критического мышления в различных научно-исследовательских работах имеет незначительные отличия. К примеру, такие исследователи, как Майкл Скривен и Ричард Пол под критическим мышлением понимают «интеллектуально организованный процесс активного и умелого концептуализации, применения, анализа, синтеза и/или оценки информации, полученной или полученной в результате наблюдения, опыта, размышления, рассуждения или коммуникации, в качестве руководства к убеждениям и действию» [3]. Исследователь Дуайер К.П описывает как «метакогнитивный процесс, состоящий из ряда навыков и установок, который посредством целенаправленного, саморегулирующегося рефлексивного суждения увеличивает шансы нахождения логического решения проблемы или обоснованного заключения в споре» [4]. Лифанова Т. Ю. выдвигает собственное понимание определения критического мышления, которое характеризуется как «процесс оценки достоверности, точности или ценности чего-либо, способность оценки искать и находить причины и альтернативные точки зрения, воспринимать ситуацию в целом и изменить свою позицию на основе фактов и аргументов» [5, с. 8]. Наш отечественный исследователь Султанова М.Т акцентирует внимание на то, что «критическое мышление — это способность воспринимать информацию не как данность, а как предмет анализа, в процессе которого учитываются различные точки зрения, оцениваются доказательства и делаются логические выводы» [6, с. 215]. Все вышеизложенные определения объединяет тот факт, что критическое



мышление представляет собой совокупность навыков, которые позволяют анализировать и интерпретировать информацию, оценивать достоверность источников, умение аргументированно высказывать собственное мнение и принимать решение. Далее целесообразным представляется рассмотрение поддержки или ограничение навыков критического мышления в рамках традиционного и гуманного подхода к обучению.

**Традиционный подход.** Как было установлено выше, данный подход опирается на главенствующую роль учителя в образовательном процессе, который задает норму знаний и оценивает степень успешности её освоения. Задачей учеников является в точности запоминать, воспроизводить и заучивать готовый материал, зачастую без детального осмысления. В данном подходе развитие критического мышления зачастую сводится к формированию отдельных навыков, посредством заданий направленных на выявление ошибок в тексте, выбор правильного утверждения и так далее. Те навыки, которые связаны с постановкой вопросов, обсуждения, аргументирования и ведения дискуссии развиты не на должном уровне. В традиционном подходе существует риск превращения критического мышления в формальную процедуру, где учащиеся могут методом подбора угадывать правильные и приемлемые ответы, без формирования осознанного суждения. Как подчеркивает Султанова М.Т. в процессе обучения «важно чтобы они умели не только запоминать факты, но и задавать вопросы, искать ответы, оценивать достоверность источников и анализировать различные подходы к решению задачи» [6, с. 215].

**Гуманный подход.** Данный подход опирается на принципы и установки гуманной педагогики, центром которой является личность ребенка с его правом на уважение, любовь, заботу, поддержку, безопасность. Следовательно, в гуманном образовательном процессе для формирования критического мышления необходимы специальные условия, а именно: уважительное отношение, культура общения, право на ошибку и не осуждения. Учитель здесь не является главным источником истины и знаний, скорее организатором мыслительного процесса, поскольку он создаёт проблемные ситуации для осмысления, помогает формулировать вопросы, поддерживает аргументацию и самопознание, а также создает условия, при которых учащиеся вступают в диалог и учатся культуре общения.

Рассмотрев содержание критического мышления и основополагающих установок традиционного и гуманного подходов к обучению, мы смогли обозначить основные различия в понимании елей, роли учителя и организации учебного взаимодействия. Для дальнейшего сопоставления нам необходимо задать методологический характер анализа и выделить ключевые параметры, по которым будет проводиться сравнение. А именно:

1. Цели и результаты обучения;
2. Роль учителя и ученика;
3. Тип учебных задач;



4. Организация коммуникации между учеником и учителем (диалог/монолог);
5. Инструменты оценивания;

**Цели и результаты обучения.** В традиционном подходе результатом обучения является усвоение необходимых знаний, развитость определенных навыков и умений. Цель обучения сводится к освоению определенных способов рассуждения и умения формулировать корректные выводы. Гуманный подход акцентирует внимание не столько на умении рассуждать, сколько на качестве этих суждений.

**Роль учителя и ученика.** В традиционном подходе главенствующую роль занимает учитель, который контролирует, управляет, оценивает и устанавливает правила, а ученик слушается, запоминает, воспроизводит и демонстрирует переданные знания. Гуманный подход, напротив, выстраивает образовательный процесс вокруг ученика, который не только отвечает, но и смело задает вопросы, может сомневаться, проверять данные и ошибаться без страха перед публичным унижением и высмеиванием. Для формирования критического мышления последнее условие является необходимым, поскольку в атмосфере страха и психологического давления не представляется возможным стимулировать стремление к поиску истины, сомнениям и вопросам.

**Тип учебных задач.** Традиционный подход зачастую опирается на репродуктивные и полурепродуктивные задания, в которых учащимся необходимо ответить на вопросы по изложенному материалу, заполнить таблицы, схемы по образцу, выбрать верное утверждение и так далее. Гуманный подход использует кейсовые и проблемные вопросы, дискуссии, небольшие исследования, проектная деятельность, то есть всё то, что направлено на формирование аргументированного мнения и формирования личностной позиции. Для формирования критического мышления «необходимо использовать методы, направленные на активизацию мышления, а также поддерживать атмосферу доверия и открытости, в которой учащиеся не боятся высказывать свои мысли и сомнения» [6, с. 215].

**Организация коммуникации между учеником и учителем (диалог/монолог).** В традиционной модели коммуникация в основном выстраивается в форме монолога с некоторыми элементами диалога, который имеет следующую структуру «вопрос-ответ-оценка», в которой учитель задает вопрос, ученик отвечает, учитель оценивает. Гуманная модель использует диалоговые методы, где беседа используется для развития навыков аргументации, а существующие правила культуры общения предотвращают унижения, конфликты и переход «на личности».

**Оценивание критического мышления.** В традиционном подходе в процессе оценивания акцент делается на конечном результате усвоенных знаний, в частности «знает/ не знает», «правильно/ неправильно» и прочее. При гуманной модели упор делается не только на результате, а на сам процесс обучения, в котором проявляются различные способности учащихся.



### Заклучение.

Подводя итоги, отметим, что проведенный нами сравнительный анализ констатирует тот факт, что для эффективного развития критического мышления необходимым является не только определенные задания, но и определенные педагогические условия, которые выражены ролью учителя, культурой общения, способом оценивания и отношением к ошибке. Если традиционный подход даёт управляемость и измеримость, зачастую без диалога и поддержки часто приводит к формализму, то гуманный подход создает условия для самостоятельности и самокоррекции, но требует четкой структурированности диалога и строгой ясности критериев качества рассуждения.

### Список литературы:

1. Николаева Екатерина Константиновна ПРОБЛЕМА ТРАДИЦИОННОГО ОБУЧЕНИЯ В СОВРЕМЕННОЙ ШКОЛЕ // Скиф. 2021. №2 (54). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/problema-traditsionnogo-obucheniya-v-sovremennoy-shkole> (дата обращения: 01.06.2026).
2. Амонашвили Ш.А., Амонашвили П.Ш. Развитие личности ребенка и достижение высоких результатов в осуществлении образовательных стандартов на основах гуманной педагогики. - М.: Педагогический университет «Первое сентября», 2017
3. The Foundation for Critical Thinking. Defining Critical Thinking. [Электронный ресурс]. – Режим доступа: URL: <https://www.criticalthinking.org/pages/defining-critical-thinking/766> (дата обращения 30.05.26)
4. Dwyer C. P. Teaching critical thinking //The SAGE encyclopedia of higher education. – 2020. – Т. 4. – С. 1510-1512.
5. Лифанова, Т.Ю. Критическое мышление: учеб. пособие / Т.Ю. Лифанова. – Алматы: Казах. ун-т, 2015. – 178 с.
6. Султанова М. Т. Формирование критического мышления у школьников // Ta'lim, tarbiya va innovatsiyalar jurnali. 2025. Т. 2, № 1.



## BIRINCHI SINIF O'QUVCHILARINI 7D TEXNOLOGIYASI ASOSIDA O'QISH DARSLARINI TASHKIL ETISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

**Umrzoqova Navbaxor Shavkatovna**

Namangan viloyati Norin tuman

19-umumta'lim maktab

Boshlang'ich ta'lim fani o'qituvchisi

[navbaxor@gmail.com](mailto:navbaxor@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini rivojlantirishda 7D texnologiyasidan foydalanishning ahamiyati haqida ma'lumotlar keltirilgan, Shuningdek, birinchi sinf o'quvchilarining yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda o'qish darslarini samarali tashkil etish yo'llari hamda 7D texnologiyasining bosqichlari misollar asosida tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** Boshlang'ich ta'lim, o'qish savodxonligi, 7D texnologiyasi, innovatsion metodlar, interfaol ta'lim, o'quvchi faolligi, kashf etish, aniqlash, muhokama.

Bugungi kunda ta'lim tizimida o'quvchilarning mustaqil fikrlash, matni anglash va tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, birinchi sinfda o'qish darslarini qiziqarli va samarali tashkil etish o'quvchilarning keyingi ta'lim bosqichlaridagi muvaffaqiyatiga zamin yaratadi. Shu sababli zamonaviy pedagogik texnologiyalarni dars jarayoniga tatbiq etish muhim ahamiyat kasb etadi. Shunday texnologiyalardan biri 7D texnologiyasidir.

7D texnologiyasi o'quvchilarni dars jarayoniga faol jalb qilish, ularning bilimlarni mustaqil egallashiga yordam berish va o'rganilgan mavzuni chuqur o'zlashtirishga xizmat qiladi. Ushbu texnologiya quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

1. Kashf etish-bu bosqichda o'quvchilarning mavzuga qiziqishi uyg'otiladi. O'qituvchi rasm, video yoki qiziqarli savollar orqali yangi mavzuga kirish qiladi. Masalan, "Bahor keldi" mavzusini o'rganishda bahor fasliga oid rasmlar namoyish etiladi va o'quvchilardan rasmlar yuzasidan fikrlar so'raladi.

2. Aniqlash-o'quvchilar mavzuning asosiy tushunchalari bilan tanishadilar. Yangi so'zlar va iboralar izohlanadi. Bu bosqichda lug'at ustida ishlash muhim o'rin tutadi.

3. Muhokama qilish- bu o'quvchilar kichik guruhlarda yoki juftliklarda mavzu bo'yicha fikr almashadilar. Muhokama jarayoni bolalarning og'zaki nutqini rivojlantirishga yordam beradi.

4. Rivojlantirish- bosqichda matn ustida ishlash amalga oshiriladi. O'quvchilar matni o'qiydilar, savollarga javob beradilar va asosiy g'oyani aniqlaydilar. Turli topshiriqlar orqali mavzu mustahkamlanadi.



5. Namoyish etish- bu o'quvchilar egallagan bilim va ko'nikmalarini amalda ko'rsatishi. Masalan, matn mazmunini qayta hikoya qilish, rollarga bo'lib o'qish yoki sahnalashtirish ishlari tashkil etiladi.

6. Chuqurlashtirish: Bu bosqichda mavzu yuzasidan qo'shimcha savollar va ijodiy topshiriqlar beriladi. O'quvchilar matn mazmunini hayotiy tajribalari bilan bog'laydilar va kengroq fikr yuritishga o'rganadilar.

7. Baholash: Dars yakunida o'quvchilarning bilimlari baholanadi. Baholash og'zaki savol-javob, test topshiriqlari yoki refleksiya usullari orqali amalga oshiriladi. O'quvchilar o'z faoliyatlarini tahlil qiladilar va xulosalar chiqaradilar.

7D texnologiyasining afzalliklari:

Birinchi sinf o'qish darslarida 7D texnologiyasidan foydalanish quyidagi natijalarni beradi:

- o'quvchilarning darsga qiziqishini oshiradi;
- mustaqil va tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi;
- o'qish va tushunish ko'nikmalarini shakllantiradi;
- nutq madaniyatini rivojlantiradi;
- o'quvchilarning ijodiy faolligini kuchaytiradi;
- ta'lim samaradorligini oshiradi.

Shuningdek, ushbu texnologiya o'qituvchiga har bir o'quvchining individual imkoniyatlarini hisobga olish va differensial yondashuvni qo'llash imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, birinchi sinf o'quvchilarini 7D texnologiyasi asosida o'qitish o'qish darslarining samaradorligini oshirishda muhim vosita hisoblanadi. Mazkur texnologiya o'quvchilarni faol o'quv faoliyatiga jalb etadi, ularning o'qish savodxonligi va kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantiradi. Natijada o'quvchilar matnni ongli o'qish, tahlil qilish va o'z fikrlarini erkin ifodalash ko'nikmalariga ega bo'ladilar. Shu bois boshlang'ich ta'lim amaliyotida 7D texnologiyasidan keng foydalanish maqsadga muvofiqdir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi. Boshlang'ich ta'lim davlat ta'lim standarti. Tolipov O'. Usmonboyeva M.
2. Pedagogik texnologiyalar: nazariya va amaliyot. – Ishmuhamedov R.
3. Innovatsion pedagogik texnologiyalar. – Toshkent.
4. Boshlang'ich ta'lim bo'yicha zamonaviy metodik tavsiyalar va o'quv qo'llanmalar.



## AYLANMA HARAKATGA DOIR MASALALAR YECHISHNING AFZALLIKLARI VA ULARNING AMALIY TADBIQI.

**Obidjonov Islomjon Mahmudjon o'g'li**

Farg'ona "Temurbeklar maktabi" harbiy  
akademik litseyi fizika fani o'qituvchisi

***Annotatsiya.** Ma'lumki mexanika fanini o'qitishning dastlabki bosqichi kinematika bo'limidan boshlanadi. O'quvchilar kinematika bo'limini qanchalik puhta o'zlashtirsa fanning keyingi bo'limlarini ham oson o'zlashtiradi. Ilmiy maqolamda masalalarni yechish bilan birga ulardan kundalik turmushimizda fodalanishni ham ko'rib chiqdik. Hayotiy masalalar o'quvchilar ongida fikrlash doirasini kengaytiradi, mulohaza qilishda yordam beradi.*

***Tayanch so'zlar.** Aylanma harakat, kinematika, harakat tenglamasi, skalyar, tezlik, koordinata, burchakli tezlik, burchakli ko'chish.*

Yangi O'zbekistonda yurtimizda ta'lim sifatini oshirish bo'yicha ko'plab islohotlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa aniq fanlarni o'qitish, ularni o'zlashtirishga katta e'tibor berilmoqda. Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev Yangi O'zbekistonning bugungi asosiy g'oyasi nimadan iborat ekaniga e'tibor qaratib, bobolarning armonlarini amalga oshirish barchamiz uchun ham qarz, ham farz ekanini ta'kidlaydi: "Agar buyuk bobolarimizning ruhini shod qilib, jadid bobolarimiz qilgan ishlarning davomchilari bo'lib, bugungi g'oyamizni — Yangi O'zbekistonning ostonasi maktabdan boshlanadi, degan ulug' harakatni amalga oshirishda belimizni mahkam bog'lab harakat qilsak, albatta, natija bo'ladi". "Agar tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, dunyodagi deyarli barcha kashfiyot va texnologiyalarni yaratishda fizika fani fundamental asos bo'lganini ko'ramiz. Haqiqatan ham, fizika qonuniyatlarini chuqur egallamasdan turib, mashinasozlik, elektrotexnika, IT, suv va energiyani tejaydigan texnologiyalar kabi bugun zamon talab qilayotgan sohalarida natijaga erishib bo'lmaydi"[1].

Ma'lumki kinematika bo'limida ko'plab vektor kattaliklar bilan ish ko'riladi va bu kattaliklar orasidagi bog'lanishlar ham vektor ko'rinishidagi ifodalardan iborat, shu bilan birga bu kattaliklarni skalyar ko'rinishida ifodalash orqali ham ular orasidagi bog'lanish ifodalarini, o'zgarish qonuniyatlarini (vaqt bo'yicha, koordinata bo'yicha, boshqa bir kattalikka bog'liq ravishda...) yozish mumkin. Vektor ko'rinishidagi ifodalar skalyar ko'rinishidagi ifodalarga qaraganda uch marta ko'proq ma'lumot beradi.

Ko'rib turganingizdek masalalar yechishda skalyar ko'rinishdagi ifodalarga o'tib yechim izlashda tenglamalar soni uch marta ortib ketadi va bu katta noqulayliklar keltirib chiqarishi mumkin va eng muhimi ifodalar soni ortganda o'quvchining xato qilish ehtimoli ham ortadi. Shuning uchun kinematika bo'limidagi aksariyat masalalarni yechishda vektor ko'rinishidagi ifodalardan foydalangan holda oson yechim olish mumkin. Ayniqsa olimpiada masalalarini yechishda bu juda qo'l




keladi. Quyida ushbu usullardan foydalanishni aniq masalalar misolida tushuntirib o'tamiz:

**9.33.** Mushuk radiusi 5 m bo'lgan aylana bo'ylab, sichqonni orqasidan 11 m/s tezlik bilan quvlaydi. Dastlab sichqon va mushuk orasidagi masofa aylana yoyining  $\frac{1}{8}$  qismi uzunligiga teng bo'lgan paytda, sichqon 14 m/s tezlik bilan yugura boshladi. Qancha vaqtdan so'ng sichqon mushukdan aylananing yarmiga teng masofaga uzoqlashadi?

**Berilgan:**  $R = 5 \text{ m}$  ;  $v_1 = 11 \text{ m/s}$  ;  $\varphi_{01} = 0$  ;  $\varphi_{02} = \frac{\pi}{4}$  ;  $v_2 = 14 \text{ m/s}$  ;  $\Delta\varphi = \pi$  ;  $t = ?$

Mushuk va sichqonning aylana bo'ylab harakatdagi burilish burchagining vaqtga bog'liqlik tenglamasini tuzamiz:



$$\varphi_1 = \varphi_{01} + \omega_1 \cdot t ; \varphi_2 = \varphi_{02} + \omega_2 \cdot t ;$$

$$\omega = \frac{v}{R} \Rightarrow \omega_1 = \frac{v_1}{R} ; \omega_2 = \frac{v_2}{R}$$

$$\varphi_1 = \frac{v_1}{R} \cdot t \quad (1) ; \varphi_2 = \frac{\pi}{4} + \frac{v_2}{R} \cdot t \quad (2)$$

$$\Rightarrow$$

$$\Delta\varphi = \varphi_2 - \varphi_1 \Rightarrow \pi = \frac{\pi}{4} + \frac{v_2 - v_1}{R} \cdot t$$

$$\Rightarrow$$

$$t = \frac{3\pi R}{4(v_2 - v_1)} = \frac{3 \cdot 3 \cdot 14 \cdot 5}{4 \cdot (14 - 11)} = 4 \text{ s}$$

**2- usul:** Mushuk radiusi 5 m bo'lgan aylana bo'ylab, sichqonni orqasidan 11 m/s tezlik bilan quvlaydi. Dastlab sichqon va mushuk orasidagi masofa aylana yoyining  $\frac{1}{8}$  qismi uzunligiga teng bo'lgan paytda, sichqon 14 m/s tezlik bilan yugura boshladi. Qancha vaqtdan so'ng sichqon mushukdan aylananing yarmiga teng masofaga uzoqlashadi?

**Berilgan:**  $R = 5 \text{ m}$  ;  $v_1 = 11 \text{ m/s}$  ;  $\check{S}_0 = \frac{1}{8} \cdot 2\pi R$  ;  $v_2 = 14 \text{ m/s}$  ;  $\check{S} = \frac{1}{2} \cdot 2\pi R$  ;  $t = ?$

$$\Delta\check{S} = v_n \cdot t ; v_n = v_2 - v_1 \Rightarrow \Delta\check{S} = (v_2 - v_1) \cdot t \quad (1)$$


$$\Delta\check{S} = \check{S} - \check{S}_0 = \frac{1}{2} \cdot 2\pi R - \frac{1}{8} \cdot 2\pi R \Rightarrow \Delta\check{S} = \frac{3\pi R}{4} \quad (2)$$

$$(1)=(2) \Rightarrow (v_2 - v_1) \cdot t = \frac{3\pi R}{4} \Rightarrow t = \frac{3\pi R}{4(v_2 - v_1)} = \frac{3 \cdot 3 \cdot 14 \cdot 5}{4 \cdot (14 - 11)} = 4 \text{ s}$$

**9.34.** Radiusi 20 sm bo'lgan slindr tezliklari  $v_1 = 15 \text{ sm/s}$  va  $v_2 = 5 \text{ sm/s}$  bo'lgan ikki paralel va yog'och orasida joylashgan (rasmga qarang). Sitrpanish yo'q. Slindr qanday burchak tezlik bilan aylanadi?



Berilgan:  $R = 0.2 \text{ m}$  ;  $v_1 = 0.15 \text{ m/s}$ ;  $v_2 = 0.05 \text{ m/s}$  ;  $\omega = ?$



Ikkinchi yog'ochning slindrga urinish nuqtasi (B nuqta) bilan bog'langan sanoq sistemasiga nisbatan A nuqtaning harakatini ko'raylik. A nuqtani B nuqta atrofida  $2R$  radiusli aylana bo'ylab harakatlanmoqda deb qarash mumkin (B nuqta oniy aylanish markazi).

$$v' = v_1 + v_2 \quad (1) ; R' = 2R \quad (2) ; v = \omega R \quad (3)$$

$$(3) \Rightarrow \omega = \frac{v'}{R'} = \frac{v_1 + v_2}{2R} = \frac{0.15 + 0.05}{2 \cdot 0.2} = 0.5 \text{ rad/s}$$

**9.35.** Hozir soat  $12^{00}$  bo'ldi. Qanday minimal vaqtdan so'ng minut va soat strelkalari qarama qarshi tomonlarga yo'nalgan bo'ladi?

Berilgan: soat  $12^{00}$  ;  $\varphi_{01} = 0$  ;  $\varphi_{02} = 0$  ;  $\omega_2 = 12\omega_1$  ;  $T_2 = 60 \text{ minut}$  ;  $\Delta\varphi = \pi \cdot t = ?$



Soat va minut strelkalari burilish burchaklarining vaqtga bog'liqlik tenglamasini tuzamiz:

$$\varphi_1 = \varphi_{01} + \omega_1 \cdot t ; \varphi_2 = \varphi_{02} + \omega_2 \cdot t ; \Delta\varphi = \varphi_2 - \varphi_1 \Rightarrow \Delta\varphi = \omega_2 \cdot t - \omega_1 \cdot t \Rightarrow$$



$$\Delta\varphi = \omega_2 \cdot t - \frac{\omega_2}{12} \cdot t \Rightarrow \Delta\varphi = \frac{11\omega_2}{12} \cdot t \Rightarrow t = \frac{12\Delta\varphi}{11\omega_2} \Rightarrow t = \frac{12\Delta\varphi T_2}{11 \cdot 2\pi} =$$

$$\frac{12 \cdot \pi \cdot 60 \text{ minut}}{11 \cdot 2\pi} = \frac{360}{11} \text{ minut} = 32.7(27) \text{ min}$$

**9.36.** Ikki moddiy nuqta aylana bo‘ylab, aylananing bir nuqtasidan qarama-qarshi tomonga bir vaqtda harakat boshladi. Birinchi nuqtaning aylanish davri 3 s, ikkinchisini aylanish davri 6 s bo‘lsa, ular qancha vaqtdan so‘ng uchrashadi?

**Berilgan:**  $T_1 = 3 \text{ s}$  ;  $T_2 = 6 \text{ s}$  ;  $t = 0$  da  $\vec{v}_1 \uparrow \downarrow \vec{v}_2$  ;  $\varphi_1 + \varphi_2 = 2\pi$  ;  $t = ?$

$$\omega = \frac{2\pi}{T} ; \varphi_1(t) = \omega_1 \cdot t \Rightarrow \varphi_1 = \frac{2\pi}{T_1} \cdot t ; \varphi_2 = \frac{2\pi}{T_2} \cdot t \Rightarrow$$

$$\frac{2\pi}{T_1} \cdot t + \frac{2\pi}{T_2} \cdot t = 2\pi \Rightarrow t = \frac{T_1 T_2}{T_1 + T_2} = \frac{3 \cdot 6}{3 + 6} = 2 \text{ s}$$

Aylanma harakat masalalarini ko‘rib chiqqanimizdek, masalalarni harakat tenglamasi orqali ishlash, qiyin masalalarni oson yechimga olib keladi. harakat tenglamasi ko‘rinishidagi ifodalarni afzalliklari har bir bo‘limdagi masalalarni yechishda, mavzuni to‘liqroq tushunishda, o‘quvchiga sodda holatda yetkazib berishda katta natija beradi.

### Adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi 28.08.2023.
2. Сборник задач по физике. 10-11 классы/Авт.-сост.Е.Г.Московкина, В.А.Волков.-М.:ВАКО,2017.



PODSTANSIYALARDA NOSIMMETRIYA TAHLILI VA MODELLASH

**Duvshatova Dinora Kurbanbayevna**  
Abu Rayhon Beruniy nomidagi  
Urganch Davlat Universiteti  
Elektr energetika tizimlari va tarmoqlari  
yo'nalishi magistranti

**ANNOTATSIYA:** Ushbu maqola podstansiyalardagi kuchlanish nosimmetriyasi va uning elektr energiya sifatiga ta'siri muammosini kompleks ilmiy-texnik yondashuv asosida o'rganishga bag'ishlangan. Dissertatsiya 0,4–110 kV kuchlanishli podstansiyalarni o'z ichiga olgan tarmoqlar uchun nosimmetriyani baholash, modellar va kamaytirish bo'yicha yangi metodologik yechimlarni taqdim etadi.

Ish doirasida tomonidan ishlab chiqilgan elektr tarmog'idagi nosimmetriya metodologiyasi, fuzzy logic asosidagi baholash tizimlari, simmetriyalash usullari va yo'qotishlar tahlili metodlari hamda kuchlanish og'ishi va elektr energiya sifatiga ta'sirining nazariy va eksperimental natijalari asosiy manba sifatida foydalanildi.


**Kalit so'zlar:** kuchlanish nosimmetriyasi, elektr energiya sifati, sanoat iste'molchilari, energiya yo'qotishlari, balanslash transformatorlari, podstansiya.

KIRISH

Zamonaviy dunyo iqtisodiyotining jadal rivojlanishi elektr energiyasiga bo'lgan talabni kundan-kunga oshirib bormoqda. O'zbekiston Respublikasining «2022–2030 yillarda energetika sohasini rivojlantirish konsepsiyasi» va Prezident farmonlari doirasida energetika tizimini modernizatsiya qilish va elektr energiyasi sifatini yaxshilash dolzarb masalalar qatorida turmoqda. Mamlakatda elektr energiyasi ishlab chiqarish hajmi 2024 yilda 77 mlrd kWh dan oshdi, biroq tarqatish tarmoqlarida yo'qotishlar hali ham yuqori – 14–16% darajasida saqlanmoqda.

2.1. Podstansiyalarda nosimmetriya yuzaga kelishining sabablari

Podstansiyalarda kuchlanish nosimmetriyasining kelib chiqishi murakkab va ko'p omilli jarayondir. Nosimmetriyaning asosiy manbai sifatida yuklamalar nosimmetriyasi etakchi o'rinni egallaydi. Xoliddinov I.X. (2024) tadqiqotlariga ko'ra, O'zbekiston tarqatish tarmoqlarida uzunmuddatli nosimmetriyaning asosiy sabablari: bir fazali iste'molchilarning tarmoqqa notekis ulanishi (55–65%), transformator va liniyalar eskirishi (20–30%), avariya hodisalari (12–18%) va boshqa omillar (5–8%) hisoblanadi [6].



4-rasm. Podstansiyalarda kuchlanish nosimmetriyasi sabablarining taqsimlanishi, %

Kuchlanish nosimmetriyasi sabablarining to'liq tasnifi quyidagi jadvalda keltirilgan:

2-jadval. Podstansiyalarda nosimmetriya sabablari va ta'sir darajasi

Nosimmetriya turi	Asosiy sabablar	Ta'sir darajasi
Yuklamalar nosimmetriyasi	Bir fazali iste'molchilar, maishiy qurilmalar	Yuqori (55-65%)
Tarmoq parametrlari nosimmetriyasi	Eski liniyalar, nosozliklar, kabel nosozligi	O'rta (20-30%)
Avariya holatlari	Bir fazali yerga ulashuvlar, qisqa tutashuvlar	Past, lekin kritik
Transformator nosimmetriyasi	Magnit tizimi nosimmetriyasi, noto'g'ri ulanish	O'rta (15-25%)

Bir fazali yuklamalar ta'siri: O'zbekistonda tarqatish tarmoqlarining aksariyat qismida kuchlanish 220/380 V bo'lib, aholi ko'p yashaydigan hududlarda iste'molchilar asosan bir fazali jihozlardan (sovutgichlar, konditsionerlar, kir yuvish mashinalari, elektr isitgichlar) foydalanadi. Ushbu bir fazali yuklamalarning uch fazaga notekis taqsimlanishi bevosita nosimmetriyaga olib keladi. Ayniqsa yoz oylarida konditsioner va sovutgich qurilmalar to'satdan yuqori yuklamani bir-ikki fazaga o'tkazishi nosimmetriyaning muvaqqat keskin oshishiga sabab bo'ladi.



Transformator parametrlari nosimmetriyasi: Uch fazali transformatorlarda magnit o'tkazuvchi (steel core) ning fizik nosimmetriyasi tufayli faza impedanslari bir-biridan farqlanishi mumkin. Bu holat, ayniqsa, eskirgan va uzoq muddatda ekspluatatsiyada bo'lgan transformatorlarda namoyon bo'ladi. O'zbekistonda 30 yildan ortiq ishlatilayotgan transformatorlar uchun bu omil muhim ahamiyat kasb etadi [10].

Tarmoq liniyalari parametrlari: Havo liniyalarida fazalararo o'zaro induktivlik va kapasitiv juftlanish (coupling) nosimmetrik bo'lmasligi mumkin. Fazalar orasidagi geometrik joylashuv (triangullar, gorizontal, vertikal) turli o'zaro induktivliklarga olib keladi. Transpozitsiya (fazalar joyini almashtirish) bu nomutanosiblikni kamaytiradi, biroq O'zbekiston tarmoqlarining aksariyatida transpozitsiya amalga oshirilmagan.

Bir fazali yerga ulashuv holatlari: O'rta kuchlanishli (6–10 kV) izolyatsiyalangan neytralli tarmoqlarda bir fazali yerga ulashuv (ОЗЗ – однофазное замыкание на землю) kuchlanish nosimmetriyasini keskin oshiradi. Bu holda zararlanmagan ikkita fazaning kuchlanishi liniyali kuchlanishgacha ko'tariladi, nol ketma-ketlik kuchlanishi esa oshadi.

## 2.2. Yuklamalar nosimmetriyasini matematik modellashtirish

Yuklamalar nosimmetriyasini matematik modellashtirishda «aktiv» yondashuv qo'llaniladi: uch fazali tarmoqda A, B, C fazalardagi yuklamalar  $P_A$ ,  $P_B$ ,  $P_C$  quvvatlari bilan ifodalanib, ular orasidagi farq nosimmetriya manbaini tashkil etadi. Transformatoridan keyingi 0,4 kV shinada kuchlanish nosimmetriyasi balanslashtirish transformatori va uning impedansiga bog'liq holda hisoblanadi.

Bir fazali yuklamalar asosidagi nosimmetriya modeli. Bitta fazaga ulangan quvmat  $P_A$  va boshqa fazalarga ulangan  $P_B$ ,  $P_C$  quvvatlari uchun nosimmetriya koeffitsiyenti:

$$\Delta P_{asym} = P_A - (P_A + P_B + P_C)/3 \quad (19\text{-formula})$$

Teskari ketma-ketlik tokining amplitudasi:

$$I_2 = \Delta P_{asym} / (3 \cdot U_1 \cdot \cos\varphi) \quad (20\text{-formula})$$

Bundan nosimmetriya koeffitsiyenti taxminan baholanadi:

$$K_2 U \approx (Z_2 \cdot I_2) / U_1 \times 100\% \quad (21\text{-formula})$$

bu yerda  $Z_2$  – tarmoqning teskari ketma-ketlik impedansi (Om);  $U_1$  – to'g'ri ketma-ketlik kuchlanishi (V).

Tarmoq sxemasidagi impedanslar nosimmetriyasi. Uch fazali tarmoqda A, B, C fazalari uchun  $Z_A$ ,  $Z_B$ ,  $Z_C$  impedanslari berilgan bo'lsin. Tarmoqning o'rtacha impedansi  $Z_{sr} = (Z_A + Z_B + Z_C)/3$  va nosimmetriya impedansi  $\Delta Z = Z_A - Z_{sr}$ . Bu holda teskari ketma-ketlik impedansi:

$$Z_2 = (\Delta Z_A \cdot a^2 + \Delta Z_B \cdot a + \Delta Z_C) / 3 \quad (22\text{-formula})$$

bu yerda  $a$  – Fortescue rotatsiya operatori (10-formula).

Nol ketma-ketlik impedansi yer zanjiriga bog'liq holda hisoblanadi. Neytrali yerlangan (TN-C, TN-S) tarmoqlarda:

$$Z_0 = (Z_A + Z_B + Z_C)/3 + 3 \cdot Z_n \quad (23\text{-formula})$$

bu yerda  $Z_n$  – neytral simining impedansi (Om). Izolyatsiyalangan neytralli tarmoqlarda  $Z_0 \rightarrow \infty$ , ya'ni nol ketma-ketlik oqimi amalda oqimaydi.



### Xulosalar

Ilmiy ishda amalga oshirilgan tahlil va modellashtirish ishlari asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

– Podstansiyalarda nosimmetriyaning asosiy sababi (55–65%) bir fazali yuklamalarning notekis taqsimlanishi bo'lib, O'zbekiston sharoitida maishiy jihozlar va qishloq xo'jaligi iste'molchilarining ko'pligi bu muammoni keskinlashtiradi.

– Yuklamalar nosimmetriyasini matematik modellashtirish uchun simmetrik komponentlar usulini o'z ichiga olgan formulalar tizimi (18–22 formulalar) taklif etildi.

– MATLAB/Simulink muhitida yaratilgan imitatsion model real o'lchov natijalariga  $\pm 0.15\%$  aniqlik bilan mos keldi, bu esa modelning ishonchligini tasdiqlaydi.

– Fuzzy logic asosidagi baholash tizimi (Mamdani algoritmi, 25 ta qoida) nosimmetriyani A–E sinflar bo'yicha avtomatik baholash imkonini beradi.

